

B.Q.TILABOV, J.A.SHERBO'TAYEV, N.D.TURAXODJAYEV

621.54  
T45

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI OLMALIQ FILIALI

# METALLARGA QUYMAKORLIK YO'LI BILAN VA DEFORMATSIYALAB ISHLOV BERISH

FANIDAN

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI UCHUN  
LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI  
MUSTAQIL BAJARISH BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY KO'RSATMA



Olmaliq - 2020

B.Q.TILABOV, J.A.SHERBO'TAYEV, N.D.TURA XODJAYEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI  
OLMALIQ FILIALI

**METALLARGA QUYMAKORLIK YO'LI BILAN  
VA DEFORMATSIYALAB ISHLOV BERISH**

**FANIDAN**

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI UCHUN**

**LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI  
MUSTAQIL BAJARISH BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY KO'RSATMA**



**OLMALIQ - 2020**

**O'UK: 621.74(075.8)**

**T 49**

**KBK: 34.61YA73**

**Tilabov, B.Q.**

Metallarga quymakorlik yo'li bilan va deformatsiyalab ishlov berish [texnika olim ta'lim muassasalari talabalari uchun laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarish bo'yicha]: o'quv-uslubiy ko'rsatma / B.Q.Tilabov, J.A.Sherbo'tayev, N.D.Turaxodjayev. - Toshkent : "DELTA PRINT SERVICE", 2020. - 140 b.

**UO'K: 621.74(075.8)**

**KBK: 34.61YA73**

O'quv-uslubiy ko'rsatma fan dasturiga mos ravishda tuzilgan. Ko'rsatma 5320200 – "Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish", 5320300 – Texnologik mashinalar va jihozlar, 5312800 – "Quymakorlik texnologiyalari" ta'lim yo'naliishlari talabalari uchun "Metallarga quymakorlik yo'li bilan va deformatsiyalab ishlov berish" fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarish bo'yicha barcha tavsiyalarni o'z ichiga olgan.

Ko'rsatmada ishning maqsadi va vazifalarin sbakllangan, uning tarkibi va tuzilishi atroflichcha bayon qilingan: quyma tayyorlab olish sxemasi, quymaga qo'yiladigan talablar, qum-gilli qolipda quymani tayyorlab olish texnologiyasi haqida tushuncha, quymakorlik moslamalarini tanlash, quymakorlik, qolip materiallari va aralashmalari haqida tushunchalar berilgan va ishni bajarish tartiblari to'g'ri ko'rsatilgan.

Texnik xarakterdagi loyihaviy yechimlarning mavjudligi, tanlangan quyma turiga bog'liq ravishda – quymani bir martalik yoki metall qolipda tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha batasfil ma'lumot berilgan.

*Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi.*

**Taqribchilar:** ToshDTU «Materialshunoslik» kafedrasi professori, texnika fanlari doktori S.D.Nurmurodov,

ToshDTU OF «Mashinasozlik texnologiyasi» kafedrasi

dotsenti, texnika fanlari nomzodi I.N.Nugmanov,

«OTKM» AJ Rux zavodi Bosh mexanigi B.N.Ishmurodov.

**ISBN: 978-9943-5121-6-0**

© Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, 2020.

© Tilabov B.Q., Sherbo'tayev J.A., Turaxodjayev N.D., 2020.

© "DELTA PRINT SERVICE" MChJ, 2020.

## KIRISH

Mazkur o'quv-uslubiy ko'rsatma texnika oliy ta'lim muassasalarining 5320200 – "Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashirish", 5320300 – "Texnologik mashinalar va jihozlar" hamda 5312800 - "Quymakorlik texnologiyalari" ta'lim yo'naliishlari talabalari uchun "Metallarga quymakorlik yo'li bilan va deformatsiyalab ishlov berish" fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarish tartibini o'z ichiga olgan.

Talabalar laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajarishga kirishishidan oldin, aynan shu ishlariga tegishli nazariy materiallarni takrorlab, hisobot jadvallarini tayyorlab kelishlari kerak. Avval o'qituvchi ishning maqsadi va vazifalarini, ishni bajarishda foydalilanligan jixozlarning tarkibi va tuzilishini atroficha bayon qiladi. Quyma tayyorlab olish sxemasi, quymaga qo'yiladigan talablar, qum-gilli qolipda quymani tayyorlab olish texnologiyasi haqida tushuncha, quymakorlik moslamalarini tanlash, quymakorlik, qelip materiallari va aralashmasi haqida tushuncha va ishni bajarish bo'yicha talablarni birin-ketin tushuntirib beradi.

Texnik xarakterdagи loyihibiy yechimlarning mavjudligi, tanlangan quyma turiga bog'liq ravishda quymani bir marta ik yoki metall qolipda tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda batafsil ko'rsatilgan.

Ishlar bajarilgandan keyin esa talabaarga sinov o'tkazishda xavfsizlik teknikasiga doir masalalar o'qitiladi va ular xavfsizlik teknikasi qoidalari bilan tanishganliklari to'g'risida maxsus jurnalga imzo chekadilar. So'ngra o'qituvchi talabalarни 2 guruhga ajratib, ish boshlashga ruxsat beradi. Ana undan keyin talabalar o'qituvchi bilan birgalikda ish boshlaydi.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>Mundarija .....</b>	<b>4</b>
<b>1 - Laboratoriya ishi. Quyma tayyorlasb texnologik jarayonini ishlab chiqish .....</b>	<b>5</b>
<b>2 - Laboratoriya ishi. Qolip qumini gillini aniqlash .....</b>	<b>10</b>
<b>3 - Laboratoriya ishi. Qolip qumlari donachalarining mayda-yirikligini aniqlash .....</b>	<b>14</b>
<b>4 - Laboratoriya ishi. Bir martali ishlataladigan qolipga qo'lda o'zak tayyorlash texnologiyasi .....</b>	<b>18</b>
<b>5 - Laboratoriya ishi. Qolip aralashmalarini namligini aniqlash .....</b>	<b>21</b>
<b>6 - Laboratoriya ishi. Konstruksion materiallarning mexanik xossalarni (statik, dinamik va siklik yuklamalar tasirida) aniqlash .....</b>	<b>23</b>
<b>7 - Laboratoriya ishi. Konstruksion materiallarning texnologik xossalarni aniqlash .....</b>	<b>44</b>
<b>8 - Laboratoriya ishi. Temir-uglerod qotishmalaringin holat diagrammasini tuzish va tuzilishlarini o'rGANISH .....</b>	<b>49</b>
<b>9 - Laboratoriya ishi. Po'lal buyumlari qattiq karbyurizatorda sementitlash .....</b>	<b>58</b>
<b>10 - Laboratoriya ishi. Quy malarni qoliplarda olish .....</b>	<b>61</b>
<b>11 - Laboratoriya ishi. Metall quymalarda uchraydigan nuqsonlar, ularning hosil bo'lish sabablari va oldini olish tadbirlari .....</b>	<b>65</b>
<b>12 - Laboratoriya ishi. Payvand birikmalarda uchraydigan nuqsonlar, ularning hosil bo'lish sabablari va oldini olish tadbirlari .....</b>	<b>70</b>
<b>13 - Laboratoriya ishi. Konstruksion materiallardan tayyorlangan detallarni yelimlab birlashtirish .....</b>	<b>74</b>
<b>14 - Laboratoriya ishi. Metallarni bo'ylama prokatlash .....</b>	<b>76</b>
<b>1 - Amaliy mashg'ulot. Quymakorlik qotishmalaringin suyuqlik oquvchanligini aniqlash .....</b>	<b>80</b>
<b>2 - Amaliy mashg'ulot. Induksion pechida po'lalni suyuqlantirish .....</b>	<b>83</b>
<b>3 - Amaliy mashg'ulot. Modifikatsiya qilinadigan kulrang cho'yarni suyuqlantirish .....</b>	<b>86</b>
<b>4 - Amaliy masbg'ulot. Qolip qumlarini va gillarini turlari .....</b>	<b>90</b>
<b>5 - Amaliy mashg'ulot. Qolip aralashmalarini va turlari .....</b>	<b>97</b>
<b>6 - Amaliy mashg'ulot. Quyish tizimini turlari, ustamalar, xovuraklar .....</b>	<b>100</b>
<b>7 - Amaliy mashg'ulot. Xovuraklar (vipori), ustama (pribili), muzlatgichlari .....</b>	<b>107</b>
<b>8 - Amaliy mashg'ulot. Suyuqlantirish jarayoniga bog'liq bo'lgan nuqsonlarni tahlili .....</b>	<b>112</b>
<b>9 - Amaliy mashg'ulot. Induksion pechida sintetik cho'yanni suyuqlantirish .....</b>	<b>115</b>
<b>10 - Amaliy mashg'ulot. Nam holatdagi qorishmalardan tayyorlangan namunalarni siqishdag'i puxtalik chegarasini aniqlash .....</b>	<b>119</b>
<b>11 - Amaliy mashg'ulot. Quymalarni qoliplarda olish .....</b>	<b>121</b>
<b>12 - Amaliy mashg'ulot. Metall quymalarda uchraydigan nuqsonlar, ularning hosil bo'lish sabablari va oldini olish tadbirlari .....</b>	<b>125</b>
<b>13 - Amaliy mashg'ulot. Quyma zagatovka tyyorlash texnologik jarayonini o'rGANISH usullari .....</b>	<b>130</b>
<b>Adabiyotlar .....</b>	<b>137</b>

## 1 - LABORATORIYA ISHI

### QUYMA TAYYORLASH TEKNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH

**Ishning maqsadi:** Quyma tayyorlab olish texnologik jarayonini ishlab chiqish va qum-gilli qolipga cho'yan quyish.

**Ishning nazariy qismi:** Sifatli quyrna olish uchun quyiladigan detal konstruksiyasi texnologik berilishi kerak, tayyorlashda sodda, oddiy va arzon, zaruriy mustahkamlikni ta'minlovchi, metallni to'liq foydalanish va quymaga mexanik ishlov berishga karnroq sarf talab etiladi.

Quyilgan detalning mustahkamligi nafaqat detal xususiyatlaridan balki uning sifatiga xain bog'liq. Detalning konstruktiv mustahkamligi gaz, shlak, qumli rakovina, usadkali rakovina, yoriqlar, ichki kuchlanishlar kabi cefektlar natijasida kamayadi.

Quyiladigan detallar kam qarshilikka uchraydigan formalar, devor qalinligida kuchli o'zgarishlarsiz bo'lgan oddiy konfigurasiya, formaning metall bilan to'lishining qiyinlashishi kabilarida o'tkazilishi mumkin. Yupqa devordan qalin devorga qattiq o'tish ichki kuchlanishlar, yoriqlar hosil bo'lishiga olib keladi.

**Ishni bajarish tartibi:** Quymani olish texnologiyasini ishlab chiqish chizma va detal konstruksiyasi bilan tanishishdan boshlanadi, qaysiki talaba tanlashi kerakligiga bogliq: qolip usuli, quymani formada joylashishi, o'zaklar soni, metall o'tish joyi, quyish tizimining o'lchamlari va konstruksiyasi, opoka o'lchamlari.

Qoliplash usuli quyiladigan detalning konfigurasiyasidan, model konstruksiyasini tanlashdan kelib chiqadi.

Formada metall o'tish joyini tanglash uchun quyidagi qoidalar tavsiya etiladi:

a) uzun quymalar uchun metall quyma uzun o'qining yo'naliishhida o'tkazilishi kerak;


b) quymaga reberning mavjudligi, pitatellar reberga qarama qarshi holda joylashtiruladi, ko'proq issiq metall bilan ta'minlash maqsadida;

c) metallni quymani ishlov berilmaydigan qismiga o'tkazishga intilish, qachonki metallmas formani o'pirib ketganda mexanik ishlovda qayta tiklab bo'lmaydi;


d) metall oqimini katta balandlikdan tushishi va sachrashiga yo'l qo'ymaslik kerak;

e) turli qalinlikdagagi quymalarni bir vaqtida qotishi uchun metall ko'proq yupqa qismiga o'tkaziladi, yo'naltirilgan qotish uchun esa ko'proq quymani massiv qismiga o'tkaziladi.

1.1-rasmda kirish govaklarini hosil bo'lishi joylari,sovutgichlar va quymani konstruksiyasi va elementlarini optimal o'zgarish ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Kirishish govaklarini hosil bo'lishi.a) quymada metallning yig'ilib qolgan joylarida kirishish govaklarini hosil bo'lishi; b) sovulgichlarni qo'llanishi; c) konstruksiyasini o'zgarishi.



1.2-rasm. Opoka devorlari va modellar orasidagi masofa.

Opoka o'lchamlari quyish tizimi va metallning statik bosimi joylashtirgan holda, quymani balandligidan kelib chiqib model gabaritlarini aniqlaydi. Amaliyotda kuriqal model va opoka devori (1.2-rasm) orasidagi minimal zaruriy masofa 1.1-jadvalda berilgan.

Quyladigan modelning texnologik jarayonini ishlab chikkandan keyin talaba quymani, model, qirqilgandagi yigilgan formasini eskizini bajaradi; quyish tizimini o'lchamlarini hisoblaydi. Quymani eskizida mexanik ishlov berish uchun pripusk beriladi, galtellar bajariladi va ko'rsatiladi.


1.1-jadval

Moslama va opoka orasidagi minimal zaruriy masofa

Quyma xarakteri	O'lchamlar, mm		
MayJa	30-50	40-70	40-70
O'rta	50-90	70-120	75-150
Yink	100-120	150-350	150-310

Mexanik ishlov berish uchun quyum gabarit ishlovlar, quymani qolipdag'i joylashtirilishi va quymani qotishmasiga qarat qabul qilinadi.

Model eskizida ajratish yuzasi, qoliplash burchaklari, o'zak belgilarining forma va kattaliklari ko'rsatiladi. Model o'lchamlari qotishma usadkasining quynatnari va mexanik ishlov berish uchun pripusklarning hisobiga oshirilgan bo'lishi kerak.



1.3 – rasm. Qoliplash qiyaliklari: o'lchamlarini oshirish hisobida burchaklar tashkil topiladi; qisqarishi hisobiga losil qilinadi.

Model va o'zak yashiklarining vertikal yuzalarining qoliplash burchaklari qiymatlari (GOST V 13138-67) 1.2-jadvalda berilgan.

Model tayyorlanguncha model yashigiga forma va o'zak belgilarining qiymatlari ko'rsatilishi zarur. O'zakni formada gorizontal jcycleshtirishda o'zak belgilari silindrik qilib, vertikal bo'lganda esa konussimon qilib yasaladi. Gorizontal va vertikal znaklarning o'lchamlari znak ko'ndalang kesimi va uzunligi (gorizontal uchun), yoki uning balardligiga (vertikal hol uchun) bog'liq va GOST 3.1125-88 bo'yicha 1.2, 1.3 va 1.2-jadvallarda berilgan.

#### 1.2-jadval

#### Moslarnalar va o'zak qutilar dagi qiyaliklar

Model yoki o'zak qutisining balaridligi N, mm	Burchaklar			
	Yogochli model yoki o'zak yashigi		Metallik modellar yoki o'zak yashiklari	
	A, mm	R, grad.	O, mm	R, grad.
20 gacha	<1,0	<3°	0,5-1,0	1°30'-3°
20-50	1,0-2,0	1°30'-2°30'	0,8-1,2	1°-2°
50-100	1,5-2,5	0°30'	1,0-1,5	0°45'
100-200	2,0-3,0	0°45'-1°	1,5-2,0	0°30'-0°45'
200-300	2,5-4,0	0°30'-0°45'	2,0-3,0	0°30'-0°45'
300-500	4,0-5,0	0°30'-0°45'	2,5-4,0	0°20'-0°30'
500-800	5,0-6	<30	3,5-6,0	0°20'-0°30'
800-1800	0<6,0	<0°20'	<4,0	<0°15'
2000 dan ortik	<10,0	<0°15'	-	-

## 1.3-jadval

O'zakni znaklarining o'lchamlari gorizontal joylashtirilgan o'zaklarga

Ko'ndalang kesinda znak o'lchamlari, mm	O'zakni tayanchlarini orasiga qarab o'zak znaklarini uzunligi			
	50 gacha	50-150	150-300	300-500
25 gacha	15	25	40	-
25-50	20	30	45	60
50-100	25	35	50	70
100-200	30	40	55	80
200-300	-	50	60	90
300-400	-	-	80	100

## 1.4-jadval

Ko'ndalang kesimi va uzunligi bo'yicha balandligi

Ko'ndalang kesmda znak o'lchamlari, mm	Balandligi o'zakni chetidagi znakni uzunligi			
	50 gacha	50-150	150-300	300-500
25 gacha	20	25	-	-
25-50	20	40	60	70
100-200	30	30	40	60
200-300	35	35	40	50

**Ikkinci qism.**

Qolipga suyuq metall quyish texnologik jarayonini sxemasi 1.4-rasmida keltirilgan.

Qolipdash ikkita opokada ishlab chiqariladi. 1.1-jadvaldan opokani o'lchamlari yorug'likda 950x950 mm va balandligi pastki opoka 300mm ustki opoka esa 200 mm aniqlaymiz.

Quyish tizimining hisobi:

$$\text{Quymani hajmi: } (\pi B^2 \cdot \pi r^2) H = 92567 \text{ sm}^3$$

$$\text{Oboda ustamaning hajmi: } \pi r^2 200 \cdot 6 = 17422 \text{ sm}^3$$

$$\text{Gupchak ustamaning hajmi: } \pi^2 200 \cdot 2 = 3396 \text{ sm}^3$$

$$\text{Suyuq metallning umumiy hajmi: } 113385 \text{ sm}^3$$


$$\text{Quymani ustamalar bilan massasi: } Q = V \gamma = 113385 \cdot 7,7 = 873 \text{ kg}$$

$$\text{Gabarit hajmi: } V = 3,88 \cdot 4,2^2 \pi = 215 \text{ dm}^3$$

$$\text{Nisbiy zichligi } Q/V = 873/215 = 4.05 \text{ kg.}$$

Quyish quruq qolipda bajariladi quyish tizimining hisobda quyish tizimining kesim yuzasi aniqlanadi, quymada quyma govaklari, massiv kesimlarda ustama quyiladi, taxminiy o'lchamlari quyidagi tarzda aniqlanadi.

- a) o'lchama diametrik 1,3 marta katta qalinlikdagi devorni oladi.
- b) o'lchama balandligi o'zining diametridan 1,5 marta katta bo'ladi.
- c) o'lchamaning sidirilish quyma sidirilishining 30-40% tashkil etadi.
- d) o'lchama hisobiga formadan quyilgan suyuq metall og'irligining 30-50 to'g'ri keladi.



1.4-rasm. Quyma texnologik jarayonini ishlab chiqish sxemasi: a-o'lchama diametrik katta; b-o'lchama balandligi uziuning diametridan katta;c-o'lchamaning sidirilish quyma sidirilishining tashkil etishi; d-o'lchama hisobiga formadan quyilgan suyuq metall og'irligi.

**Hisobot tayyorlash.** Talaba hisobotida sxema tasnifi va jadvallar asosida quyish tizimining hisobi ishlab chiqariladi. Eskizi, model va yigilgan qolip rangli qalamlarda bajarilishi mumkin: o'zak ko'k rangda, mexanik ishllov berish uchun quymalar qizilda, muzlatkich yashil rangda va quyish texnologiyasi va quyilgan cho'yanni kimyoviy tarkibi va markasini ko'rsatish kerak.

#### **Hisobot mazmuni.**

1. Qisqacha nazariy ma'lumotlar.
2. Quyma tayyorlab olish ketma-ketligi.
3. Qum-gilli qolipda cho'yan olish haqida ma'lumot.
4. laboratoriya o'tkazish tartibi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Quyma tayyorlab olish texnologik jarayonini so'zlab bering.
2. Qum- gilli qolipa cho'yan quyish usuli qanday bajariladi?
3. Qum- gilli qoliqlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Qolipdash nechta opokada ishlab chiqariladi.

## 2 - LABORATORIYA ISHI

### QOLIP QUMINING GILINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Qolip qumlaridagi gilni miqdorini aniqlash. Gilli asoslari shartli ravishda 22 mkm yoki 0,22 mm ko'ndalang o'lchamga ega minerallarning donachalari deb hisoblanadi. (GOST 3226-93 va GOST 28177-91).

#### **Ishning nazariy qismi:**

**Ishning birinchi qismida uskuna va materiallar:** Qopqoq bilan zich yopiladigan keng bo'g'izli, 11 hajmga ega bo'lgan, 90–100 mm diametrga teng, tubidan bo'g'zigacha 200 mm balandlikka xos shisha banka:

- 500 sm<sup>3</sup> va 50 sm<sup>3</sup> aniq o'lchovli menzurkalar;
- 500 g. ga mo'ljallangan tarozlar, turli qadoq toshlari bilan;
- Naycha, sifon;
- FB-2 ko'rinishidagi chayqaluvchi mashina yoki parrakli qorgich;
- Chinni pallalar;
- Qum.

Suvda distillangan bir foizli NaOH eritmasi. (FB-2) ko'rinishidagi chayqaluvchi apparatning chizmasi 2,1-rasmida ko'satilgan. U doimiy aylanuvchi o'qlar soni ( $p = 60$  ayl/min) banka 1, siqib turuvchi pallani ko'tarib turuvchi ikkita ramadan tuzilgan. Har bir banka qisuvchi vint yordamida pastki palla 2 o'rnatiladi va yuqori palla 3 taqaladi. Pallalarga rezina prokladka joylashtiriladi.

#### **Sinovni o'tkazish tartibi:**


1. Texnik tarozida namuna uchun 0,01g aniqlikda 50g og'irlikdagi quruq qum tortiladi.

2. 1 l sig'imli shisha bankaga namuna uchun tayyorlangan quruq qum solinadi. Bankaga 25 sm<sup>3</sup> hajmdagi bir foizli NaOH eritmasi va 475m<sup>3</sup> suv quyiladi. NaOH eritmasi gilli qismlar tarkibining taqsimlanishi va ularni quin zarralaridan tozalashga xizmat qiladi.

3. Tarkibiy qismlar bilan to'ldirilgan banka chayqaluvchi mashina FB - 2 yoki parrakli qorg'ich stoliga o'rnatiladi. Birinchi holatda chayqalish 60 min, ikkinchisida 15 min davom etadi. 2.1-rasmda qumdag'i gilli miqdorni aniqlaydigan ikkinchi apparat – parrakli aralashtirgich ko'satilgan (2.1-rasm). Aralashtirgich apparatning

4 staninasiga o'rnatilgan vertikal yo'naltiruvchi kronshteyn 3 da yurgiziladigan bosh qismi 1 elektrovdigateli va uni yoquvchi tumbleri joylashgan. Apparatning bosh qismi tagida 9 val tez aylanadigan temir parraklar bilan joylashgan, ularni vazifasi aralashtirgichning effektiv ishlashini oshirish. Apparatning tag qismida rezinadan yasalgan qistirma 5, shishali idish bilan aralashtirgichning 1 bosh qismini yo'naltiruvchi 3 dan pastga va tepaga 2 dastgoh, uni jaib qilish richagini bosish bilan amalga oshiriladi.

Chayqalish davri tugagach, banka asbobdan olinib, tubdan 150 mm yuqori ko'rsatkichgacha suv bilan to'ldiriladi. Shunda rezina proqladkaga yopishgan qum toza yuvilib tushadi. Keyin o'n daqiqalik tindirish amalga oshirilib, hosil bo'lgan quyqa sifon - naycha orqali oqiziladi (2.1-rasm).




2. I-rasm. Chayqaluvchi usulda gilning miqdorini aniqlaydigan FB-2 apparati.

Naycha bankaga shunday kiritiladiki, uning oxirgi uchi banka tubidan 125 mm kam bo'lmasligi va suv sathidan 125 mm bo'lishi talab qilinadi. Bu 25 mm. masofa mo'ljali asosan, banka tubidagi qum zarralarini shimilib qolmasligi uchun tanlangan o'lchamdir. 125 mm ichkaridagi suv chiqarilgach, bankada yana avvalgi miqdordagi suv to'latiladi va quyqa shiddat bilan chayqatilib, 10 min tindirilgach, yana naycha orqali bo'shatiladi. Bu 5 daqiqalik tindirish va bo'shatish jarayoni qum ustidagi suvning tiniq tusga kirgunicha davom ettiriladi. Bu ko'rinish suvda shartli 0,022 mm kam diametrli zarralarini mutlaqo yo'qligini ko'rsatadi. Suvli bankadagi qum zarralarini to'kkach, suv to'qilib, qum bankadan chinni idishga ag'dariladi. Suv qoldiqlari quritish qutisida  $105\text{--}110^\circ$  yordamida yo'qotiladi. Tabiiy og'irlilikkacha quritilgan qum aniq 0,01g o'lchanadi. Gil tarkibli asoslar miqdori qumning dastlabki olingan hajm og'irligi va tozalangan toza quruq qumning har xil farqlanishi bilan foizda ifodalanadi.

$$X = \frac{q - q_1}{q}$$

ya'ni:  $q$  – dastlabki massa va qum hajmi;  
 $q_1$  – tozalab, quritilgan qum massasining hajmi.

Kattaroq o'lchamdagagi mineral qismlarning idish tubiga tushish tezligini aniqlashda Standart usulidagi aniqlash talablaridan kelib chiqiladi. Stoks tenglamasidan foydalaniib, uni quyidagicha bajarish mumkin.



2.2-rasm. Cho'ktirish usulidagi gilning miqdorinin aniqlaydigan apparat gilning miqdorinin aniqlaydigan apparat (a) va sifoni idish (b).

Ishning birinchi qismida parrakli aralashtirgichdan foydalaniladi.

Parrakli aralashtirgich h - suvni 0,022 mm kichikroq bo'lgan zarrachalari sifon orqali tushirish usuli bilan aniqlanadi:

1. Apparatning bosh qismi elektrodvigateli bilan.
2. Pishang (richag).
3. Yo'naltiruvchi kronshteyn.
4. Apparatni tag qismi.
5. Rezinali qistigich.
6. Shishali idish.
7. Parraklar.
8. Temir kuraklar (lopatkalar).
9. Val.
10. Tumbler.
11. 0,022 mm yirikroq donachalar.

$$V = \frac{qd^2(p_1 - p_2)}{18t}$$

ya'ni: V – gil tarkibli asoslardagi eng ko'p kattaikdag'i qismlarning (sm/sek) tushishi tezligi;

$q$  – og'irlik kuchini tezlatish ( $981 \text{ sm/sec}^2$ );  $d$  – sm hisobida shartli qabul qilingan sharsimon shaklli mineral zarralar diametri, mm;

$R_1$  – kvarts zichligi ( $2,62 \text{ kt/sm}^3$ );

$r_2$  – suv zichligi ( $1,00 \text{ g/sm}^3$ );  $t$  –  $20^\circ$  suvni yopishqoqligi ( $0,01 \text{ to'xtam yoki } 0,01 \text{ g/sm, sek}$ );

Banka tubidagi yuqori suv sathini tindirish vaqtini aniqlash;


(7-rasm).

$t = 0,0022 \text{ sm}$  zarur kattaikdag'i qum zarralarini tindirish uchun;

$$t = \frac{H}{V}$$

ya'ni:  $t$  – suv tindirish davrida mineral qismlarning tushish vaqt;

$N$  – bankadagi suv sathining naycha bo'ylab (2,3 sm) balandligi ko'rsatkichi.



2.3-rasm. Sifonli idish, 1 litrli banka.

### Hisobot mazmuni.

1. Qumdag'i gilni miqdori.
2. Gilni aniqlash metodlari.
3. Ishni bajarish tartibi.

### Nazorat savollari.

1. Gillar bilan qumlarni donachalalarida farqlanish.
2. Stoks formulasi.
3. Gilni aniqlash metodikasi.

### 3 - LABORATORIYA ISHI

## QOLIP QUMLARI DONACHALARINING MAYDA YIRIKLIGINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Qolip qumlarining mayda- yirikligini aniqlab, undan turli quymalar olishga tavsija berish.

#### **Ishning nazariy qismi:**

Ishning birinchi qismida uskuna va materiallar:

- 500 g. li texnik tarozlar, turli qadoq toshlar;
- qattiqroq qora qog'oz;
- elash apparatlari, turli elash vositalari bilan.

Ishni sinov tartibi:

Usman shahar quymakorlik mashinalari zavodi tomonidan chiqarilgan standart elash apparati 11 ustun raqamidan iborat elash vositalari. Bir ustun raqami yorug'lik tirkishi yo'nalihidagi kvadrat kataklari kattaligi bilan ifodalanadi

(3.1-rasm). 3.1-jadvalda elak tavsiflari keltirilgan.

3.1-jadval

GOST 35 84-91 bo'yicha standartlarga muvofiq elaklarning tavsifi

Elak №	Elak teshigining o'chovi, mm	Elak №	Elak teshigini o'chovi, mm
2,5	2,5	02	0,2
1,6	1,6	016	0,16
1,0	1,0	01	0,1
0,63	0,63	0063	0,063
0,4	0,4	005	0,05
0,315	0,315	0	0

Bog'lam 1 ko'rinishidagi elaklar dastasi qopqoq, 2 bilan berkitilgan bo'lib, palla 3 o'rnatiladi va qaytarma qisqich yordamida to'silgan, lekin chizmada bu ko'rsatilmagan. Apparat ishga tushirilganda hamma elaklar 300 ayl/min. tezlikda aylanuvchi val 5 mahkamlangan gorizontal tekkislikdagi eksentrik 4 ta'sirida oldiga-qaytarma xarakatlanadi. Asbobning yuqori qismida qopqoq, 2 har mino'tga 180 zarbni shiddat bilan uruvchi to'qmoq bor.


O'zini tabiiy oraliq holatiga kelguncha 105-110°C f°-quritilib sinovdan ortib qolgan nam qum qismi bog'lamda ko'rsatilgan yuqori elakka extiyot bilan sepiladi va qisqich bilan yopiladi.

Shundan keyin hamma elaklar bog'lami apparatga o'matilib, elash uchun tayyorlanadi. Qolip qumlarini gil va kreminiy tarkibli moddalarga bog'liqligi tasnifi 3.2-jadvalda keltirilgan.

Elash davri 15 min. ni tashkil qiladi. Bu jarayon tugagach, hamma elaklar bog'lami apparatdan olinadi va har bir elakdagi qum qoldig'ini alohida o'chash uchun taxta ustiga olinadi. Shu sababli qum qoldiqlarini ehtiyyotkorlik bilan

500x500 mm hajmdagi yaltiroq qog'ozga to'kib, keyin texnik taroz pallasiga ag'dariladi, har bir qum qoldig'i - 0,01 gr aniqlik bilan o'lchanadi.

**Eslatma.** Qum qoldig'i ni elakdan ag'darishda elak kataklarida qotib qolgan qum zarralarini qo'l barmoqlari bilan surishga va umuman elak to'riga qo'l tekkizishga ruhsat etilmaydi. Bu zarralarni ingichka popukli cho'tkadan foydalanib yoki elak gardishini kaftlar bilan tebratib turish kerak bo'ladi.



3.1 - rasm. Qumni tarkibining donadorligini aniqlovchi apparat:

1-elaklarning to'plami kiritiladigan joy; 2-elaklarning to'plami; 3-qopqoq.  
Kvars qumlarning asosi-bu kremniyini dioksidi

$\text{Si}_2$  - kremnezyomdir. Kremnezyomning miqdori qumda qancha ko'p bo'lsa, qumning sifati shuncha balanddir.

GOST 2138-91 bo'yicha kvarts qumlari undagi gil miqdoriga qarab kvartsli, yog'siz va yog'liklarga bo'linadi. Kvars qumlarda gil miqdori 2% gacha bo'ladi.

Yog'siz qumlarda gil miqdori 2-12% gacha va yog'li qumlarda 2-50% gacha bo'ladi.

#### *Ikkinci qismi.*

Qumdag'i gillarning o'chovlari 22 mkm va undan kamroq bo'ladi. Agar mineralda gil zarrachalarining miqdori 50% dan ko'proq bo'lsa, bu mineral gillari sinfiga kiradi.

Kvars qumlari gil miqdoriga qarab guruhlarga bo'linadi (3.3-jadval).

$\text{Si}_2$  - dioksid kremniy miqdori bo'yicha kvarts va yog'siz qumlarga bo'linadi (3.5- jadval). Donachalarini bir xillik koeffitsientiga qarab beshta guruhga

bo'linadi (3.4-jadval) va qolip qumlarining donachalarining o'rtacha o'lcoviga qarab klassifikatsiyasi 3.5-jadvalda keltirilgan. Yog'lik qumlarning sifilishdagi mexanik xususiyatlari muvofiq guruhlari 3.2-jadvalda keltirilgan.

### 3.2-jadval

**Qolip qumlarining gil va kremlniy tarkibli moddalarga bog'liqligi tasnifi**

Guruhi	Massasi bo'yicha qolip qunda, % oshiq bo'lmagan	
	Kvartsl	Yog'siz
1.	0,2	4,0
2.	0,5	8,0
3.	1,0	12,0
4.	0,5	-
5.	2,0	-

### 3.3-jadval

**Qumdag'i glinazemi bo'yicha Kvartsli va yog'siz qumlarining tasnifi**

Guruhi	Si <sub>2</sub> bo'yicha, % oshiq bo'lmagan	Kvarts qumi		Yog'siz qum
		Guruhi	Si <sub>2</sub> bo'yicha, % oshiq bo'lmagan	
K <sub>1</sub>	99			
K <sub>2</sub>	98	T <sub>1</sub>		96
K <sub>3</sub>	97	T <sub>2</sub>		93
K <sub>4</sub>	95	T <sub>3</sub>		90
K <sub>5</sub>	93			

### 3.4-jadval

**Bir xillik koefitsienti bo'yicha qolip qumlarining tasnifi**

Guruhi	% bir xillik koefitsienti
0 <sub>1</sub>	80 dan oshiqroq
0 <sub>2</sub>	70-80 gacha
0 <sub>3</sub>	50-60 gacha
0 <sub>4</sub>	50-60 gacha
0 <sub>5</sub>	50 gacha

### 3.5-jadval

**Kvarts, yog'siz va yog'lik qumlar donachalarining o'rtacha o'lcovi bo'yicha tasnifi**

Guruhi	Donachalarining o'rtacha o'lcovi, mm
01	0,14 gucha
016	0,14-0,18 gacha
02	0,19-0,3 gacha
025	0,4-0,8 gacha
03	0,8 gacha

### 3.6-jadval

**Yog'lik qumlarining sifilish bo'yicha puxtaligi**

Guruhi	Nam holatdagi sifilishga sinash puxtaligi, N/mm <sup>2</sup>
J <sub>1</sub>	0,08 dan oshiqroq
J <sub>2</sub>	0,05-0,08 gacha
J <sub>3</sub>	0,05 gacha

## **Qumlar quyidagi tartibda markalanadi:**


3K<sub>3</sub> – gil miqdori 1%, kremnezyom 97% dan kam emas. Donachalarining bir xillik koefitsienti 70–80% dan kam bo'limgan va donachalarini o'Ichovi 0,19 dan 0,23 mm. gacha. J,016–yog'lik qum, siqilish puxtaligi 0,08 N/mm<sup>2</sup> va donalarining o'rtacha o'Ichovi 0,14–0,18 mm gacha. 2T<sub>2</sub>016-bu markada gilni miqdori 8% ko'pmas, va kremnezem 93% kam emas yog'siz qum, donachalarining o'rtacha o'Ichovlari 0,14–0,18 mm.

### **Hisobot mazmuni.**

1. Qisqacha nazariy ma'lumotlar.
2. Qumlarning markalanishi.
3. Laboratoriya o'tkazish tartibi.
4. Laboratoriya o'tkazish qurilmasi, ishlashi va laboratoriyanı o'tkazish texnologiyasi.

### **Nazorat savollari:**

1. O'zaklar uchun qanday qumlarni ishlatsa yaxshi?
2. Qanday elaklar ishlatalinadi?
3. Qumning asosiy fraktsiyasi deganda nimani tushinasiz?
4. Qolip qumlardagi gil miqdorini aniqlash usulini tushuntirib bering.
5. Gil miqdoriga qaysi o'Ichovli donachalar kiradi?
6. Gilning miqdorini aniqlash apparatining ishlash prinsipini aytilib bering.



#### 4 - LABORATORIYA ISHI


### BIR MARTALIK ISHLATILADIGAN QOLIPGA QO'LDA O'ZAK TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

**Ishning maqsadi:** Qo'lda ajraladigan va ajralmaydigan qutilarda o'zak tayyorlash bilan tanishish va tayyorlashni o'rghanish.


#### Ishning nazariy qismi:

Ishning birinchi qismi bo'yicha o'zaklarni tayyorlashda ularning material tarkibini to'g'ri belgilashdan tashqari ayrim texnologik vositalardan xam foydalaniлади. Jumladan, oddiy shaklli mayda (ingichka, yupqa) o'zaklarni tayyorlashda ularning puxtaligini oshirish maqsadida oralariga metall simi quyilsa, murakkab shakilli yirik o'zaklar tayyorlashda esa metall rama va karkaslardan foydalaniлади.

Shuni xam qayd etish lozimki, ingichka, puxtaligi pastroq o'zaklar qolipga metall kiritishda sinmasligi uchun tagiga turli xil metall tirsaklar o'rnatiladi.



a)



b)


4.1-rasm.O'zak va turli xil metall tirsaklar. a) o'zak tayyorlash qismi;b) metall tirsaklar.

O'zakarni gaz o'tkazuvchanligini oshirish maqsadida orasiga poxol, kanop piliklari xam quyiladi. Ular o'zaklarni quritishda kuyib ketib, govaklar hosil kiladi.

4.2- rasmida troynik o'zakni yogoch o'zak qutisi qo'lda tayyorlashni qanday ketmeketlikda olib borish ishlari ko'rsatilgan.

Shuni qayd etish kerakki, o'zak tayyorlashni boshlashdan avval o'zak qutisi yarim pallalarining ish yuzalari qoldiq materiallar va changlardan tozalanib o'zak materiallarining devoriga yopishmasligi uchun yuzalariga kerosin purkaladi yoki grafit kukuni sepiladi (4.2-rasm, a).

Sugra quti yarim pallalarining o'zak materiali bilan tuldirilib, yaxshilab shibbalanadi (4.2-rasm, b).



4.2-rasm O'zak qutisini qo'lida tayyorlash ketma-ketligi.

Keyin o'zak materialiga karkas quyilib, ajralish yuzalaridan bir oz pastga botiriladida, gaz chiqarish kanalchalari ochiladi (4.2-rasm,c). So'ngra o'zak qutisi pallalari yig'iladi (4.2-rasm,d).

Shundan keyin o'zak qutisining devorlariga yog'och bolg'acha bilan oxista urib, ustki palla ostki palladan ajratiladi (4.2-rasm,e). Keyinuni pastki pallasi ustiga o'zakning shakliga mos quritish urindigi quyilib, uni pastki pallasi bilan birlgilikda 180°C aylantirib, o'zak o'rindig'iga o'tkaziladi (4.2-rasm,f).

So'ngra uni tabiy gazda yoki boshka yokilgida ishlaydigan pechda shakli va o'lchamiga kura 130-240°C ma'lum vaqt qizdirilib puxtalanadi.

Ma'lumki, quritish paytida o'zaklarning shakli va o'lchamlari ba'zan o'zgarishi mumkin. Bunday xollarda ular ta'mirlanadi, keyin maxsus taglikka terilib, quruq xonada saklanadi.

Yirik sexlarda o'zaklar kuriuvchi pechlar turli konstruksiyali (vertikal va grizontal) bulib, uzuksiz ishlaydi.

Shuni xam qayd etish joizki murakkab va katta o'lchamli o'zak qutilari xuddi modellar singari ayrim-ayrim bulaklardan tayyorlanib, keyin ularni uzaro dekstrin yoki sulfat yelimi bilan yelimlanib yigiladi.

Yirik quymakorlik sexlarida o'zaklarni tayyorlashda uning sifatini yaxshilab, jismoniy ishlarni osonlashtirish, ish unumini oshirish uchun turli konstruksiyali (mundshtukli, presslash, silkitish, qum purkash va qum otish) mashinalaridan keng foydalaniлади.

**Aralashgichga bir biridan boglovchi modda bilan farklanadigan ikki xil o'zak aralashmasini tayyorlash**

4.1-jadval

Quydagi xususiyatlarga ega bo'lganlaboratoriya lar uchun muljallangan aralashgichga bir biridan boglovchi modda bilan farklanadigan ikki xil o'zak aralashmasini tayyorlash kerak. Aralashma №	Gaz o'tkazuvchanligi	Nam xolatda puxtaligi, kg/sm <sup>2</sup>	Quritilgan xolatda puxtaligi, kg/sm <sup>2</sup>	Namligi, %
1				
2				

Oddiy silindrsimon o'zaklarni tayyorlab olib uni asosiy fizik-mekanik xususiyatlarini aniqlash kerak. O'zaklarni quritib, ularning sifatini tekshirish, quritilgan o'zaklarni ishlovlarini aniqlab, olingan natijalarni taqriz qilish lozim.

**Ishlatiladigan jixoz va asbob-uskunalar**

1. Modeli 017 bo'lgan laboratoriyalni qolip aralashmasi tayyorlangan qurilma (beguni 017).

2. Laboratoriya koperi (modeli 0307).
3. Nam va quritilgan holda puxtaligini aniqlaydigan maxsus qurilma.
4. Gaz o'tkazuvchanligini olchaydigan asbob (modeli 042).
5. Namlikni o'lchaydigan qurilma.
6. Texnik toroz.
7. 200 sm<sup>3</sup> suv sigadigan menzurka.
8. O'zak qutilar.
9. Bolgalar.
10. Maxsus xokandoz.
11. Suvokchi asbob va boshkalar.
12. Kvars qumi.
13. Boglovchi moddalar.
14. Suv
15. O'zak aralashmasi uchun quti.
16. Shtangensirkul.

**Isbni bajarish tartibi**

1. O'zak qutilarini va qolip tayyorlash asbob-usunalarini tayyorlash.
  2. Laboratoriya ni begunklarida ikki xil o'zak aralashmasini tayyorlash.
  3. Xar qaysi aralashmadan o'zaklar tayyorlash.
  4. Silindrsimon namunalarini vertikal holda quritish.
  5. O'zak aralashmasidan standart namunalar tayyorlab ularni fizik-mekanik xususiyatlarini aniqlash.
  6. Quritilgan o'zaklarni sifatini, ishlovlarini tekshirish lozim.
- Ishlovlarni jadvalga yozish.

**Quritilgan o'zaklarni sifatini, ishlovlarini tekshirish**

**4.2-jadval**

Aralash ma №	Namuna №	Aralashmani sifatini belgisi			
		Gazo'tkazuvchani ligi, bir.	Nam xolatda puxtaligi, kg/sm <sup>2</sup>	Namligi, %	Quritilgan xolatda puxtaligi, kg/sm <sup>2</sup>
No 1	1				
	2				
No 2	1				
	2				

**Hisobotni mazmuni.**

1. O'zak aralashmasini tayyorlash texnologiyasi va aniqlangan fizik-mekanik xususiyatlarni ko'rsatkichi.
2. Ajraladigan va ajralmaydigan o'zak qutilarida o'zak tayyorlash texnologiyasini yozish.
3. O'zak yashiklarini sifatini va o'zakni ishlovlarinio'zgarishi aniqlab yozish.

**Nazorat savollari.**

1. O'zak aralashmasini tayyorlash texnologiyasi va fizik-mekanik xususiyatlarni qanay aniqlanadi?
2. O'zakarni gaz o'tkazuvchanligini oshirish maqsadida orasiga nimalar quyiladi.
3. O'zak qutilarida o'zak tayyorlash texnologiyasini ayтиb bering.
4. Quritish paytida o'zaklarning shakli va o'lchamlari o'zgarishi mumkinmi?

## **5 - LABORATORIYA ISHI**

### **QOLIP ARAHASHMALARINING NAMLIGINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Laboratoriya yanchish apparatida qolip qorishmalarini turlish namlik bilan tayyorlash – 2 soat.

GOST 2138-91 asosida tezlashtirilgan usul bilan qorishmalar namligini aniqlash.

**Ishning nazariy qismi:**

Ishning nazariy qismi uchun asosiy jihozlar va materiallar:

Laboratoriya yanchish apparati; tarozlar; o'lchash menzurkasi; 1,5–2,0 metall idishlar; tezkor aniqlash uchun asboblar. Qolipli qorishma ro'yxati har bir guruh uchun alohida tarqatiladi.

Odatda namlik deyilganda 105–110°C temperaturagacha qizitish bilan ajralgan, faqat mexanik aralashtirilgan suv bilan jarayon tushuniladi. Namlikni standart va GOST asosida tezlashtirilgan usul bilan aniqlash mumkin.

Amalda, asosan, sexlar uchun tezkor aniqlash uchun 4–5 min, ichida natijalar olinadigan sinov usullaridan foydalaniadi. Qum va qorishmalarining namligini tezkor aniqlashda 7-rasmagi 062 markali Usman zavodida ishlab chiqarilgan asbobdan foydalaniadi.

Korpus 1 lampa 2 bilan stanicani Z ga mustahkamlangan o'q, atrofida aylantirilib, dasta 5 tomonga olinadi. Qorishmalar sig'imidagi 2 pallalar asbobga o'rnatiladi. Korpus 6 boshlang'ich holatga qaytib, lampa 1 topshiriq, asosida belgilangan vaqtga ko'ra, yoqish moslamasi 4 yordamida yoqiladi.

#### Sinash tartibi:

Idishdagi 0,01 aniqlikka ega 20 g hajmdagi qorishma solinib, bir xil qatlam bilan taqsimlanadi. Shundan keyin idish asbobga o'rnatiladi, namuna 110°C haroratda 4–5 min davomida bir xil massaga kelguncha quritiladi.


Massaning o'zgarmasligi oraliq o'lchovlar bilan nazorat qilinadi. Masalan: quritish jarayoni 4 min davom etib, bu vaqt ichida og'irliliklar o'chanadi. Keyin qorishmali idish asbobga o'rnatiladi va bir ikki min davomida o'chanadi.

Massadagi o'zgarmaslik materialdagi namlikni quritiladi va yana o'chanadi. Massaning o'zgarmasligi namlikni chiqib bo'lganligini bildiradi. Quyidagi formula asosida qorishmadagi namlik tarkibining % hisobi aniqdanadi:

$$W = \frac{G - G_1}{G} \cdot 100\%$$

Demak  $G$  – qurishgacha bo'lgan g. dagi massa hajmi;

$G_1$  – qurishdan keyingi g. dagi massa hajmi.



5.1-rasm. 062 markali namlikni tez aniqlaydigan apparat.

Namlikni o'lchashning tabiiy usuli avvaldan quritilib, tayyorlangan qolipli pallarga  $50 \pm 0,01$  g, og'rilikdagi sinalayotgan qorishma solinadi va quritishpechlariga o'tkaziladi. Pechdag'i harorat  $105-110^{\circ}\text{C}$  bo'lishi shart. Bir soatdan keyin yukli pallalar pechdan olinib tortiladi va keyin yana pechga joylashtiriladi.

Bu jarayon tahiyy og'irlik vujudga kelguncha davom etadi. Shundan so'ng yukli pallalar uy haroratida sovutishga erishish uchun eksikatorga joylanadi. Sovutilgan qorishma yana o'lchab ko'rildi. Yuqorida keltirilgan formula asosida qorishmaning namligi aniqlanadi.

#### **Hisobot mazmuni.**

1. Namlikni o'lchash asbobining tuzilishi va ishlash prinsipi.

2. Natijalarning tahlili.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qolip aralashmalarida namlik necha foizgacha bo'ladi?

2. Avtomatik tizimda qolip tayyorlab olishda namlik necha foiz bo'lishi kerak?

3. Namligi 7% bo'lsa aralashmani nima qilish kerak.

## **6 - LABORATORIYA ISHI**

### **KONSTRUKSION MATERIALLARNING MEXANIK XOSSALARINI (STATIK, DINAMIK VA SIKLIK YUKLAMALAR TA'SIRIDA) ANIQLASH**

**Ishning maqsadi.** Konstruksion materiallarning mexanik xossalarni aniqlash usullari bilan tanishish, turli tabiatli yuklamalar ta'sirida asosiy mexanik xossalarni aniqlash, olingan natijalarga ko'ra tegishli GOST jadvallaridan markasini va ishlatalish joylarini belgilash.

**Ishning nazariy qismi:** Materiallarning turli tashqi yuklamalar ta'siriga yorilmay, sinmay qarshilik ko'rsatish xususiyati uning mustahkamligi deyiladi. Konstruktorlar mashina detallarini yoki turli konstruksiya elementlarini loyixalashda ularning ish sharoiti (qo'yiladigan yuklama tabiatи va miqdori, muxit harorati vaboshqa ko'rsatkichlar) ni hisobga olgan holda, texnika-iqtisodiy talablarga javob beradigan bo'lishlari uchun ularning mexanik xossalarni, statik yuklama ta'sirida cho'zilishga ko'rsatadigan muvaqqat kuchlanishi ( $\sigma_{ch}$ ), oquvchanlik chegarasi kuchlanishi ( $\sigma_0$ ), nisbiy cho'ziluvchanligi ( $\delta$ ), nisbiy ingichkalanuvchanligi ( $\psi$ ), qattiqligi (HB yoki HR), zarbiy kuchlarga chidamligi, ya'ni qovushqoqlik (KC) qiymatini, yo'nalishi va qiymati o'zgaruvchan (siklik) kuchlarga chidamliligini bilishlari kerak. Bu ko'rsatkichlarga ko'ra texnologikk zagotovkalarga oqilona ishlov berish usullarini va rejimlarini belgilaydi.

Ma'lumki, real materiallar turli texnologik sabablarga ko'ra mutloq toza bo'lmaydi. Ularda juda oz bo'lsada, begona qo'shimchalar bo'ladi. Ularning ba'zi birlarining atomlari metallarning fazoviy panjaralariga o'tishi, kristall panjara tugunlarida bo'sh joylar bo'lishi, chiziqli siljishlar va boshqa nuqsonlar hosil etadi. Shular sababli real materiallarning mustaxkamligi va boshqa xossalari ideal metallarnikidan ancha zaif bo'ladi.

Masalan, real texnik temirning cho'zilishiga ko'rsatgan muvaqqat qarshilik kuchlanishi  $\sigma_{ch} = 25-30 \text{ kg.k/mm}^2$  bo'lsa, ideal ipsimon tolali temirning cho'zilishga ko'rsatgan muvaqqat qarshilik kuchlanishi  $\sigma_{ch} = 1200-1300 \text{ kg.k/mm}^2$

dir. Bundan ko'rindiki, real metallarning xossalari ancha ko'tarish imkoniyatlari bor ekan.

Laboratoriya ishi 8 soatga mo'ljallangan bo'lib, tubandagi bosqichlarda olib boriladi:


- 1) Sinaladigan materialdan tayyorlanadigan namunalar statik (o'zgarmas yoki asta-sekin ortib boruvchi) yuklamada cho'zilishga sinalib, ularning asosiy mexanik xossalari ( $\sigma_{ch}$ ,  $\sigma_0$ ,  $\delta$  va  $\psi$ ) aniqlanadi va sinilma yuzasining xarakteri kuzatiladi;
- 2) Qattiqligi Brinell va Rokvell usullarida aniqlanadi;
- 3) Namunalar zarbiy kuchlarga sinalib, ularning zarbiy qovushoqligi aniqlanadi;
- 4) Namunalar siklik kuchlarga toliqishga sinalib, chidamliligi aniqlanadi.

#### Materialarni statik yuklama bilan cho'zilishga sinash(gost 1497-84)

Foydalaniладigan namunalar, uskuna, moslamava o'lichov asboblari

**Namunalarni tayyorlash.** Sinaladigan materialning ko'ndalang kesim yuziga ko'ra ulardan GOST talabiga ko'ra silindrik yoki yassi namunalar tayyorlanadi.

2-va 3-jadvallarda foydalaniладigan namunalarga misollar keltirilgan.




6.1-rasm. UMM-5 Markali vertikal cho'zish chizmasining umumiy ko'rinishi va kinematik sxemasi.

Laboratoriya da namunalarni 5 t gacha yuklama beradigan UMM-5 markali universal sinov masbinasida sinaladi. Moslama sifatida sferik yuzali plastinkalardan, zaruriy ulchamlarni o'lchashda shtangensirkuldan, sinilma yuzasini kattalashtirib ko'rishda lupadan, shuningdek, namunada hisoblash uzunligi ( $l_0$ ) ni belgilasbda kerner va bolg'achadan foydalaniлади.


6.1-jadval

Silindrik namunalar

Tartib №	Namuna eskizi	O'lchamlari, mm								
		$d_0$	$l_0 = 5d_0$	$l_0 = 10d_0$	$l$	$d$	$h_1$	$h_2$	$R$	$Z$
1		10	50	100	$l_0 + \sqrt{R^2 + h_1^2}$	16	10	3	3	$l_0 + 2(h_1 + h_2)$
2		8	40	80	$l_0 + \sqrt{R^2 + h_1^2}$	13	10	3	2	
3		6	30	60	$l_0 + \sqrt{R^2 + h_1^2}$	12	10	2,5	1,5	
4		5	25	50	$l_0 + \sqrt{R^2 + h_1^2}$	11	10	2,5	1,5	

6.2-jadval

Yassi namunalar


Tartib №	Namuna eskizi	O'lchamlari, mm								
		$a_0$	$l_0$	$l_0 = \frac{5,65}{\sqrt{F_0}}$	$l_0 = \frac{11,3}{\sqrt{F_0}}$	$l$	$B$	$h_1$	$h_2$	$Z$
1		3	20	45	90	$l_0 + \sqrt{B^2 + h_1^2}$	30	40		
2		5	20	60	120	$l_0 + \sqrt{B^2 + h_1^2}$	40	50		
3		88	30	85	170	$l_0 + \sqrt{B^2 + h_1^2}$	40	50		
4		10	30	100	200	$l_0 + \sqrt{B^2 + h_1^2}$	40	60	15+20	$l_0 + 2(h_1 + h_2)$

6.1-rasmida UMM-5 markali mashinanining umumiy ko'rinishi va kinematik sxemasi (b) keltirilgan. Uning stанинasi 1 ga ikkita kolonna 2, ularga ustki qo'zgalmas 12 va pastki qo'zg'a- luvchi traverslar 11, traverslarga esa namuna o'matiladigan qisqichlar 5 o'matilgan. Mashinani yurgizish uchun ЩИТ-3 dagi yurgizish tugmachasi bosiladi. Bunda elektr dvigateli 7 harakatga kelib, undan harakat tezliklar qutisi 8, chervyakli uzatma 9 orqali gaykali vint 10 ga uzatiladi. Vint 10 ning pastga yurishida unga biriktirilgan qo'zg'aluvchi traversa 11 ham pastda yuradi. Qo'zgalmas traversa 12 bilan posangi tosh 13, moy amortizatori 14 va richaglar sistemasi 15 bog'langan. Agar qo'zg'aluvchi traversa pastga yurgizilsa, namunaga yuklama qo'yila boradi. Bunda mayatnik 4 chapga ko'tarilib, u suriluvchi reyka 20 ni chapga suradi. U esa o'z navbatida ish strelkasi 17 bilan bir o'qda o'matilgan shesternya 16 ni o'ngga aylantiradi. Ish strelkasi esa o'zi bilan nazorat strelkasi 18 ni yetaklaydi.

Sinovda mutanosiblik, elastiklik, oquvchanlik va mustahkamlik deformatsiyalovchi kuchlari ( $P_{m0}, P_{el}, P_0$  va  $P_{ax}$ ) qiymatlarini esa dinamometr siferlatida nazorat strelkasi ko'rsatadi.

6.2-rasmida kam uglerodli po'lat namunalarni cho'zishga sinashda olingan deformasiyalanish diagrammasi keltirilgan. Undan ko'rindiki, namunaga

qo'yilgan yuklama ortgan sari, namuna  $a$  nuqtali qiymatgacha mutanosib ravishda uzaya boradi. Yuklama bilan deformatsiya orasidagi mutanosib uzayish saqlanadigan uchastkadagi yuklama ( $P_{mt}$ ) mutanosib uzayishining chegara yuklamasi deyiladi. Yuklama bu qiymatdan ortsu, mutanosib uzayish buziladi. Sinovda namunaga qo'yilgan yuklama  $b$ nuqtali qiymatga yetgandagi yuklama ( $P_{el}$ ) elastik uzayishning chegara yuklamasi deyiladi. Bu yuklamada turli metall namunalarning hisobiy uzunligi ( $l_0$ ) ga nisbatan 0,005-0,05%.



6.2-rasm. Kam uglerodli tayorlangan namunali sinovda deformasiyalanish diagrammasi.

oralig'ida qoldiq deformasiya beradi. Agar namunaning mutanosib va elastik deformatsiyalovchi yuklamalarini namunaning sinovdan avvalgi ko'ndalang kesim yuzi ( $F_0$ )ga bo'linsa, materialning mutanosiblik va elastiklik chegara kuchlanishlari aniqlanadi:

$$\sigma_{mt} = \frac{P_{mt}}{F_0}; \sigma_{el} = \frac{P_{el}}{F_0}.$$

Agar namunaga qo'yilayotgan yuklama elastik deformasiyalovchi yuklamadan tortib,  $s$  nuqtali yuklamaga yetganda, yuklama deyarli ortmasada namuna uzaya boradi. Bu uchastka oquvchanlik chegarasi deyiladi. Bunda qoldik deformasiya qiymati namunaning sinovgacha hisobiy uzunligi ( $l_0$ ) ning 0,2 % iga to'g'ri keladi. Agar namunaga qo'yilgan yuklama ( $P_0$ ) ni uning ko'ndalang kesim yuzi ( $F_0$ )ga bo'linsa, oquvchanlik chegarasidagi kuchlanish aniqlanadi:

$$\sigma_0 = \frac{P_0}{F_0}.$$

Namunaga qo'yilgan yuklama  $b$ nuqtali  $P_{ax}$  qiymatga kelganda unda bo'yin hosil bo'la borib, u  $P_k$  yuklamada uziladi. Agar  $P_{max}$  yuklamani namunaning ko'ndalang kesim yuzi ( $F_0$ ) ga bo'linsa, uning cho'zilishga muvaqqat kuchlanishi aniqlanadi:

$$\sigma_{ch} = \frac{P_{max}}{F_0}$$

**Eslatma:** GOST larda  $P_{el}$  ni  $P_{up}$ ;  $P_0 - P_T$ ;  $\sigma_0 - \sigma_T$ ,  $\sigma_{ch} - \sigma_b$  deb yoziladi. Shuni qayd etish lozimki, materialning elastiklik xossasini mutanosiblik koeffitsiyenti ( $E$ ) xarakterlaydi va uni normal elastiklik moduli ham deyiladi. Ma'lum kuchlanishda  $E$  ortishida elastik deformasiya qiymati kamayadi, binobarin, konstruksiya bikirligi ortadi. Shu sababli  $E$  ga bikirlik moduli ham deyiladi. Uglerodli va legirlangan po'latlar uchun  $E = 210\text{ MPa}$ .

Normal kuchlanish ( $\sigma_n$ ) ni tubandagicha ifodalash mumkin:

$$\sigma_n = \frac{P_{mt}}{F_0} \text{ yoki } \sigma_n = E \cdot \delta$$

bu yerda  $E$  — mutanosiblik koeffisiyenti;  $\delta$  — nisbiy uzayuvchanlik.

### Sinovni o'tkazish tartibi

1. Talabalarga silindrik (yoki yassi) sinov namunaлari tarqatilgandan keyin ular namunaning ish I qismi diametri ( $d_0$ ) ni, hisobiy uzunligi ( $l_0$ ) ni o'lchaydilar.  $l_0$  qiymatini namunada kerner yordamida belgilanadi. Keyin namuna ish qismining ko'ndalang kesim yuzi ( $F_0$ ) ni hisoblab ularning qiymatini 4-jadvalning tegishli ustuniga yoziladi.
2. Sinash mashinasi qisqishlariga namunani maxsus sferik plastinka moslama yordamida tik o'rnatiladi. Buning uchun mashinani boshqarish shitidagi yuqoriga (sariqqa bo'yagan) yoki pastga yurgizuvchi (qoraga bo'yagan) tugmachalarni zaruriyatga ko'ra bosib, qo'zgaluvchi traversani yuqoriga yoki pastga yurgizib rostlanadi.
3. Dinomometrning ish va nazorat strelkalarini siferblat shkalasining nol ko'rsatgichiga, keyin tezlik qutisi dastasini eng kichik tezlik beruvchi holatiga o'tkaziladi.
4. «Pastga yurgizish» tugmachasi bosiladi. Bunda qo'zg'aluvchi traversa pastga yurib, namunaga yuklama asta qo'yila boradi. Sinovda nazorat strelkasi ko'rsatgan yuklamalar qiymati yozib boriladi. Namuna uzilgach «To'xtatish» (qizil rangga bo'yagan) tugmachasi bosilib mashina to'xtatiladi va namunaga qo'yilgan maksimal yuklamani nazorat strelka ko'rsatadi. Uni ham 4-jadvalning tegishli ustuniga yoziladi.
5. Uzilgan namuna bo'laklarini olib, singan joylari kuzatiladi. sinilma tabiatni va ko'rilgan nuqsonlar (g'ovaklik, darzlar va boshqalar) bo'lsa, ularni ham 6.3-jadvalda qayd etiladi. Keyin ularni jipslashtirib, hisobiy uzunligining uzaygan qiymati ( $l_k$ ) ni va bo'yin tortib uzilgan joy diametri ( $d_k$ )ni, ko'ndalang kesim yuzi ( $F_k$ ) ni hisoblab, bularning barini 4-jadvalning tegishli ustuniga, yoziladi.
6. Olingan materiallar asosida tubandagi formulalar bo'yicha materialning oquvchanlik chegara qarshilik kuchlanishi ( $\sigma_0$ ), cho'zilishga muvaqqat qarshilik kuchlanishi ( $\sigma_{ch}$ ), nisbiy uzayuvchanligi ( $\delta$ ) va nisbiy ingiebkalanuvchanlik ( $\psi$ ) lar aniqlanadi:

$$\sigma_0 = \frac{P_0}{F_0} \text{ MPa}; \sigma_{ch} = \frac{P_{max}}{F_0} \text{ MPa}; \delta = \frac{l_k \cdot l_0}{l_0} \cdot 100\%; \psi = \frac{F_k \cdot F_0}{F_0} \cdot 100\%.$$

Aniqlangan qiymatlarni ham 6.3 – jadvalning tegishli ustunlariga yoziladi. Keyin bu ko'rsatgichlarga ko'ra 1-ilovadagi jadvallardan po'lat markasi va ishlatalish joyi aniqlanadi, ularni ham 6.4 – jadvalning tegishli ustuniga yoziladi.

### **Materiallarning qattiqligini Brinell va Rokvell usullarida aniqlash GOST 9012-59 (ST SE 468-47)**

Materiallarning qattiqligi deb ularning sirtiga undan qattiqroq jismning botishiga ko'rsatgan qarshiligiga aytildi. Qattiqlikni aniqlashda qator usullar bo'lib, ularga sinaladigan material sirt yuziga maxsus uchlikni ma'lum balandlikdan tashlaganda uning materialga urilib qaytish balandligiga (Shor usuli), qattiqligi ma'lum bo'lgan etalon material bilan sinaladigan material sirt yuziga toblangan po'lat parchani botirib, ularda olingen izlar diametrlerini taqqoslash ilá (Poldi usuli), sinaladigan material sirt yuziga toblangan po'lat parchani ma'lum yuklama ostida botirib, unda olingen iz diametriga (Brinell usuli), sinaladigan material sirt yuziga olmos konusli uchlikni ma'lum yuklama ostida botirilganda botgan chuqurlik qiymatiga ko'ra (Rokvell usuli) aniqlash usullari kiradi. Lekin bu usullarning ichida Brinell va Rokvell usullari asboblarining tuzilishining oddiyligi, ishlash qulayligi, sinaladigan namuna yoki detal sirtiga putur yetmasligi, natijalarining tez va aniq olinishi va universalligi sababli sanoatda keng tarqalgan.

## Konstruksion materiallarni cho'zilishga sinash natijalari

### 6.3-jadval

GOST bo'yicha aniqlangan materiallar	Ishlatilgan joyi	
	Markasi	
Sinov materiallari	Nisbiy ingichkalanishi, $\psi\%$	
	Nisbiy uzayishi, $\delta\%$	
	Cho'zishgako'rsatganmuva qyatqarshilik kuchlanishi, $\sigma_{-1}$ , kg/mm <sup>2</sup>	
	Oqish chegarasi kuchlanishi, $\sigma_0$ kg.k/mm <sup>2</sup>	
Namunani sinovda aniqlangan yuklamalar va o'lcham o'zarishlari	Uzilgandan keyingi hisobiy uzunligining uzaygan uzunligi $l_k$ , mm	
	Uzilgan joy ko'ndalang kesim yuzi, $F_k$ mm <sup>2</sup>	
	Uzilgan joy diametri, $d_k$ mm	
	Maksimal yuklama $P_{max}$ , kg	
Namuna sinovgacha o'lchamlari	Oqish chegarasidagi yuklama $P_0$ , kg	
	Ko'ndalang kesim yuzi, $F_0$ mm <sup>2</sup>	
	Hisobiy uzunlik, $l_0$ mm	
	Hisobiy diametri, $d_0$ mm	
	Eskizi	
	Balgisi	
	Tartib №	

### Materiallarning qattiqligini Brinell usulida sinashda foydalaniladigan namunalar, asbob, moslama va o'lchov ashoblar

**Namunalarni tayyorlash.** Sinaladigan materiallardan kesib olingan zagotovkalaridan namunalarni GOST talabiga ko'ra tayyorlanadi.

Bunda uning sirtida moy, zanglar, tirmalgan joylar bo'lmasligi, tekis va silliq bo'lishi kerak. Buning uchun sirt yuzi mayda tishli egov yoki charx toshda

jilvirlanadi. Namunaning eng kichik qalinligi ( $S$ )botiriladigan sharchaning botgan izi chuqurligi ( $h$ ) dan kamida o'n marta katta bo'lishi kerak:  $S \geq 10 \cdot h$ ;  $h$  qiymatni esa tubandagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$h = \frac{0,102P}{\pi D \cdot HB} (P \cdot H da) \text{ yoki } h = \frac{P}{\pi D \cdot HB} (P, \text{kg.k}),$$

bu yerda  $P$  — namunaga qo'yilgan yuklama,  $H$  yoki kg.k;  $D$  — sharcha diametri, mm;  $HB$  — materialning Brinell bo'yicha qattiqligi, kg.k/mm<sup>2</sup>.


Sinaladigan namunani yoki detalning eng kichik qalinligi ( $h$ ), sharcha diametri ( $D$ ), yuklama ( $P$ ) va Brinell bo'yicha qattiqligi ( $HB$ ).  $HB$  ga ko'ra sharcha diametrini kamida necha mm bo'lishi 6.4-jadvalda keltirilgan.

#### Foydalanilgan asbob, moslama va o'lchov asboblar


Sinovda TII tipdag'i asbobdan, sharchaning namunada qoldirgan izi diametrini 20—30 marta kattalashtirib o'lhashga imkon beruvchi lupadan va namuna qalinligi, izlar chuqurligini, joyini va ular aro oralig'ini o'lhashda shtangensirkul yoki chizgichlardan foydalaniladi. 7- rasmda TII tipdag'i asbobning sxemasi keltirilgan. Sxemadan ko'rindiki, uning staniiasi 1 ning yuqori qismida namuna 5 ga, opravka 3 ga o'matilgan sharcha orqali yuklamani qo'yuvchi richaglar sistemasi 13, pastida esa stol 6 ni yuqoriga ko'taruvchi yoki pastga tushiruvchi vint 24 li uzatmasi bor. Agar tugmacha 7 bosilsa, elektr dvigateli 19 harakatga keladi. Undan esa harakat chervyakli reduktorlar 20 orqali krivoship-shatunli mexanizmga o'tadi. Shatun 15 ning pastga yurishida u bilan bog'langan rolik 14 ham pastga tortiladi. Bunda osma ilgagiga osilgan.

		Sharcha diametri, Dmm				Simov va ngnuzka (P), N (kg; k)													
		5		2,5		1		2		1		2		1		2			
		7355	2452	1226	1839	612,9	306,0	1177	(120)	392,3	(40)	196,1	(20)	294,2	(30)	98,07	(10)	49,03	(5)
-	-	-	3,2	1,6	-	1,6	0,8	-	-	1,3	-	0,6	0,4	1,2	-	-	0,6	0,3	
-	-	-	2,1	1,0	-	1,0	0,5	-	-	0,8	-	0,3	0,3	-	-	-	0,4	0,21	
-	-	-	1,6	0,8	-	0,8	0,4	-	-	0,6	-	0,3	0,3	-	-	-	0,3	0,16	
-	-	-	1,3	0,7	-	0,7	0,3	-	-	0,5	-	0,25	0,25	-	-	-	0,25	0,13	
3,2	2,6	1,1	0,6	1,6	1,6	0,6	0,3	1,3	-	0,5	0,2	0,4	0,3	0,20	0,11	-	0,20	0,11	
2,6	1,9	0,9	0,4	1,3	1,3	0,5	0,2	1,0	-	0,3	0,17	0,3	0,17	0,5	0,17	-	0,17	0,09	
1,9	1,3	0,7	-	1,0	0,4	-	0,8	-	-	0,5	0,25	-	-	0,4	0,13	-	0,13	-	
1,3	1,0	0,4	-	0,7	0,2	-	0,5	0,2	-	0,4	0,17	-	-	0,3	0,10	-	0,2	-	

10			4903 (1500)	6,4 3,2 2,1 1,6 1,3 1,1 0,9 - - -
			9807 (1000)	6,4 4,2 3,2 2,6 2,1 1,7 1,2 0,9 -
		14710 (1500)		6,4 4,2 3,8 3,2 2,6 2,1 1,7 1,2 0,9 -
		29420 (3000)		6,4 4,2 3,8 3,2 2,6 2,1 1,7 1,2 0,9 -
Brinell bo'yicha quttiqligi, HB			20 40 60 80 100 120 150 200 300 400	



6.3-rasm. TIII tipi qattiqlikni o'lashish priborini umumiy ko'rinishi va kinematik sxemasi:  
 1 — staniia; 2 — vint; 3 — apravka; 4 — cheklagich; 5 — namuna; 6 — stol; 7 — yurgizish  
 knopkasi; 8 — chashika; 9 — vint; 10 — maxovik; 11 — osma richag; 12 — yuk — toshlar; 13  
 — richaglar sistemasi; 14 — rolik; 15 — shatun; 16 — kontakt; 17 — ulagich va uzgich; 18  
 — krivoship val; 19 — elektrosvigatel; 20 — chervyakli reduktorlar; 21 — shpindel; 22 — prujina;  
 23 — vtulka; 24 — vint; 25 — lampochka.



6.4-rasm. Sinalayotgan materialga sharchani botirish sxemasi.

toshlar 12 massasi richaglar sistemasi orqali yuklamani namunagaqo'yadi va belgilangan vaqtidan keyin yuklama avtomatik olinadi. Metallarning qattiqligini aniqlashda ularning xiliga, taxminiy qattiqligiga va namunaga qo'yilgan yuklamaga ko'ra sharchalar diametri aniqlanadi. Agar diametri 1 mm li sharchada materialning qattiqligi aniqlanadigan bo'lsa, namunaning sirt yuzi jilolanishi kerak. Asbob tekis, biki o'rnatilgan bo'lishi, tebranishlarga berilmasligi lozim. Sinashni uy haroratida olib boriladi. Sinashni o'tkazishgacha namunaga qo'yiladigan yuklama (P) ning sharcha diametri kvadratiga nisbat ko'rsatkichi (K) qiymatini 6-jadvaldan material xiliga va taxminiy qattiqligiga ko'ra belgilanadi.

Keyin esa «K» qiymatga ko'ra 6.5-jadvaldan sharcha diametri va qo'yiladigan yuklama qiymati aniqlanadi.

#### 6.5-jadval


Metallar va qotishmalar xili	K N·mm <sup>2</sup> (kg·k·mm <sup>2</sup> )	HB kg/k/mm <sup>2</sup>
Temir, po'lat, cho'yan va boshqa yuqori puxta qotishmalar	294 (30)	96 dan 450 gacha
Titan va uning qotishmalar	147 (15)	50 dan 220 gacha
Alyuminiy, mis, nikel va ularning Magniy va uning qotishmalar	98 (10) 49 (5)	32 dan 200 gucha 16 dan 100 gacha
Podshipnik qotishmalar	24,5 (2,5)	8 dan 50 gacha
Qalay, qu'rg'oshin	9,8 (1)	3,2 dan 20 gacha

#### 6.6-jadval

Sharcha diametri, mm	$K = \frac{0,102P}{D^2}$ yoki $\frac{P}{D^2}$ uchun yuklama P, H (kg, k)					
	30	15	10	5	2,5	1
1,000	294,2 (30)	—	98,07 (10)	49,03 (5)	24,52 (2,5)	98,807 (1)
2,000	1177 (120)	—	392,3 (40)	196,1 (20)	98,07 (10)	39,23 (4)
2,500	1839 (187,5)	—	612,9 (62,5)	306,0 (31,2)	153,0 (15,5)	60,80 (6,2)
5,000	7355 (750)	—	2452 (250)	1226 (125)	612,9 (62,5)	245,2 (25)
10,000	29420 (3000)	14710 (1500)	9807 (1000)	4903 (500)	2452 (250)	980,7 (100)

### Sinashni o'tkazish tartibi:

1. Sinaladigan namunani asbobning ish stoli 6 ga siljimaydigan qilib qo'yiladi.
2. Tanlangan sharcha va zarur yuklamani beruvchi toshlar 12 ilgak 11 ga osiladi.
3. Maxovik 10 ni soat mili tomon aylantirib namunani sharcha tomon to chehol 4 ga tifalguncha ko'taramiz (Bunda sharcha markazi namuna chekkasidan kamida 4. 2,5 higa, izlar markazlar oralig'i esa 4/idan kichik bo'lmasligi lozim).
5. Tugmacha 7 bosiladi, hunda namunaga yuklama qo'yilishi bilan nazorat lampochkasi 25 yonadi (6.5-rasm). Namunani yuklama ostida tutish vaqtio'tishi bilanoq yuklama avtomatik olinadi. Bunda lampochka 25 o'chadi (qora metallarni sinashda namunani yuklama ostida 10—15 s, rangli metallarni sinashda esa 10—180 s, saqlanadi). Agar namunani yuklama ostida tutish vaqtiga asbobni rostlash zarur bo'lsa, staninasiga o'matilgan rostlash mexanizm kosachasi 8 ni tegishli shkala chizig'iga o'tkazib mahkamlanadi.



Lupa yordamida iz diametrini o'lchash sxemasi 6.5-rasm.

Maxovikchani soatmiliga teskari tomonga aylantirib, stolni pastga tushrigach, undan namunani olib, stolga qo'yib, lupa yordamida sharcha qoldirgan iz diametrini bir-birigatikyo'nalishdao'lchab, o'rtachaqiyatiolinadi (6.5-rasm). Bunda diametri 10 va 5 mm bo'lgan sharchalarning namunada qoldirgan izlari diametrini 0,05 mm aniqlikda, qolganlarni 0,01 mm aniqlikda o'lchanadi. Iz diametri ( $d$ ) sharcha diametri ( $D$ ) ga tubandagi qiymatlari oralig'iga tushishi kerak

$$0,25D < d < 0,6D$$

aks holda namunaning boshqa joyini takror o'lchash lozim.

Materiallarning Brinell bo'yicha qattiqligi tubandagi formula bilan ifodalanadi:

$$HB = \frac{P}{F_c} \text{ MPa (kg.k/mm}^2\text{)}$$

bu yerda  $P$  — sharchaga qo'yilan yuklama  $N$  (kg.k);  $F_c$  — sharchaning namuna sirtida qoldirgan segment izining yuzi,  $\text{mm}^2$ .

Geometriyadan ma'lumki, shar segment izining yuzi tubandagicha aniqlanadi:

$$F_c \approx \pi \cdot D \cdot h \text{ mm}^2$$

bu yerda  $\pi$  — aniq son bo'lib, u 3,14 ga teng;  $D$  — sharcha diametri,  $\text{mm}$ ;  $h$  —

sharchaning namunaga botgan chuqurligi, mm. h ni aniq o'lchash qiyinroqligi sababli sharcha izi diametri o'lchanadi. Ma'lumki, sharchaning namunaga botgan chuqurligi  $h = \frac{D - \sqrt{D^2 - d^2}}{2}$  mm gateng bo'lgani uchun formula (1) dagi o'rniiga uning qiymatini qo'ysak, unda sharchaning segment izi yuzini tubandagicha ifodalash mumkin!

$$F_c = \frac{\pi \cdot D}{2} (D - \sqrt{D^2 - d^2})$$

Demak, Brinell bo'yicha materiallar qattiqligini tubandagicha yozish mumkin:

$$HB = \frac{P}{F_c} = \frac{P}{\frac{\pi \cdot D}{2} (D - \sqrt{D^2 - d^2})} = \frac{2P}{\pi \cdot D (D - \sqrt{D^2 - d^2})}$$

Materiallarning qattiqligini tezda aniqlashda yuqoridagi formula asosida tuzilgan jadvallardan foydalanish katta qulaylik beradi. 1-ilovada bu xil jadvallardan biri keltirilgan. Brinell bo'yicha qattiqlik, masalan, 85HB5(750)20 tarzida yoziladi. Bu yerda 85 — materialning Brinell bo'yicha qattiqligini ( $\text{kg}/\text{mm}^2$ ), 5-sharcha diametrini (mm), 750 kg-k yuklamani qiymatini va 20 namunaning yuklama ostida tutish vaqtini sekundning, hisobida bildiradi.

Talabalar berilgan topshiriqqa ko'ra mustaqil ravishda olib borilgan sinov natijalarini 8 — jadvalga yozadilar. Shuni qayd etish ham lozimki, metallarning qattiqliklari bilan ularning cho'zilishga muvaqqat qarshiliklari orasida ma'lum bog'lanish bor:

$$\sigma_{ch} \equiv \alpha \cdot HB \text{ MPa } (\text{kg.k/mm}^2)$$

Masalan, yumshatilgan po'latlar uchun  $\alpha$  koeffisient 0,34 — 0,36 oralig'ida bo'ladi.

#### 6.7-jadval


#### Namunalarning Brinell bo'yicha aniqlangan kattaliklari

Tartib №	Namuna materiali va ~ qattiqligi $\text{kg}/\text{mm}^2$	Qalinligi, mm	Sinov sharti			Sinashlarda sharchaning namuna sirtida qoldirgan izlari diametri, mm			Izlarining o'racha diametri, mm	Brinell bo'yicha qattiqligi, $\text{kg}/\text{mm}^2$
			Tooblangan sharcha diametri, $D, \text{mm}$	Namunaga qo'yilgan yuklama, $P, \text{kg}$	Namunani yuklama osuda tutish vaqti, s	$d_1$	$d_2$	$d_3$		

## Materiallarning qattiqligini Rokvell usulida sinash

Bu usuldan, odatda, qattiqligi HB450 dan ortiq bo'lgan, masalan, toblangan, sementitlangan, azotlangan po'lat detallarni yoki ulardan tayyorlangan namunalar qattiqligini aniqlashda foydalaniлади. Bunda namunani asbob stoliga silliqlangan sirti yuzasini yuqoriga qaratib qo'yilgach, unga uch radiusi 0,2 mm va burchagi 120° li olmos konus (u qadar qattiq bo'limgan materiallar qattiqligini aniqlash zarur bo'lgan holda diametri 1,5875 mm li toblangan po'lat sharcha) ma'lum yuklama ostida botiriladi. Sinashda olmos konusni yoki sharchani namunaga asosiy yuklama ( $P_1$ ) ostida botirishda uchlikning botish chuqurligi ( $h$ ) ga ko'ra qattiqligi aniqlanadi (10-rasm). Shuni aytish lozimki, sinaladigan materialning taxminiy qattiqligiga ko'ra uchlik turi va unga qo'yiladigan yuklama 6.8-jadvalga ko'ra tanlanadi.

Material qattiqligi indikatorning qaysi shkalasi bo'yicha aniqlanganligiga ko'ra uni tubandagicha ifodalanadi:



6.6 - rasm. Sinashda olmos konusni materialga botirishxemasi.

6.8-jadval

Rokvell bo'yicha qattiqlikni o'lichash oraliqi	Uchlik xili	Indikator shkalasi	Qo'yiladigan yuklama, N (kg)
25—100	Toblangan po'lat sharcha	B	1000 (100)
20—67 70 85	Olmos konus	C A	1500 (150) 600 (60)

$$HRA = 100 - e, HRC = 100 - e$$

Agar «B» shkala bo'yicha aniqlansa,  $HRB = 130 - e$ .

Bu yerda  $e$  — namunadan asosiy yuklama ( $P_1$ ) olinganda uchlikni dastlabki ( $P_0$ ) yuklama ostida 0,002 mm ga botgan chuqurligi bo'lib, uni tubandagicha aniqlanadi:

$$e = \frac{h - h_0}{0,002} \text{ mm}$$

Bu yerda  $h$  — uchlikning namunaga asosiy yuklama ( $P_1$ ) ostida botgan chuqurligi,


mm;  $h_0$  — uchlikning namunaga dastlabki yuklama ( $P_0$ ) qo'yilganda botgan chuqurligi, mm.

Agar e qiymatini yuqoridagi formulalarga qo'ysak, unda qattiqlik tubandagicha bo'ladi:

$$\text{HRA yoki } HRC = 100 - \frac{h - h_0}{0,002}; \text{ HRB} = 130 - \frac{h - h_0}{0,002}.$$

### Namunani sinashga tayyorlash

Namunaning qalinligi uchlikning namunadan asosiy yuklama ( $P_1$ ) olingandan keyin botgan chuqurligi( $e$ ) dan kamida 8 marta katta bo'lishi lozim. Yuzada esa kir, moy, zanglar bo'lmay, tekis bo'lishi kerak. 6.9-jadvalda materiallarning qattiqligini o'chashda indikatorning qaysi shkalasidan foy-dalanganligiga ko'ra namunaning eng ichik qalinlik o'chami keltirilgan.



6.7-rasm. TK—2 tipdag'i qattiqlikni o'chash asbobining umumiyo'kri'ni va kinematik sxemasi:

1 — shpindel; 2 — prujina; 3 — cheklagich; 4 — vint; 5 — apravka; 6 — namuna; 7 — stol; 9 — baraban; 10 — klavish; 11 — vint; 12 — uzatma; 13 — tumbler; 14 — shtok; 15 — dasta; 16 — kulachokliblok; 17 — doimiyuktosh; 18 — 19 — yuktoshlar; 20 — osma; 21 — richag; 22 — tros; 23 — indicator.

### 6.9-jadval

Indikatorshkalal arbelgisi	Rokvell bo'yicha qattiqligi	Namunaning eng kichik qalinligi, mm	Indikatorshkalal arbelgisi	Rokvell bo'yicha qattiqligi	Namunaning eng kichikligi, mm
A	70	0,7	B	80	1,0
A	80	0,5	B	90	0,8
A	90	0,4	B	100	0,7
B	25	2,0	C	20	1,5
B	30	1,9	C	30	1,3
B	40	1,7	C	40	1,2
B	50	1,5	C	50	1,0
B	60	1,3	C	60	0,8
B	70	1,2	C	67	0,7

## Foydalaniňadigan asbob, moslama va o'Ichov asboblari

Bu usulda materiallarning qattiqligini aniqlashda TK-2 asbobidan, moslama sifatida plita, priznalardan, shtangensirkul yoki chizg'ichdan foydalilanadi.

6.8-rasmدا qattiqlikni o'Ichashda keng foydalaniňadigan TK-2 asbobining ko'rinishi va kinematiksxemasi keltirilgan. Rasmdan ko'rindiki, uning korpusining yuqori qismida sinaladigan materialga uchlik orqali yuklamani qo'yuvchi richag 21, pastida esa stol 7 ni zaruriyatga ko'ra yuqoriga ko'taruvchi yoki pastga tushiruvchi mexanizmi bor.

### Sinash tartibi

1. Sinaladigan namuna 6 yoki detalning sirt yuzining tozalangan tomonini yuqoriga qaratib asbob stoli 7 ga quyiladi.

2. Namunaning taxminiy qattiqligiga ko'ra uchlik xili, qo'yiladigan yuklama qiymati 6.10-jadvaldan belgilanadi.

3. Tegishli uchlik va yuklama beruvchi toshlar o'z joylariga o'rnatiladi.

4. Dasta 8 ni soat mili barakati tomon aylantirib, namunani uchlik tagiga daslabki 10 kg li ( $P_0$ ) yuklama qo'yilguncha qisiladi. Bunda indikator 23 ning kichik mili 1 siferblatdagı qizil nuqta 2 ga keladi. Bunda katta mili 3 siferblatdagı «nol»ga  $\pm 5$  li bo'linma farq bilan vertikal vaziyatga kelishi kerak (6.8-rasm). Agar bu vaziyatga kelmasa, dasta 8 ni soat mili harakatiga teskari tomoniga aylantirib, namunaning boshqa joyini sinab ko'rildi. Masalan, S shkala bo'yicha sinashda indikatorning rantidan ushlab S shkala nolini katta milga keltiriladi.

5. Yurgizish tugmachasini bosib, elektr dvigateli harakatga keltiriladi, uning barakati uzatma 12, kulochokli blok 16 ga o'tadi. Bunda shtok 14, richag 21 ko'tarilib, uchlik asosiy yuklama ( $P_1$ ) ta'sirida materialga botishida katta mil soat mili harakatiga teskari tomoniga aylanadi.

Materiallarning qattiqligini Rokvell usulida sinashda olingan natijalar


6.10-jadval

Tartib №	Namuna belgisi	Taxminiy qattiqligi, kg/k/mm²	Qabul etilgan shkala	Namunaga qo'yilgan asosiy yuklama $P_1$ , N/kg	Qatlughik HRC			
					1	2	3	O'rtacha

6. Namunani yuklama ostida tutish vaqtı (odatda 10—60 s) tugagach, strelna 3 soat mili harakati tomon aylanib, siferblat shkalasida material qattiqligini ko'rsatadi. Keyin namunaning boshqajoylari qattiqligi shu tarzida kamida uch marta o'chanib, o'rtacha qattiqlik olinadi. Sinash natijalari asosida 11-jadval to'ldiriladi.

2- ilovada Brinell, Rokvell, Vikkers usullarida aniqlangan qattiqliklar nisbatlari keltirilgan.

6.8-rasm. Materiallarning zarbiy qovushoqligini sinash



Ma'lumki, ko'pgina konstruksion materiallar statik kuchlar ta'siriga yaxshi qarshilik ko'rsata ham, dinamik kuchlarga yaxshi qarshilik ko'rsata olmaydi. Buning boisi shundaki, ularga qo'yilgan yuklama tezligi ortishida, temperatura pasayishida, donlar o'lchamining kattalashishida, sirtda chiziqlar bo'lishida material mo'rt sinishga moyillashadi. Statik yuklamada sinashda esa materialni zarbiy yuklamada sinashda olinadigan materiallar olinmaydi. Shu sababli bu materiallardan tayyorlanadigan detallar (tirsakli vallar, shtamplar, porshen barmoqlari va boshqalar) ish jarayonida turli qiymatli va yo'nalishdagi statik hamda dinamik yuklamalar ta'sirida bo'lganligidan ularning dinamik kuchlarga bardosh berish qobiliyatini sinaladi.

#### U —simon ariqchali namunaning eskizi va o'lchamlari mm da keltirilgan

6.11 jadval


Eskizi	O'tish radiusi, Rmm	Uzunligi, lmm	Eni, Bmm	Bo'yli, amm	Ko'ndalang kesimi bo'yicha ish qismi yuzi, Smm <sup>2</sup>
	$1 \pm 0,07$	$55 \pm 0,6$	$10 \pm 0,1$	$10 \pm 0,1$	$8 \pm 0,1$

#### Foydalilanadigan namunalar asbob, moslama vaulchov asboblari

Sinaladigan materiallardan namuna zagotovkalar stanoklarda kesib olinib uлardan GOST 9454—78 (ST SEV 472—77, ST SEV 473—77) talablariga ko'ra namunalar tayyorlanadi. Ularni tayyorlashda strukturaviy o'zgarishlarga yo'l qo'ymaslik, sirt yuzida moy, zang kabi iflosliklar, tirlangan joylar bo'lmasligi kerak. Namunalar o'rta beliga o'yilgan ariqcha shakli va o'lchami sinash harorati va mayatnikning zarb berish energiyasi qiymatiga ko'ra belgilanmog'i lozim. Masalan, sinash harorati —  $40^{\circ}\text{C}$  bo'lib, mayatnik kopyorning zarb berish energiyasi (KC)  $50\text{J}$  bo'lsa, «V» simon, agar  $t=100^{\circ}\text{C}$ , KC =  $150\text{ J}$  bo'lsa, «T» simon va  $t=18-20^{\circ}\text{C}$ , KC =  $300\text{ J}$  gacha bo'lsa, «I» simon qilib ariqcha ochiladi. Shunga ko'ra ularning zarbiy qovushoqligini KC, KCT va KCI deb belgilanadi. Bu yerda KC — zarbiy qovushoqlik belgisi. «V», «T» va «I» — ochilgan ariqchalar shakli.

#### Mayatnik kopyorning tuzilishi va ishlashi

6.9- rasm, a da mayatnik kopyor va uning ishlash sxemasi keltirilgan. Rasmdan ko'rindiki, asosi 1 ga stanina 2 mahkamlangan bo'lib, uning gorizontal o'qiga mayatnik 3 o'matilgan. Mayatnik bu o'q atrofida ma'lum burchak bo'ylab tebrana oladi. Staninaga o'matilgan tayanchlar 6 ga sinaladigan namuna 7 simmetrik qilib, kertimli joyini ichkariga qaratib o'matiladi.



6.9-rasm. Mayatnikli kopyorning ko'rinishi (a) va ishlash sxemasi (b). 1 — asos; 2 — stanina; 3 — mayatnik; 4 — mayatnikning tagi; 5 — tasmlali mexanizmnning dastasi; b — namuna o'matiladigan tayanch; 7 — namuna; 8 — strelnka; 9 — shkala.


### Sinashni o'tkazish tartibi:

- Mayatnikni o'ng qo'lda biroz ko'tarib, namunani kopyor tayanchlariga simmetrik qilib andaza yordamida qo'yamiz (6.9- rasm, a).
- Mayatnikni ko'tarilish burchagi ( $\alpha$ ) gako'tarib, ilgakni libbuburchak qiyimatini 13-jadvalga yozamiz. Keyin esa strelka 8 ni shkala 9 dagi «nol» vaziyatiga o'tkazamiz.
- Ilgakni chiqaramiz. Bunda mayatnik tig'i bilan namunani zarblab, uni sindiradi. Mayatnikning tebranishini to'xtatish uchun tasmali mexanizm dastasini ohista tortamiz. Mayatnik to'xtagach, uning ko'tarilish burchagi ( $\beta$ ) ni mi'l 8 shkala 9 da ko'rsatadi, uni ham

- 9.12-jadvalga yozamiz. Olingan materiallar asosida materialning zarbiy qovushoqligi (KCl) ni aniqlash uchun namunani sindirishga sarflangan ish (K) ni aniqlab, so'ngra uni namuna ko'ndalang kesim yuzi ( $S_0$ ) ga bo'lamiz:

$$KSI = \frac{K}{S_0} \text{ yoki } KSI = \frac{G(H-h)}{S_0} J/m^2 (kg\cdot m/sm^2) \quad (1)$$

bu yerda  $G$  — mayatnikning massasi, N/kg;  $H$  — mayatnikning a burchakka ko'tarilgandagi balandligi, m;  $h$  — mayatnikning β burchakka ko'tarilgandagi balandligi, m;  $S_0$  — namuna ish qismining ko'ndalang kesim yuzi,  $sm^2$ .



6.10-rasm,

$b$  dagi sxemadan ko'rindaniki,  $H=l+aa'$ ;  $h=l-bb'$ ;  $aa'=l \sin(\alpha - 90^\circ)$ ;  $bb'=l \sin(90^\circ - \beta)$ .

Trigonometriyadan ma'lumki,  $\sin(\alpha - 90^\circ) = -\cos\alpha$ ;  $\sin(90^\circ - \beta) = \cos\beta$ .

Demak,  $aa'=l - \cos\alpha$ ;  $bb'=l \cos\beta$

Unda  $H=l - l - \cos\alpha$ ;  $h=l - l \cos\beta$

Bu qiymatlarni tenglama (1) dagi H o'miga qo'ysak, formula tubandagi ko'rinishga o'tadi:

$$KSI = \frac{G \cdot l(\cos\beta - \cos\alpha)}{S_0} J \quad (kg \cdot m/sm^2)$$

**Misol.** 20X markali po'latdan tayyorlangan namunaning zarbiy qovushoqligini aniqlash zarur deylik. Buning uchun kopyor jadvalidan uning massasi ( $G$ ) ni, mayatnik uzunligi ( $l$ ) ni yozib olaniz. Keyin namunani olib kopyorni tegishli joyiga qo'yib, mayatnikni ko'tarilish burchak ( $\alpha$ ) ga ko'tarib,

Ma'lumki, mayatnikning namunani sindirish uchun sarflagan ishini uni sindirgandan keyin ko'tarilgan burchagi ( $\beta$ ) ga ko'ra aniqlash birmuncha qulaydir.

ilgaklab qo'yamizda, uning ko'tarilish burchagi ( $\alpha$ ) ni ham yozib olamiz. Keyin, yuqorida qayd etilgandek, mayatnikni tutib turgan ilgakni ajratamiz. Bunda u namunani zarb bilan urib sindiradi. Mayatnik tebranishini to'xtatish uchun tormoz dastasini oxista tortib qo'yib, u to'xtagach mayatnikning namunani sindirgandan keyingi ko'tarilgan burchagi ( $\beta$ ) ni yozib olamiz. Olingen materiallar asosida materialning zarbiy qovushoqligini tubandagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$KSI = \frac{G \cdot l (\cos \beta - \cos \alpha)}{S_0}$$

Kopyor xarakteristikasidan uning  $G$ ,  $l$ ,  $\alpha$  qiymatlarini va namunadan  $S_0$ larni aniqlasak ular tubandagicha:

$$G=9,69 \text{ kg},$$

$$L=800 \text{ mm},$$

$$\alpha=160^\circ,$$

$$KSI = \frac{9,69 \cdot 0,8 (\cos 70^\circ - \cos 160^\circ)}{0,8} = \frac{9,69 \cdot 0,8 (0,3420 + 0,3420)}{0,8} =$$

$$6,6 \text{ kGm/sm}^2$$

$$S_0 = 80 \text{ mm}^2$$

$$\text{Sinash aniqligi}$$

$$B=70^\circ$$

### Materiallarning zarbiy qovushoqligini sinash natijalari


6.12-jadval

Tartib №	Material xili	Namuna eksizi	Namuna o'chamlari			Mayatnikning ko'tarilishburchaklari		Zarbiy qovushoqlik KSI, J/m <sup>2</sup> (kg/sm <sup>2</sup> )	Sintilma yuzaga xarakteristikasi
			Eni, B mm	Bo'y, A mm	Kerilgen joy ko'ndieng kesimyuzi, S	Namunani sindirgancha, $\alpha^\circ$	Namunani sindirgandan keyingi, $\beta^\circ$		

Olingen natijalarni 6.12- jadvalning tegishli ustuniga yoziladi. Amalda yuqoridagi formula asosida tuzilgan jadvaldan foydalанилади (3-ilova). Shuni ham aytish kerakki, agar mayatnikning zahira energiyasi namunani sindirishga yetmasa, u juda qovushoqligi sababli sinmaydi, unda kuchliroq kopyorda sinamoq kerak.

Metallarning siklik yuklamalarga chidamlilikini sinash(GOST 2860—65)

Ko'pgina detallar (vallar, shatunlar, prujinalar va boshqalar) ish jarayonida qiyimi va yo'nalishi o'zgaruvchan (siklik) yuklamalar ta'sirida bo'ladi. Shu sababli bu detallarmateriallarini statik va dinamik kuchlarda sinashlarda aniqlangan mustahkamlik xossalari bo'yicha ularning siklik yuklamalarga chidamliliklarini aniqlab bo'lmaydi. Shu boisdan ularning chidamliligi toliqishga chidamlilik sikllari soni( $N$ ) orqali aniqlanadi. Metallarning toliqish chegarasi debdetallarni ish jarayonida ularga ta'sir etuvchi eng kattasiklik yuklamalarda sinmasdan, necha ming marta bardosh berish qobiliyatiga aylidi.



6.11-rasm. Toliqish sinilma yuzasi.


Shuni qayd etish lozimki, siklik yuklamalarda ishlovchi detallar, odatda, statik sinashda aniqlangan cho'zilishga ko'rsatgan muvaqqat qarshiliqi kuchlanishi ( $\sigma_{sh}$ ) dan ancha kichik kuchlanishda toliqadi. Chidamlilik chegarasiga kelganda esa to'satdan sinadi.

Shu sababli ularga siklik yuklamalar qo'yilish sonigachidamliligi deyiladi. Shartli ravishda metallar uchun uning qiymati  $5 \cdot 10^6 + 20 \cdot 10^7$  oralig'ida olinadi. Detallarda uchrovchi bunday xarakterli sinilmalarining hosil bo'lish sabablarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularning ish jarayonida siklik yuklamalar ta'sirida ko'plab beriluvchi zaifroq yoki ancha zo'riqqa joylari plastik deformasiyaga uchrashi oqibatida mikrodarzlar hosil bo'ladi. Bu joylar siklik yuklamalar ta'sirida asta — sekin kattalashib, toliqish chegarasigakelgach sinadi. Chidamlilik chegarasi metallning xiliga, kimyoviy tarkibiga, tuzilishiga, sirt yuzasi sifatiga, siklik yuklamalar qiymatiga bog'liq. 6.12-rasmda toliqishoqibatida singan valning ko'ndalang kesim yuzi keltirilgan. Rasmdan ko'rindiki, val atrofi bo'yicha mikrodarz yerlari o'sib borishida yuzalar o'zaro ishqalanishi oqibatida donlar yemirilib, xiralashib ko'rinsa, o'zak qismi esa birdan singan, yirik yaltiroq donlardan iborat bo'ladi. Metall va qotishmalarning toliqishga chidamliliginini sinashda namunalarni cho'zib-siqishga, burash, egishga sinash turlaridan foydalaniлади.

Bularning ichida namunani aylantirib turib egishga sinash usuli ko'proq, tarqalgan. 6.12-rasm, a da sinash mashinaning ishlash sxemasi, 6.12-rasm, b da sinaladigan namuna eskizi va o'lchamlari 6.12-rasm, a da  $\sigma_{max}$  —  $IgN$ koordinata da toliqish grafiki keltirilgan.



$d$	$R=5d$
5	25
7,5	37,5
10	50



6.12-rasm. Toliqishga sinash mashinaning ishlash sxemasi, sinaladigan namuna eskizi va o'chamlari.

### Sinash tartibi:

1. Namuna 1 sinash mashinasi shpindellari 2 ning uyalariga o'matilib uni 2700—3000 ayl/min tezlikda aylantiriladi.
2. Namunaga simmetrik va bir-biriga teng ikkita ( $P$  va  $P$ ) kuchlar sharnir vositasida biriktirilgan pishanglar 3—4 orqali qo'yildi. Sinalayotgan namunaga ta'sir etayotgan  $P$  kuchning qiymatini o'zgartirish uchun richag 5 dagi yuk 6 o'ng yoki chap tomonga siljiltiladi.
3. Namunaga qo'yilgan dastlabki maksimal yuklama sekin-asta kamaytirilib, uni sinishigacha olib borilib, sikllar soni aniqlanadi.
4. Sinash natijalari asosida materialning toliqish grafigi tuziladi (6.12-rasm, v) va undan toliqish chegarasi aniqlanadi.

### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Metall va uning qotishmalarining xossalari nima uchun bir-birlaridan farqlanadi?
2. Metall va uning qotishmalarining mexanik xossalariга ta'rif bering.
3. Universal UMM-5 markali mashinaning tuzilishi va ishlashini aytib bering.
4. Metall va uning qotishmalarining mutanosiblik, elastiklik, oquvchanlik va cho'zilishga ko'rsatgan muvaqqat qarshiligi kuchlanishlari  $\sigma_{m}$ ,  $\sigma_{el}$ ,  $\sigma_0$  va  $\sigma_{ch}$  qanday aniqlanadi?
5. Metall va uning qotishmalarining qattiqligini Brinell va Rokvell usullarda qanday aniqlanadi?
6. Metall va uning qotishmalarining zarbiy qovushoqligi qanday aniqlanadi?
7. Metall va uning qotishmalarini mexanikaviy xossalariга ko'ra markalarini va ishlatalish joylarini qanday aniqlash mumkin?
8. Qanday sharoitda detallar siklik yuklamalar ta'sirida bo'ladi va toliqish chidamliligi qanday aniqlanadi?

## KONSTRUKSION MATERIALLARNING TEKNOLOGIK XOSSALARINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi.** Materiallarning texnologik xossalarini sinash va olingan natijjalarga ko'ra texnologik ishlovga yaroqlilik darajasini aniqlash.

**Ishning nazariy qismi:** Konstruksion materiallardan mashina detallari va konstruksiya elementlarini quyish, bolg'alash, payvandlash va boshqa usullarda tayyorlashga materialning qanchalik yaroqlilik darajasi uning texnologik xossalarini deyiladi. Bu xossalar uning kimyoviy tarkibiga, tozaligiga, tuzilishiga, haroratiga va boshqa ko'rsatkichlariga bog'liq. Masalan, sifatli quymalar olish uchun materiallarning yuqori suyuqlanuvchanligi, kam kirishuvi va tekis kimyoviy tarkibili bulishi zarur bo'lsa, bolg'alash yo'li bilan olinuvchi detallar materiali plastik bo'lmoq'i lozim. Shu sababli konstruktorlar na texnologlar materiallarining turli texnologik ishlovlariga qay darajada moyilligini bilishlari kerak.

### Foydalaniладigan namunalar, uskuna, moslama va o'lchov asboblar

Materiallarni texnologik xossalarini sinashda tegishli namunalar olinib, ularni belgilangan uskunalar (cho'zish mashinasasi, presslar, charx toshlar va boshqalar) sinaladi. Bunda moslamalar sifatida prizmalar, roliklardan, o'lchov asboblari sifatida shtangensirkul, burchak o'lchagich va chizg'ichlardan foydalaniлади.


Quyida materiallarning asosiy texnologik xossalaridan ba'zilarini sinash usullari bayon etiladi:

#### 1. Materiallarni hukilishga sinash (OCT 1683)

Bunday sinashda materialning bukila olish darajasi aniqlanadi. Buning uchun list yoki polosa materialdan metall kesuvchi stanok yordamida zagotovkalar kesib, olimib, keyin ulardan qalinligi  $a$  (mm), eni  $\alpha$  (mm), uzunligi  $L = Sa + 150$  mm bo'lgan namunalar tayyorlanadi (bunda  $a > 10$  mm) va ularni tubandagi tartibda sinaladi:

Namunani cho'zish mashinasidagi tayanch roliklariga simmetrik holda (7.1-rasm,  $a$  ko'rsatilgandek) o'matilish, uning o'rta joyiga ustidan tegishli opravka ( $d$ ) orqali yuklama ( $R$ ) qo'yib boriladi. Sinash, texnik shartga ko'ra, ma'lum burchak ( $\alpha$ ) ga, tomonlari parallel vaziyatga kelguncha yoki ikki yog'i jipslashguncha olib boriladi (7.1-rasm,  $b$ ,  $v$ ,  $g$ ). Agar bunday namunada darz, qavatlanish yoki sinish yuz bermasa material talabdag'i bukilishga bardosh bergen hisoblanadi.

## Payvandlangan materialni bukilishga sinash




**7.1-rasm.** Namunali bukilishga sinash sxemasi.  
 a — namunali o'ratilishi; b — ma'lum burchakka bukilishi; c — tomonlari parallel holiga kelguncha bukilishi; d — jipslanguncha bukilishi.


Buning uchun sinaladigan materialdan bir necha teng o'lchamli zagotovkalar kesib olinib, ularning birini ikkinchisiga uchma-uch qilib payvandlanadi. So'ngra ularidan yuqorida qayd etilgan o'lchamda namunalar tayyorlanadi. Keyin ularni ma'lum yuklama ostida bukiladi. Bunda zaruriy bukilish burchagiga bukilguncha chok sifatli bo'ladi.

### 2. Materialni cho'kuvchanlikka sinash

Ko'pgina detallar (bolt, klapan, parchin mix va boshqalar) diametri 30 mm dan kichik bo'lgan uglerodli po'lat zagotovkalarini sovuqlayin cho'ktirib ishllov berish natijasida olnnadi. Shu sababli ularning materiallarining sovuq holda cho'kuvchanlik darajasi aniqlanadi. Materiallarni cho'kuvchanlik darajasiga sinash uchun diametric( $d$ ) 15 mm gacha bo'lgan materiallardan bo'yili =  $2d$  bo'lgan namunalar tayyorlanib bolg'a ostida  $h_0$ , o'lchamga yetguncha zarblar cho'ktiriladi (agar bu sinash presslash bilan olib borilsa  $d \geq 15$  olinadi).



**7.2-rasm.** Namunani cho'kuvchanlikka sinash sxemasi. a — sinovgacha; b — sinovdan keyin.



7.3-rasm. List materiallarni bukiluvchanlikka sinash sxemasi.

a — sinov asbobning ko'rinishi; 1 — maxovik; 2 — oyna.

b — sinash sxemasi: 1 — puanson; 2 — namuna; 3 — matrisa; 4 — qisqich;

Agar bu sinashda ularda darzlar, yoriqlar, siniqlar bo'lmasa, material yaroqli hisoblanadi (7.3- rasm).

### 3. Materiallarni botiluvchanlikka sinash

Avtomobil qanotlari turli metall g'iloflar kabi detallar qalnligi 2 mm gacha bo'lgan po'lat listlardan sovuqlayin shtamplash yo'li bilan olinadi. Shu hoisdan bu materiallar hotiluvchanlik darajasiga sinaladi. Buning uchun listlardan kvadrat shaklli namunalar kesib olinib, ularni birma-bir matrisa ustiga qo'yib, chetlari qisqich bilan qisilgach, puanson bilan ma'lum yuklama ostida darz ketguncha bosib botiltiriladi


(7.3-rasm a, b). 7.1-jadvalda sinaladigan list materialning qalnligiga ko'ra namuna tomonlari va matrisa teshiklarining o'lchamikeltirilgan.

Namunaning botiltirilgan chuqurligiga ko'ra botiluvchanligi aniqlanadi va texnik shartga ko'ra materiallarning bu ishlovlargacha yaroqliligi haqida xulosa chiqariladi.


### 4. Materiallarning takror bukiluvchanligini sinash

Materiallarning takror bukiluvchanligini sinashda uning bukilib to'g'rilanishiga bardosh berish darajasiga ko'ra bukiluvchanligi aniqlanadi. Bu usuldan uzunligi

(L) 150 mm, diametri ( $d$ ) 0,8 dan 7 mm gacha bo'lgan sim va chiviqlar, shuningdek, qalnligi ( $h$ ) 5 mm gacha bo'lgan listlar (bunda namunalar eni  $B = 2h+10$  mm olinadi, keyin ularni birma-bir tisk jag'lari orasiga qisib, goh bir tomonga goh ikkinchi tomonga  $90^\circ$  ga (minutiga taxminan 60 marta tezlikda) to singuncha bukiladi (7.4-rasm). Bukilish soniga ko'ra takror bukiluvchanlik aniqlanadi.



7.4-rasm. List materiallarni takror bukiluvchanlikka sinash sxeması  
1-tiska jag'ları, 2-namuna.



7.5-rasm.

Turli po'latlardan ajraladigan uchqunlar turlari: 1 - Uchqunlar och sariq, tarmoqlar soni ko'proq; yulduzchalar hosil bo'ladi; 2 - Uchqunlar och sariq, tarmoqlar Cr2 va Cr3 po'latlarnikidan ingichkaroq va g'ujroq. Yulduzchalar hosil bo'ladi; 3 - Uchqunlar och sariq, tarmoqlar soni kamroq. Ozroq yulduzchalar hosil bo'ladi; 4-Uchqunlar och sariq, tarmoqlar va yulduzchalar soni 10 po'latnikidan ko'proq; 5-Uchqunlar och sariq, tarmoqlar va yulduzchalar soni 15 va 20 po'latlarnikidan ko'proq; 5- Uchqunlar och sariq, tarmoqlar soni juda ko'p, yirik yulduzchalar hosil bo'ladi, tolalarning uchlari o'tkir; 6-Uchqunlar sariq, uchqunlarning uchlarda strelkalar bor. Yulduzchalar hosil bo'lmaydi; 7-Uchqunlar to'q qizil, tarmoqlar soni kamroq. Yulduzchalar hosil bo'lmaydi.

Sinaladigan namuna qulinligi, mm	Namuna tomonlari uzunligi, mm	Matrixa teshigi diametri, mm
2 dan 4 gacha	70 dan 90 gacha	27
1,5 dan 2 gacha	70 dan 90 gacha	27
1,0 dan 1,5 gacha	10 dan 20 gacha	5

**5.Po'latlar xilini va markasini ularni charxlashda chiqayotgan uchqun turlariga ko'ra aniqlash**

Ba'zi hollarda, taxminiy bo'lsada, po'latlar xilini va markasini tezda aniqlash zarur bo'ladi. Bunday holda undan bir bo'lagini olib, charx toshda ishlov beriladi. Bunda ajralayotgan metall zarrachalarining havoda yonishida hosil bo'layotgan uchqun turiga ko'ra uning xilini aniqlasa bo'ladi. 20-rasmida turli po'latlarning qanday markalaridan chiqadigan uchqunlar turlari ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari, materiallarni suyuqlanuvchanligi, hajmiy (chiziqiy) kirishuvchanligi, kesib ishlanuvchanliklari kabi texnologik xossalari aniqlash usullari ham bor, ular haqida kursning tegishli bo'limlari da ma'lumotlar berilgan. Talabalar sinashda olgan natijalarni tubandagi 7.2-jadvalga qayd etadirler.

7.2-jadval

Tartib №	Namuna eskizi	Sinash sxemasi	Sinashda olinган ко'rsatkichlar	Xulosa

**O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Metall va uning qotishmalarining texnologik xossalari deganda qanday xossalari tushunasiz?
2. Nima uchun metall va uning qotishmalarining texnologik xossalari sinash zarur?
3. Metall va uning qotishmalarining qanaqa texnologik xossalari ni bilasiz?
4. Metall va uning qotishmalarining biror texnologik xossasini aniqlash usulini tushuntirib bering.


## 8 - LABORATORIYA ISHI

### TEMIR-UGLEROD QOTISHMALARINING HOLAT DIAGRAMMASINI TUZISH VA TUZILISHLARINI O'RGANISH

**Ishning maqsadi.** Qotishmalarining holat diagrammasini tuzish, uning suyuq eritma xolidan asta-sekin uy haroratigacha sovitishda tuzilishidagi o'zgarishlari bilan tanishilgach, fazalar xiliga va miqdoriga ko'ra markasi va ishlatalish joylarini belgilash.

**Ishning nazarly qismi:** Temir bilan uglerod qotishmalari (po'lat va cho'yanlar) asosiy konstruksion material bo'lib, ularda uglerod 6,67% ho'ladi. Lekin ularning amalda foydalaniladigan qotishmalarida uglerodning miqdori 3,5-5% dan ortmaydi. Temir uglerod qotishmasining kimyoiy tarkihiga, uning qolipda sovish tezligiga ko'ra uglerod temir bilan Fe<sub>3</sub>C birikma yoki grafit tarzida bo'ladi. Shunga ko'ra bu qotishmalarining holat diagrammasini Fe-Fe<sub>3</sub>C li va Fe-C diagrammalariga ajratiladi. Fe-Fe<sub>3</sub>C li qotishmalarining holat diagrammasi xuddi Pb-Sb qotishmalarining holat diagrammasidek tuziladi. Termik tahlil ma'lumotlari asosida koordinatalar sistemasining ordinata o'qi bo'ylab temirning va uning turli miqdordagi uglerodli qotishmalarining kritik haroratlari, abssissa o'qi bo'ylab qotishmalardagi uglerod miqdori belgilanadi. Keyin ularning xarakterli konsentrasiyalaridan vertikal chiziqlar chiqazib, bu chiziqlarga ularning kristallanishining boshlanish va tugash kritik haroratlari nuqtalarini belgilab, bu nuqtalarni o'zaro tutashtirsak, muvozanat holatlari Fe-Fe<sub>3</sub>C qotishmasining holat diagrammasi tuziladi (8.1-rasm.) Tuhanda Fe-Fe<sub>3</sub>C holatdagi qotishmalarining tuzilmalari va ularning xossalari keltirilgan.

**Ferrit (shartli belgisi - F).** Uglerodning alfa temirdagi *qattiq* eritmasi [Fe<sub>3</sub>(S)] bo'lib, unda uglerodning miqdori uy haroratida taxminan 0,006%, 727°C da 0,025% bo'ladi. Bunday tuzilishdagi qotishma texnik temir deyiladi. Ferrit plastik tuzilishli bo'lib, uning cho'zilishga ko'rsatadigan muvaqqat mustahkamligi  $\sigma_b = 250 - 300 = \text{MPa}$ , nisbiy uzayishi  $\delta = 40 - 50\%$ , qattiqligi HB = 800 - 1000 MPa zarbiy qovushqoqligi KC=20-30 kg.m/sm<sup>2</sup> oralig'ida bo'ladi.



8.1-rasm. Qotishmalarning holat diagrammasi.

Austenit (shartli belgisi - A). Uglerodning gamma temirdagi qattiq eritmasi ( $Fe_3(S)$ ) bo'lib, bu eritmada uglerodning miqdori 2,14% gacha bo'ladi. Lekin qotishmaning harorati pasaygan sari uglerodning austenitda erish miqdori kamaya boradi. Masalan,  $1147^{\circ}C$  da 2,14% bo'lsa,  $727^{\circ}C$  da 0,8% gina eriydi. Austenitning cho'zilishga ko'rsatadigan muvaqqat mustahkamligi  $\sigma = 370-450 MPa$ , nisbiy uzyayishi  $\delta = 40-50\%$ , qattiqligi  $HB=1600-2000 MPa$ .

Sementit (shartli belgisi-S). Temirning uglerod bilan kimyoiyiv birikmasi ( $Fe_3C$ ) bo'lib, bu birikmada uglerodning miqdori 6,67% bo'ladi. Sementit juda qattiq va mo'rt, qattiqligi  $HB= 8000 MPa$ . Plastikligi judayam kichik, amalda nolga yaqin.

Perlit (shartli belgisi - P). Ferrit va sementit fazalarining mexanik aralashmasi, uning tarkibida 0,8% uglerod bo'ladi. Perlit austenitni asta-sekin sovitishda uning parchalanishida hosil bo'ladi, perlitni cho'zilishga ko'rsatadigan o'rtacha muvaqqat mustahkamligi  $\sigma_b=450-630 MPa$ , sementit shakliga ko'ra perliting plastinkali va donador xillarga ajratiladi. Donador perlit plastinksiga qaraganda plastikrok, ( $HB=1600-2200 MPa$ ), nisbiy uzyayishi - 8 - 10%.

Ledeburit (shartli belgisi-L). Austenit va sementit fazalarining mexanik aralashmasi, tarkibida 4,3% uglerod bo'ladi. Ledeburitning o'rtacha qattiqligi  $HB - 1800-2200 MPa$ .

Grafit (shartli belgisi-G). Metall massasida turli shaklida bo'ladigan uglerod bo'lib, qattiqligi  $HB - 30-50 MPA$ .

Bundan tashqari, temir qotishmalarida o'z bo'lsada sulfidlar, fasfidlar, oksidlar, nitritlar ham uchraydi.  $Fe-Fe_3C$  holat diagrammasining qaysi sohasida qanday tuzilmalar barqaror bo'lishi diagrammadan ko'rindi. Holat diagrammasini

kuzatsak, uning chap tomonidagi ordinata chizig'idagi  $A$  nuqta temirning suyuqlanish haroratini,  $Nva$  Gnuqtalar temirning allotropik o'zgarish kritik haroratlarini va o'ng tomonidagi vertikal chiziqdagi  $D$ nuqta  $Fe_3C$  ning suyuqlanish haroratini bildiradi. Agar holat diagrammasining absissa ustidagi 2,14% uglerod borligini ko'rsatuvchi nuqtadan vertikal 1-1 chiziq chiqarsak, bu chiziq uni ikki qismiga ajratadi. Bunda uning chap qismi po'latlarga va o'ng qismi cho yanlarg'a taalluqli bo'ladi. Ma'lumki, to'la yumshatilgan po'latlarning tarkibidagi uglerod miqdoriga ko'ra, ularni evtektoid ( $C=0,8\%$ ), evtektoidgacha ( $C<0,8\%$ ) va evtektoiddan keyingi ( $C=0,8$  dan  $2,14\%$ ) po'latlarga ajratiladi. Xuddi shuningdek, cho yanlarni ham ularning tarkibidagi uglerod miqdoriga ko'ra evtektika ( $C=4,3\%$ ), evtektikagacha ( $C<2,12$ dan  $4,3\%$ ) va evtektikadan keyingi ( $C>4,3\%$ ) cho yanlarga ajratiladi. Holat diagrammasidan ko'rindiki, qotishma  $ABCD$ chizig'idan (likvidus) yuqori haroratda suyuq eritma holatda,  $AHJECF$  chizig'i (solidus) dan past haroratda qat�iq eritma holatida va bu chiziqlar oralig'ida suyuq hamda qat�iq eritma holatida bo'ladi.

$AHN$ sohada esa ferrit ( $Fe_3(C)$ ) tuzilishli bo'lib, unda uglerod ko'pi bilan  $0,1\%$  bo'ladi. Hj N sohasida esa ferrit bilan austenitdan iborat bo'lib, uglerod ko'pi bilan  $0,16\%$  bo'ladi.

$AHB$  sohada esa u suyuq eritma bilan ferritdan iborat bo'ladi. Po'latlarni suyuq eritma holatidan uy haroratigacha asta-sekin sovitib borishda faza o'zgarishlari borishini evtektoid po'latda kuzataylik. Agar  $A$  tarkibli suyuq eritmani asta sovitib borsak, harorati  $AS$  chiziqdagi ( $a$ , nuqtaga) kelganda undan austenit kristallari ajrala boshlaydi. Qotishmani yanada sovitib borishda esa ajralayotgan austenit kristallari miqdori orta boradi. Qachonkim, harorat je chiziqdagi  $a$ , nuqtaga kelganda birlamchi kristallanish tugab, qotishma batamom austenita o'tadi. Bu qotishmani to'ngutlari haroratgacha sovitishda diffuzion jarayonlar oqibatida austenitdan uglerod ajralib sementitning kristallanish markazlari hosil bo'la boshlagani bilan tuzilish o'zgarmaydi. Qachonkim, S nuqtali haroratga kelganda austenit ferrit bilan ikkilamchi sementit aralashmasidan iborat bo'lgan perlita o'tadi. Bu qotishmani uy haroratigacha sovitilganda ham perliting tuzilishi o'zgarmay saqlanadi. Agar evtektoidgacha ho'lgan po'latlarni quyuq eritma holatidan uy haroratigacha sovitib borilsa, harorati  $GS$  chiziqli kelguncha tuzilishdagi o'zgarishlar evtektoid po'lat singari boradi. «Pekin harorati  $GS$  chiziqli haroratga kelganda esa austenitdan ferrit kristallari ajrala boshlab austenit kristallari uglerodga to'yina boradi. Qotishmaning harorati  $PS$  chiziqli haroratga kelganda austenit tarkibidagi uglerod miqdori evtektoid tarkibiga, ya'ni  $0,8\%$  kelgani sababli u perlita o'tadi. Demak, po'lat  $PS$  chiziqli haroratdan past temperaturagacha kelganda ferrit bilan perlitan iborat bo'ladi.

Biz yuqorida po'latlarni suyuq eritma holatidan uy haroratigacha sovitib borishda tuzilishidagi o'zgarishlar bilan tanishdik. Endi cho yanlarni quyuq eritma holatidan uy haroratigacha sovitib borishda tuzilishidagi o'zgarishlari bilan tanishaylik.

Agar evtektik cho'yanni suyuq eritma holatidan  $C$  nuqtali haroratgacha sovitib borilsa, bu haroratda quyuq eritma austenit bilan birlamchi semintit fazalarning mexanik aralashmasi bo'lmish lediburit deb ataluvchi tuzilishga o'tadi.

Agar bu qotishmani Sk chiziqli haroratgacha asta sovitib borilsa ledeburit tuzilishli austenitpi Skchiziqli haroratdan past temperaturada barqarormasligi sababli u perlita aylanadi. Demak, evtektil cho yan Sk chiziqli haroratdan past haroratda birlamchi sementit bilan perlitedan iborat bo' ladi, bu tuzilmaga ham ledeburit deyiladi.


Evtektoigacha bo'lgan cho yanlarni quyuq eritma holatidan asta-sekin sovitib borishda harorati BC chiziqli haroratga kelganda undan austenit kristallari ajrala boshlaydi. Harorat pasaygan sari ajralayotgan austenit kristallar miqdori orta boradi. Qachonkim, EC chiziqli haroratga kelganda suyuq faz aустенитнинг sementitli mexanik aralashmasi bo'lmish ledeburitga o'tadi. Haroratning yanada pasayishida esa austenitda erigan uglerod miqdorining kamayishi sababli undan birlamchi sementit ajrala boshlaydi. Bu jarayon Skharoratli chiziqqacha davom etadi. qachonkim, harorat Sk chiziqa kelganda austenit tuzilish perlita aylanadi. Shunday qilib, bu haroratdan past haroratda qotishma perlit, ledeburit va ikkilamchi sementit fazalardan iborat bo' ladi. Evtektilidan keyingi cho yanlarni suyuq eritma holatidan asta sovitib borilganda harorati CD chiziqli haroratga kelganda, undan birlamchi sementit kristallari ajrala boshlaydi va bu jarayon CF chiziqli haroratgacha davom etadi. Qotishmaning harorati CF chiziqli haroratga kelganda suyuqueritma tarkibi evtektilka tarkibga, ya'ni C = 4,3% ga kelishi sababli u ledeburitga aylanadi. Bu qotishmani uy haroratigacha sovitib borishda ham tuzilish o'zgarishlari yuz bermaydi. Ma'lumki, cho yanlarda uglerod 2,14-6,67% gacha bo' ladi. Ularning sovish tezligiga va kimiyoviy tarkibiga ko'ra tuzilmada uglerodning hammasi yoki ancha ko'p qismi temir bilan kimiyoviy birikkan holda, ya'ni temir karbidi ( $Fe_3C$ ) yoki grafit tarzida bo' ladi, ularni oq, kul rang, bolg'alanuvchan va mustahkamligi yuqori cho yanlarga ajratiladi. Oqcho yanlar tez sovitishda olinib, unda uglerodning ko'p qismi  $Fe_3C$  tarzida bo' ladi. Bu cho yanlardan, asosan, po'latlar olinadi. Shu sababli bu cho yanlarni qayta ishlanadigan cho yanlar deb yuritiladi. Ularning sindirilgan yuzalari oqish tusda bo'lganligidan oq cho yanlar hamdeyiladi. Agar cho yanlar tarkibida C, Si lar ko'proq, Mn kamroq bo'lib, qoliplarda ular sekin sovitilsa, uglerod  $Fe_3C$  birikma tarzida emas, balki uning ko'p qismi grafik plastinkalari tarzida ajraladi. Bu cho yanlar suyuqlanish haroratinining pastligi, oquvchanligi yuqoriligi, ortganda hajmining kam kirishishi va yaxshi kesib ishlanishi sababli xilma-xil quymalar olinadi. Shunga ko'ra ularni quymakorlik cho yanlari deyiladi. Ularning sindirilgan yuzalari kulrang tusda bo'lganligidan kulrang cho yanlar deb ham yuritiladi. Lekin shuni ham qayd etish zarurki, oq cho yan quymalardan olingan murakkab shaklli, oq ir sharoitda ishlaydigan ko'pgina detallar (prokat juvalari, porshenlar)ning xossalalarini yaxshilash ila kesib ishlanadigan etish maqsadida ularni termik ishlab, asosi ferritli, perliti va aralash strukturali bolg'alanuvchan cho yanlar olinadi. Bu ishlovda cho yandagi  $Fe_3C$  parchalanib uglerod bodroqqa o'xshash grafitga o'tadi. Bu cho yanlarga bolg'alanuvchan cho yanlar deyiladi. Ko'p xollarda quyma cho yanning puxtaligini va plastikligini ko'tarish uchun ularni qolipga quyishda unga ozgma modifikatorlar deb ataluvchi metallar yoki ularning qotishmalari, masalan, magniy yoki uning 20% Mg+80% Ni li qotishmasi kiritiladi. Modifikatorlarning quyuq metallda erimaydigan kukunlari kristallanish

davrida qo'shimcha sun'iy kristallanish markazlari xosil qilsa, eriydiganlari o'sayotgan uglerod kristallarining sirtini yupqa parda bilan o'rab ularning o'sishiga qarshilik ko'rsatib, sharsimon grafitga o'tishiغا olib keladi. Bunday graftiting minimal yuzali bo'lishi metall asosiga kam putur yetkazib, mexanik xossalarni ko'taradi.

### **Foydalananadigan material, uskuna, moslama va o'lchov asboblari**


Odatda Fe-Fe<sub>3</sub>C qotishmalarining tuzilishini o'rganish uchun qotishmadan taxminan 10X10 ml namuna kesib olinib, uning bir tomoni egovlanadi yoki charx toshda tekislanadi. Keyin bu yuzani donlari maydalanih boradigan jilvlar qovoziylar bilan silliqlanib, so'ngra movut qoplangan, xrom yoki temir oksidlarning suvli eritmasi bilan xo'llangan yoki G.O.I. pasta surkab aylanuvchi diskda ishlab jilolanadi yoki elektr jilolanadi. Keyin ularning mikrostrukturasini o'rganish uchun 3-8% li kislota eritmalarini ta'sir ettilaradi. Masalan, qora metallar qotishmalarining tuzilishini o'rganishda, ko'pincha, yuza nitrat kislota (HNO<sub>3</sub>)ning spirdagi 4-5% li eritmasida bir necha sekund ushlanib, keyin suv birdan yuvilib, spirda namlangan paxta bilan artib quritiladi. Bunday tayyorlangan namuna shlif deyiladi.

Shlifni MIM7 yoki boshqa metallografik mikroskopda 200-300 marta kattalashtirib tuzilishi kuzatiladi. Metallarning tuzilishini yanada chuqurroq kuzatish zarur bo'lgan hollarda elektron mikroskoplarda 7000-25000 marta kattalashtirib kuzatiladi. Shuni qayd etish zarurki, namuna yuziga kislota eritmasi ta'sir ettiliganda uning fazalarining turlicha yemirilishi natijasida yuzida g'adir-budurlik hosil bo'ladi. Bunda shlif yuzasiga yo'naltirilgan nurni ob'yektivga to'g'ri qaytargan donalari oqish, chetga qaytargan donalari qoramti bo'lib ko'riniadi (26-rasm, a) da metallarning mikrotuzilishini 60-1350 martagacha kattalashtirib o'rganishda foydalananadigan MIM7 metallografik mikroskopining umumiy ko'rinishi va 26-rasm, b da nuring yo'naliish sxemasi keltirilgan. Mikroskop yordamida metall tuzilishini o'rganishda zarur obyektiv va okulyar olinib, mikroskop tok manbaiga ulangach, uning stolidagi kerakli o'lchamli teshikli diskka shlif qo'yiladi va okulyar orqali tuzilma avvaliga vint 7 bilan xomaki, keyin esa vint 6 ni burab uzil-kesil rostlanadi. Shlifning turli uchastkalarini kuzatish uchun vintlar 10 dan foydalaniлади.



8.2-rasm. Metallografik mikroskopning ko'rinishi (a) va unda numring yo'nalish sxemasi (b):


1 - lampochka; 2 - filtr; 3 - okulyar; 4- nur yo'naltirgich; 5 - stol; 6 - mikrovint; 7- xomaki rostlash vinti; 8 - kasetta; 9 - transformator.



8.3-rasm. Texnikaviy temir va uglerodi turli tarkibli po'latlarning mikrostrukturalari:

*a* - tarkibida uglerodi 0,005% bo'lgan temir; *b* - uglerodi 0,2% li po'lat; *v* - uglerodi 0,6% li po'lat; *g*- uglerodi 0,75% li po'lat; *d* - uglerodi 0,83 li po'lat; *e* – uglerodi 1,2% li po'lat.

Bunda fazalarigina emas, ularning shakli va o'lchamlari, g'ovakliklar, darzlar va boshqalar ham kuzatiladi. 8.3-rasmda texnikaviy temirdan tortib turli tarkibili po'latlarni, 8.4-rasmda qayta ishlanadigan (oq) cho'yanlarni, 8.4-rasmda esa quyma (kulrang), 8.5-rasmda bolga`lanuvchan va mustahkamligi yuqori (modifikad siyalangan) cho'yanlarning tuzilishlari keltirilgan. Ularni mikro tuzilishlariga ko'ra markalari va ishlatish joylarini aniqlash mumkin.



8.4-rasm. Qayta ishlanadigan cho' yanlarning mikrostrukturasи.  
a - ledceburit; b - perlit+ledceburit; v - dementit+ledceburit.



8.5-rasm. Quyma cho' yanlarning mikrostrukturasи.

a - asosi ferlitli quyma cho' yan; b - asosi ferrit+ferlitli quyma cho' yan; v - asosi perlitli quyma cho' yan.

Bu ishda kuzatilayotgan qotishmalarning mikro tuzilishlariga ko'ra uglerod miqdori aniqlanib, unga ko'ra qotishma markasi va ishlatish joylarini tegishli ГОСТ jadvallaridan aniqlash bayon etilgan. Aytaylik, biz kuzatayotgan po'latda 25% perlit 75% ferrit fazalari bo'lsin.

Ma'lumki, uy haroratidagi ferrit fazada uglerod 0,006% bo'ladi, juda ozligi uchun uni hisobga olmasdan perlit fazadagi uglerod miqdorini aniqlaylik. Ma'lumki, perlitda uglerod 0,8%. Bizning misolda esa perlit 25%. 25% perlitli po'latda uglerodning miqdorini aniqlash uchun tubandagi nisbatdan foydalanamiz:

$$P, 100\%-0,8\% C$$

$$P, 25\% - x\% C \text{ bo'ladi};$$

$$\text{Unda } x\%, C = \frac{25-0,8}{100} = 0,20.$$

Ilovada keltirilgan 8.1-jadvaldan uglerod miqdoriga ko'ra po'latning markasi va ishlatish joylarini aniqlaymiz.



8.6-rasm. Bolg'alanuvchan va mustahkamligi govorli cho' yanlarning mikrostrukturalari:  
a-asosi ferritli bog'lanuvchan cho' yan; b-asosi ferritli mustahkamligi yuqoricho'yan; v - kislota eritma ta'siriga berilmagan mustahkamligi yuqori cho' yan.

Bizning holda C<sub>T</sub> O markali po'lat olingan bo'lib, undan taglik plitalar,

to'silma panjaralari kabi mas'uliyatsizroq detallar tayyorlanadi.

Yana bir misol. Aytyaylik, kuzatilayotgan mikrotuzilishda 90% perlit va 10% ikkilamchi sementit bo'lsin. Bu po'lat tarkibidagi uglerodning miqdorini aniqlash uchun yana yuqorida ko'rildiganidek nisbatlardan foydalanamiz:

$$S, 100\%-6,67\% C$$

$$S, 10\%-x\% C \text{ bo'ladi.}$$

$$\text{Unda } x\% S = \frac{10 \cdot 6,67}{100} = 0,66.$$

Endi 90% perlit fazali po'latdagi uglerodning % miqdorini birinchi misolda ko'rildigandek aniqlaymiz:

$$P, 100\%-0,8\% C$$

$$P, 90\%-x\% C.$$

$$x\% C = \frac{90-0,8}{100} = 0,72.$$

Keyin po'latdagi uglerodning umumiy miqdorini aniqlaymiz:

$$x\% C = 0,66 + 0,72 = 1,38.$$

Ilovadagi 8.1-jadvaldan po'lat markasini va ishlatalish joyini aniqlaymiz.

Kulrang, bolg alanuvchan va yuqori mustahkam cho yanlarning markalarini ham po'latlar singari tuzilishiga va tarkibidagi uglerod miqdoriga ko'ra xili, markalari, ishlatalish joylarini tegishli ГOCTlardan aniqlash mumkin. Buning uchun ulardagи umumiy uglerodning miqdori aniqlanadi. Masalan, mikro tuzilish perlit va sharsimon grafitdan iborat deylik, unda uglerodning umumiy miqdori tubandagicha aniqlanadi:

$$C_u = \frac{G \cdot \gamma_1}{\gamma_2} + \frac{P \cdot 0,8}{100} \%$$

Bu yerda, G - grafiting shlifda egallagan yuzi, %;

$\gamma_1$  - grafiting zichligi  $\sim 2,3 \text{ g/sm}^3$ ;

P - perlitning shlifda egallagan yuzi, %;

$\gamma_2$  - cho'yanning zichligi,  $7,8 \text{ g/sm}^3$ .

### Ishni bajarish tartibi

1. Kuzatiladigan metalldan ГOCT talablariga ko'ra namunalar olib, ularidan shliflar tayyorlandi.
2. Metallografik mikroskop ishga rostlanadi.
3. Shlifni avvaliga xomaki, reaktiv ta'sir ettirilmay, keyin reaktivda sirt yuzasini ishlab tuzilishini uzil-kesil kuzatiladi.
4. Tuzilmadagi fazalar xili va miqdori taxminiy aniqlanadi.
5. Qotishmadagi uglerod miqdori aniqlanadi.
6. Uglerod miqdoriga ko'ra qotishma xili, markasining asosiy mexanik xossalari va ishlatalish joylarini tegishli ГOCTlardan aniqlanadi.
7. Kuzatish natijalari asosida 8.1-jadval to'ldiriladi.

### 8.1-jadval

Shart beqisi	Kuzatilayotgan Tuzi Ima		Fazalarorili va % miqdori	Tazmini yugle rdi miqdori, %	Qotishma xilliva markasi	Mechanik xossalari				Ishatilishi joylan
	xomaki	uzil-kesil				$\sigma_s$	$\delta$	HB	KS	


### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Po`lat deb qanday qotishmaga aytamiz, uning qanday xillarini bilasiz va ba'zi markalarini yozib ko`rsating.
2. Cho`yan deb qanday qotishmaga aytamiz, uning qanday xillarini bilasiz va ba'zi markalarini yozib ko`rsating.
3. Po`lat yoki cho`yanlarning tuzilishiga ko`ra ularning xili, markalarini qanday aniqlash mumkin?
4. Uglerodli po`latlarda uchraydigan asosiy fazalar va ularning xarakteristikasini aytib bering?
5. Yumshatilgan uglerodli po`latlar qanday tuzilishga ega bo`ladi.

## 9 - LABORATORIYA ISHI



### PO'LAT BUYUMLARNI QATTIQ KARBYURIZATORDA SEMENTITLASH

Ishning maqsadi. Kam uglerodli po'lat zagotovkalarning sirt yuzalarini qattiq karbyurizatorda zarur qalinlikgacha uglerodga to'yintirib (sementitlab), so'ngra toblab bo'shatish, texnologik jarayonini mustaqil ravishda bajarish va erishilgan natijalarni kuzatish.



9.1-rasm. Po'lat yashik.

**Ishning nazariy qismi:** Malumki, ko'pgina mashina detallari va asboblar (tishli g'ildiraklar, porshen barmoqlari, podshipnik, roliklar, shtamplar, kalibrilar) kam uglerodli va kam legirlangan po'latlardan tayyorlanib, ularning ish muddatini uzaytirish maqsadida kimyoiy termik ishlovlarga beriladi. Bunda zagotovkalarning sirt yuza qatlami uglerodga to'yintirilsa sementitlash, azotga to'yintirilsa — azotlash, azot va uglerodga to'yintirilsa — nitrosementitlash deyiladi. Bu ishlovlarning ichida sementlash kuproq tarqalgan bo'lib, uni uglerodga hoy bo'lgan qattiq, suyuq va gaz muhitlarda olib boriladi. Ayni laboratoriya ishida zagotovkalarni qattiq muhitda sementitlab, toblab bo'shatilib, natijalar kuzatiladi. Buning uchun zagotovkalarni guvoh namuna bilan 38- rasmida ko'rsatilgandek po'lat yashikka avvaliga ma'lum qatlam karhyurizator deb ataluvchi 75—80% i pista ko'mir va qolGANI bariy yoki natriy karbonatlar aralashmasi kiritilib, uning ustiga zagotovkalar ma'lum tartibda joyланади va bu ketma-ketlik yashik to'lguncha takrorланади, keyin esa yashik qopqoqlанади, tirkishlari o'tga chidamli gil bilan suvaladi. So'ngra yashik pechga kiritilib, sementitlash qalinligiga ko'ra 900—950°C haroratda bir necha saat saqlanadi. Bu sharoitda yashikdag'i pista ko'mir havo kislorodi bilan reaksiyaga kirib, uglerod (II) oksid gazi (CO) hosil qiladi va uning parchalanishida ajralayotgan atomlar uglerod zagotovka sirtiga o'tib, temirda eriydi.



б)а)

9.2-rasm. Sementitlangan buyum mikrostrukturasi (a); sementitlash chuqurligi temperaturasiga va vaqtigaqay darajada bog'liqligini ko'rsatuvchi grafik keltirilgan (b).

Shu bilan birga karbonat tuzlari ( $BaCO_3$  yoki  $NaCO_3$ ) ham parchalanadi. Bunda ajralayotgankarbonat angidrid gazi pistako'mir (C) bilan reaksiyaga kirib, yashikda uglerod (II) oksidgazi miqdorini ko'paytiradi. Yuqorida qayd etilgandek, bu gaz parchalanib, yashikdag'i atomlar uglerod miqdori ortadi. Bu esa navbatida sementitlash jarayonining tezlashishiga ko'maklashadi. 9.2 - rasmda sementitlangan buyum mikro tuzilishi sementitlash qatlami qalinligi temperaturaga va vaqtiga qay darajada bog'liqligini ko'rsatuvchi grafik keltirilgan.

**Foydalaniладиган ускуна, мослама, заготовка, карбюризатор ва о'лчов асбоблари**

Laboratoriya ishini bajarishda zarur haroratni beradigan elektr pech, metall yashik, sementitlanuvchi kam uglerodli konstruksion po'lat namunalari, kerakli miqdorda qattiq karburiyator (70 – 80 % pista ko'mir va 30 – 20 % baryk karbonat), gil, MIM-7 mikroskopi, shtangensirkul yoki chizg'ichlardan foydalaniлади.

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Namunalarning sirt yuzalari zang, kuyindi kabi begona jinslardan tozalanadi.
2. Zarur tarkibli va ma'lum miqdorda qattiq karburiyatorlar tayyorlanadi.

3. Metall yashikka 39-rasmda ko'rsatilgan tartibda karbyurizatorlar, zagotovkalar va guvoh namuna joylanib, yashik qopqoqlangich, tirqishlarini o'tgachidamli gil bilan suvaladi.

4. Metall yashikni pechga kiritib belgilangan haroratgacha qizdiriladi, ma'lum soat shu haroratda saqlab, keyin asta sovitilib, namunalar ajratib olinadi.

5. Sementitlangan buyumni zarus haroratgacha qizdirib, shu haroratda ma'lum vaqt saqlanadi, zarus tezlikda sovitilib, toblangach, uni zarus haroratda qizdirib, ma'lum vaqt shu temperaturada saqlangach, sovitib bo'shatiladi.

6. Ishlov natijalari namunaning sirt yuza qattiqligini Rokvell usulida o'lchash yo'li bilan kuzatiladi.

7. Sementitlangan qatlam qalinligi chizg'ich yoki shtangensirkul bilan o'lchanadi.

8. Agar sementitlangan buyum tuzilishini kuzatish zarus bo'lsa, undan shrif tayyorlab, MIM-7 yoki MIM-6 mikroskopni ostida kuzatiladi.

9. Ishlovdan erishilgan natijalar asosida 9.1-jadval to'ldiriladi.

### 9.1-jadval

Zagotovka ko'rsatkichlari				Karbyurizator tartibini	Sementitlash turkubi			Toblash rejimi			Bo'shatish rejimi			Olingannatija tur	
Tartib №	Belgisi	Marksasi	Qatidagi HB		Qizdirish harorati, °C	Turb turish vaqt, soat	Sovitish tezigi, gr/s	Qizdirish harorati, °C	Turb turish vaqt, min	Sovitish tezigi yoki sharoiti	Qizdirish harorati, °C	Turb turish vaqt, min	Sovitish tezigi yoki sharoiti	Toblash qalinligi, mm	Qatlam qatidagi, HRC

### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Detal sirt yuzalari qanday maqsadlar uchun kimyoviy-termik ishlanadi?
2. Metallarni kimyoviy-termik ishlash turi va ularning bir-biridan farqi nimada?
3. Zagotovkalarни qattiq karhyurizatorlarda sementitlash qay tartibda olib boriladi?
4. Sementitlangan zagotovkalar nima maqsadlarda toblanib keyin bo'shatiladi?
5. Detalning toblab bo'shatilgan qatlam qalinligi va tuzilishi qanday aniqlanadi.

## 10 - LABORATORIYA ISHI


### QUYMLARNI QOLIPLARDA OLİSH

**Ishning maqsadi.** Metall va uning qotishmalaridan oddiy, shaklli quymalarni gilli qum materiallardan tayyorlangai qoliplarda olish va uning sifatini kuzatish.

**Ishning nazariy qismi:** Aytaylik, metall shesternyaning bir necha quyma zagotovkasini olish zarur deylik. Bu quymani olish texnologiyasini hal etishiga o'tishdan avval chizmasidan uning materiali, shakli, o'lchamlari, geometrik aniqligi, sirt yuza tekisligi va seriyasi o'rganiladi. Agar shu nuqtai nazardan uning chizmasi

(10.1-rasm,a) kuzatilsa, ko'rindiki u, oddiy shaklli po'lat detal bo'lib, o'lchamlari kichik, geometrik aniqligi va sirt yuza tekisligi xam u qadar yuqori bo'lmay, seriyasi bir necha dona, xolos.

Bunday quymalarni gilli qum materiallardan ikkita opokada qo'lda tayyorlangan qolipda olish texnika iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra ma'qulroq bo'lgani uchun biz ham bu variantni qabul etaylik. Ma'lumki, quyma qolipni tayyorlashga o'tishdan avval detal chizmasi asosida quyma zagotovka chizmasini loyixalash lozim.




10.1-rasm. Qolip tayyorlash uchun zarur moslamalar: detal chizmasi (a); quyma zagotovka chizmasi (b); model (c); sterjen yashigi (d).

Buning uchun uning nominal o'lchamlarini, metallning qolipda xajmiy kirishuv qiymatini va mexanik ishlovlariga qoldiriladigan quyimlar kattaligini xisobga olgan xolda chizmasi chiziladi (10.1-rasm, b).

Keyin quyma zagotovka chizmasi asosida model sterjen yashigi (sterjen qolipi), suyuq metallni qolingga shlakdan bir muncha tozalab, bir tekisda qolipa uzatuvchi quyish sistemasi tanlanib, uning xam model elementlari shakli va o'lchamlarini aniqlab, chizmasi chiziladi. Modellar, sterjen yashiklar yogochdan tayyorlanadi (10.1-rasm, v, g).

Shuni qayd etish lozimki, sifatli quymalar olishda quyish sistemasi xilini va uning o'lchamlarining to'g'ri tanlanishi katta axamiyatga ega. 10.2-rasmida normal quyish sxemasi keltirilgan.



10.2-rasm. Normal quivish sistemasi: 1-quyish kosachasi;

2-stoyak; 3- shlak tutgich;

4-oziqiantirgich; 5-vipor; 6-vipor stoyagi.

Quyish sistemasi elementlari ko'ndalang kesim o'lchamlarini aniqlashda quyidagi nisbatlardan foydalanish mumkin:

$$F_T = F_{sh} : F_c = 1,0 : 1,2 : 1,5.$$

bu yerda  $F_T$ — quyish sistemasi ta'minlovchi, kavayalarining kesim yuzalari,  $\text{sm}^2$ .

$F_{sh}$ — shlak tutgich qismining ko'ndalang kesim yuzi,  $\text{sm}^2$ .

$F_c$ — stoyak qismining ko'ndalang kesim yuzi,  $\text{sm}^2$ .

Qolipni suyuq metall bilan ta'minlovchi qismining ko'ndalang kesim yuzini esa tubandagi formula bo'yicha aniqlasa bo'ladi:

$$F_T = \frac{Q_K}{v_r \cdot t} \text{ sm}^2$$

bu yerda  $Q_K$ —quyma massasi, kg

$v_r$ — qolipa metall quyishning solishtirma tezligi,  $\text{kg/sm}^2 \cdot \text{s}$

$t$ — qolipning metallga to'lish vaqtisi, s.

$v_r$  va t qiyamatlar quyma materialiga, massasiga, shakliga, xaroratiga, quyish sistemasiga va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra ma'lumotnomada jadvallaridan olinib, zarur bo'lsa o'zgartirishlar kiritiladi, masalan,

$v_r = 1$  bo'lsa,  $t=1,21,2\sqrt{Q_K}$  qilib olish mumkin. Unda  $F_c=0,8$  bo'ladi. Qoliplashda modelni qolip materialidan oson, shikast yetkazmay ajratish uchun model bo'yи o'lchamiga ko'ra  $0^\circ 30^\circ - 3^\circ$  gacha qiyalikda ishlanaadi, o'tish yuzalari radiusi ularning qalinliklariga ko'ra tubandagicha aniqlanadi:

$$R = \frac{a + b}{2} \cdot h;$$

Bu yerda "a" va "b" qiyamatlar o'tish joyi devorlarining qalinligi, mm. Ko'p xollarda  $F_{sh}$ ning ko'ndalang kesim yuzasi trapesiya shaklida olinishini e'tiborga olsak, unda uning ko'ndalangkesim tubandagicha yozish mumkin:

$$F_{sh} = \frac{a + b}{2} \cdot h;$$


Shu formula buyicha shlak tutgich kanalining ko'ndalang kesim yuzi aniqlanadi. Bu yerda «a» va «b» lar trapesiya asoslari,  $h$ — trapesiya balandligi. «a», «b» va «h» kiymatlarini interpretasiyalab belgilanadi. Bunda  $v>a$  olinadi. Quymamassasiga, shakli va boshqa ko'rsatkichlariga ko'ra qolipa metallni uzatuvchi kanallar soni belgilanadi. Stoyak diametrini esa tubandagi formula bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi:

## FOYDALANILADIGAN MATERIAL, USKUNA, MOSLAMA VA O'LChOV ASBOBLARI

Quymalar olishda quyma va qolip materialidan tashqari model, sterjen, opokalar, model taglik taxtasi, shibba, elak va boshqalardan foydalaniadi.

### Quymani olish tartibi

1. Qolip materiali tayyorlanadi. Qolip tayyorlanadigan joyga modeltaglik taxtasi 1 ni gorizontal qilib quyilib, unga model 2 quyiladi, untaesa qolipga metall kirituvchi quyishsistemasi modeli 2 biriktiriladi (10.3-rasm.a).



10.3-rasni. Quyma qolipni tayyorlash ketma-ketligi va unga metallini quyib quymani olish sxemasi:

1-model taglik taxtasi; 2-model; 2'-oziqlantirgich modeli; 3-pastki opoka; 3-qolip materiali; 4-shibba; 4-sihsim; 5-ustki opoka; 6-shtir; 7-shlak tutgich modeli; 7-stoyak modeli; 8-elak; 9-lineyka; 10-sterjen.

2. Model taglik taxtasiga pastkiopoka 3 o'rnatiladi. Keyin yupqa qilib qum kukuni, uning sirtiga 10—15 mm qalinlikda qoplama materialsolinib, so'ngra opoka to'ldirgichmaterial 3' bilan to'ldirilgach, shibba 4 bilan shibbalanadi. Opoka zixidagiortiqcha material chizgich 9 bilan sidirib tashlanadi. Qolip materialining gaz o'tkazuvchanligini yaxshilash maqsadida uning bir necha joyida six sim 4' bilan kichik tezliklarni ochiladi (42-rasm,b).

3. Opoka ikkinchi taglik taxta bilan yopilib, ularni birgalikda 180°C ga burib, tekis joyga quyamiz, ustidagi model taglik taxtasini olamiz. Keyin pastki opokaga ustki opoka o'rnatib, ularni o'zar o'shamiz. So'ngra qolipga metall kirituvchi quyish sistemasi elementi modeli 2' ga shlak tutgich modeli 7, unga esa stoyak modeli 7' ni biriktiramiz, ustki opokani xam pastki opoka singari qolip materiallari bilai to'ldirib shibbalaymiz, ortiqcha materiallarni sidirib tashlab, gaz chiqarish teshiklari ochamiz (42- rasm, v va g).

4. Stoyak modeli atrofini andava bilan o'yib, metall quyish kosachasi ochamiz. Keyin extiyotlik bilan stoyakni tortib olamiz.

5. Opokalardan shtirlar olinib, keyin ustki opokani ko'tarib, 180°C ga aylantirib tekis joyga ko'yamiz, undan extiyotlik bilan shlak tutgich modelini ajratib olamiz. Keyin xuddi sbu tarzda pastki opokadan qolipga metallini kiritish modeli 2' va quyma modeli 2 ni ajratib olamiz (42- rasm, d).

6. Qolipga metall kiritish yo'llari kuzatilib, yaroqliligiga ishonch xosil etilgach, pastki opokadagi qolipning yarim pallasidagi bo'shlqdagi o'z tayanch joyiga sterjen 10 o'matiladi. Keyin pastki opokaga ustki opoka extiyotlik bilan quyilib, qolip yig'ilgach opokalar yana shiralar bilan maxkamlanadi (10.3-rasm, e),

7. Qolipga cho'michda keltirilgan metalli quyilib, metall qotgach quyma ajratib olinadi (10.3-rasm, z).

8. Quymadan quyish sistemasi metali ajratilib, so'ngra quyma tozalanadi va sifati ko'zdan kechiriladi (10.3-rayem, i).

Ma'lumki, gilli materiallardan tayyorlangan qoliplar bir marta quyma olishga yaraydi. Bir marta quyma olingan qolip materiali qayta yangilashga yuboriladi.

U yerda u kesaklangach va metall qo'shimchalardan tozalangach, ularga ma'lum miqdorda xali ishlatilmagan qum, o'tga chidamli gil, suv va maxsus qo'shimcha moddalar, masalan, kuymasligi uchun toshko'mir kukuni ko'shiladi.

Cho'yan quymalar olish uchun umumiyl qolip materialda bir marta ishlatilgan qolip materiali 94,5-96,5% qum, gil 3-5%, toshko'mir kukuni va boshqalar

0,5 va 4,5-5,5% suv bo'ladi.

#### 10.1-jadval

Tartib №	Detal chizi	Qolip tayyorlash bilan bog'liq ishlar zikizi	Qolip(sterjen) elementlarlari	Quyma metalli vauni qolipa quyish xaronti, °C	Quymadan quyish sistemasi metali ni ajratilgach, uni qayusulda tozalanadi	Quyma sifati qanday kuzatiladi

Talabalar berilgan topshiriqqa ko'ra yuqorida ko'rilgan misoldagi tartibda quymalar olishni mustaqil bajaradilar va ishlov materiallari asosida 10.1-jadval to'ldiriladi.

Quymalarni gilli qum qoliplarda olishning bu usuli og'ir mexnat talab etishi, sirtyuzavaaniqligipastligi, ishunumi. Kamliqi sababli kam seriyalab quymalar olishdagina qo'llanadi.

#### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Quymakorlik mashinasozlikda qanday o'rinni egallaydi?
2. Modelning vazifasi nima, uniig shakli, o'lchamlari qanday aniqlanadi?
3. Sterjenlarning vazifasi nima va ular qanday materiallardan tayyorlanadi?
4. Normal quyish sistemasi elementlarining vazifalarini aytib bering?
5. Quyish sistemasi elementlarining o'lchamlari qanday aniqlanadi?

## 11 - LABORATORIYA ISHI

### METALL QUYMLARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR, ULARNING HOSIL BO'LISH SABABLARI VA OLDINI OLİSH TADBIRLARI

**Ishning maqsadi:** Metall quymalarning sisatiga putur yetkazuvchi nuqsonlar (gaz va shlak g'ovakliklari, darzlar, shakl va o'lcham o'zgarishlari, kirishuv bo'shlighlari, qolip va sterjen materiallarining kuyib, quyma sirtiga yopishib qolishi va boshqalar)ning hosil bo'lish sabablarini aniqlash va oldini olish tadbirlarini belgilash.

**Ishning nazariy qismi:** Quymalarni ishlab chiqarish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar (masalan, quyma devorlari qalinliklari turli o'lchamli bo'lishi, qolip va sterjen materiallari tarkibini to'g'ri belgilamaslik va xossalaringin pastligi, metallning qolipa bir me'yorda kirmasligi, tekis sovimasligi va boshqalar) oqibatda turli nuqsonlar uchraydi. 11.1-jadvalda quymalarda ko'proq uchraydigan nuqsonlar, ularning hosil bo'lish sabablari va oldini olish tadbirlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan nuqsonlardan tashqari quyma sirtining shikastlanishi, o'simtalar, sirt yuzaning qattiqligining karbidlar hisobiga haddan tashqari ortishi, kimyoiy tarkibining texnik talablarga javob bermasligi va boshqalar ham uchraydi. Quymalarni texnik talablarga javob berish darajasiga ko'rta tiklab bo'lmaydigan va tiklab bo'ladigan xillarga ajratiladi. Tiklab bo'lmaydigan nuqsonlar yirik nuqsonlar bo'lib, ularni mutlaqo tiklab bo'lmaydi yoki tiklash iqtisodiy jihatdan foydasizdir.

Bu xil nuqsonlari bor quymalar yaroqsiz bo'lgani uchun qayta eritishga yuboriladi. Tiklash mumkin bo'lgan nuqsonlar ancha kichik bo'lib, ular tiklanganlarida normal ishlashlariga putur yetkazmaydi. Ma'lumki, quymalarda uchraydigan nuqsonlarni aniqlashda qator usullar (ko'z, lupa, andazalar, o'lchov asboblar yordamida, magnitli nuqson izlagichlar yoki rentgen nurlari, ultravosuv va boshqalar) bo'lib, ularning qaysi biridan foydalinish quyma materialga, massasiga, shakliga, nuqsonlar tabiatini, quymalarga qo'yilgan talablarga bog'liq. Nuqsonlar aniqlangach, texnik nazorat vakillari ularning hosil bo'lish sabablarini bilish uchun quymalarni ishlab chiqarishda foydalilaniladigan modellar, sterjen yashiklari va bo'lak moslamalarni, barcha operasiyalarning qay tarzda bajarilishini ko'rmog'i lozim. Keyin esa usta va texnologlar bilan zaruriy tadbirlar ko'rildi.

#### Foydalilaniladigan uskuna, moslama va o'lchov asboblari.



Nuqson xiliga ko'ra nuqson qidirgich qurilmalaridan biri, lupa, andaza va shtangensirkullardan foydalilanadi.


Ishni bajarish tartibi.

1. Quymalarni kuzatish usulini belgilash.
2. Nuqsonlarni aniqlash.
3. Hosil bo'lish sabablari.
4. Tiklash tadbirlarini belgilash.
5. Kuzatish materiallari va qilingan xulosalarin 11.1-jadvalda qayd etiladi.

## 11. I-jadval

Nuqsonlar olivatabnati	Qiyoasi	Hosilbo'lish sabablari	Oldini olishshabdirlari
1	2	3	4
Gazbo'shilqlini. Odadta bu nuqsonlar shakli sferik yoki yumalok bo'lib, quymaning sirt yuzalarida joylashadi, ko'kimdir, yalitiroq tushbu'ladi.		Suyultirilgan metallning gazlarga o'tame yordan ortirmagan holdi to'yingunligi. qoliplar va sterjeleanlarning pastligi, kanaytirish, qoliplar va qoliplargu metallni quyish texnologiyalarning gaz qoidasining buzilishi, oksidlardan o'tkazuvchanligini ortirish, foydalanganlik, qolipga metallning seklini, ravon kintmaslik va boshqalar.	Sifatli shixta materialidan foydalinish, jarayonini pechga xiydilayotgan have misqiniga to'la javob beradigan qoliplurga metallning belgilangan texnologiyada haromda sekil va ravon kintish zunglogun tirkildardan foydalananmaslik va boshqalar.
Qolip materiallari bilan to'la yoki qisman to'lgan bo'shilqlar.		Quymalar yoki modeldar konstruksiyasining quymalar talabiga to'la javob bermashigi, qolip va sterjeleanlarning silatining pastligi, qolipning tegishli puxtalikda fayvorlanmagandigi, konstruksiyasining nomaligligi, metallni quvish sistemasiga kosafiga balandroqda quyish, model va opoka jixozlarining yaroqsizlaridan foydalinish, kolipning ayrim uylarining yuvilishi va boshqalar	Quymalar yoki modeldar konstruksiyasining quymalar talablariga to'la javob benshi, qolip va sterjeleanlarning silat materiallardan kutiling puxtalikda javob berudigan qolip fayvorish ma'qil konstruksiyanadan foydalansha metallni sistema kosasiga normal balandlikda quyish, istga yaroqli model va opoka jixozlaridangina foydalinish va boshqalar
1	2	3	4
Kirishuv bo'shilg'i va g'ovaklar. Ularshakli turicha, sirt yuzi g'adir-budur bo'ladi.		Qolipa metallning seklini sovib, kristallana. borishda hali suyuq qismidagi metall hisobiga tu'lib borishi oqibatida uning ustroq qismida pastiga uzaygan kirishuv bo'shilg'i hosil bo'ladi. Metalldan lashqariga chiqishga ulgurmagan gazlur esa gaz g'ovakkilari hosil qiladi.	Quyma shaklining quyma talablariga to'la javob beradigan bo'lmog'i, metallning qolipa sovib kirishuvida ko'shinchalik metall bilan ta'minlanib turuvchi pribil va voporlar bo'lishimi qolipa ko'zda tutish, qolip materiallari silatlari bo'lmog'i, qolipa metall pastdan yuqonga qarab bir tekisda sovishu, qolipning gaz o'tkazuvchanligi yaxshi bo'lmog'i va boshqalar.

<p>Shlak bo'shlilikleri. Ular quymaning uski qismida bo'lib, to'la yoki qisman shlukka bo'lgan, o'chamli uchicha bo'lib, kulrang tusli, g'adir-budur sirtli bo'ladi.</p>		<p>Quyma konstruksiyasining nomo'qulligi, qolipga metallni quvish texnologiyasining buzilishi oqibatida shlukning qisman qolipga o'tishi quyish sistemasi konstruksiyasi elementlari o'chamlarining nol'g'ini belgilanishi va boshqalar.</p>	
<p>Gaz bo'shlig'larda qotib qolgan sharchalar. Bu nuqsonlar bo'shligan siliq, yutiruq bo'ladi.</p>		<p>Quyma sistemani konstruksiyasini nomagulligi, qolipga metallni quvish texnologiyasini buzilishi, qolipga metallni quyishni bushlang ich davnda metallni uzilishi oqibatida sachrab tomchilarini koliqni oyrim yerga o'tib, tezda sovib sharchalar berishi va uni su'ngi metall bilan munosabatda bo'lishida oksidlanib gaz qobig'ida o'rashishi bu nuqsonlarga korolkalar deyiladi.</p>	<p>Ma'qui quyma sistemadina foydalanan, qolipga metallini belgilangan temperaturada uzulisziz quyishi va boshqalar.</p>
<p>Darzlar. Bu nuqsonlarni nisilbo'lishit temperaturesig'i ko'ra issiq va sovuq xillarga jaraylatadi. Issiq darzlar chetlari yirtiq, oksidlangan bo'lsa, sovuq darzlar to'g'inchizqili yoki ilon zilbo'lib, lovanib turadi.</p>		<p>Metallni qolipga kirishuvdasterjentalar tomonidan qarshilikbo (ganda hiso) bo'lgan zu'nqish ichlikuchlanish qiyimali metallning mustaxkamlik chegarasidan ortsu, qolipni turli joylarini turlitezlikda sovishi metall kimyo viyartikibini noyilmasligi va boshqalar.</p>	<p>Quyma konstruksiyasini quyma talablarga to'la javob berishi, qolipda metallni bir tekisda suvitmoq uchun sovitgichlardan foydalanan, o'zidan issiglikni yaxshi o'kazadigan va issiklik sig imi yugor bo'lgan materialarda foydalish va boshqalar.</p>

<p>Quymalar sirtiga qolip va sterjenlari materialining kuyib yopishishi va suyuq metallni qolip materiali g'ovakliklarga o'tishi.</p>		<p>Qolip va sterjenlarni o'tga chidamaliligi pastligi, qoliplarning yaxshi zinchlanmagandligi, metallni qolipga o'ta kizigan holda kattu bosimda juda sekun quyshini va boshqalar.</p>	<p>Qolip va sterjenlurni sifatlari o'tga chidamli materiallardan zaruri chilikda tayyorlash, qolipa normal temperaturalni metallni ravon kiritish, tegisnili quyma sistemidan foydalananish va boshqalar.</p>
<p>Qolipga avvalnuq quyilgan metall bilan qeyinruq quyilgan metallni hirikib ketmasligi oqibatida hosil bo'lgan yoriq.</p>		<p>Suvuq metallni fizika-nexanik xossalari qoniqarsizligi, qolipni tuyurlash texnologik prosessini buzilishi, yetari bosimda metallni qolipiga kirmasligi, qolip materialini issiqligini tez o'tkazishi, qolipa metallni kiritish temperaturasini pastligi, sekin kiritilishi va uzilishi va boshqalar.</p>	<p>Qolipi zaruri sifatlari qolip materialidan belgilangan texnologiya bo'yicha tayyorlash, metallni qolipga belgilangan temperaturada tizroq va uzluskri quyish va boshqalar.</p>
<p>Quymadasirdan metall qatlasmibulanqoplanganva u zader huqurho 'Imaganitorariqchalar.</p>		<p>Qolipni gaz o'tkazuvchanligini pastligi, qolipa quyilgan metall undagi gazlar bosimini ko'tarib. Qolipning gaz o'tkazuvchanligini orturgan bilan quna zarunchaluring yuqori bo'lmoq'i, qolipa metall hajmini ortishida qolipdan qobiqliquylayotganda undan gazlarning ajraladi. Bu sharoitda suyuq metall ko'rajishli va boshqalar. qobiqli ezb yoriq hosil etib, unga u'radi, bunga uymun deyiladi.</p>	
<p>Quymalarning tob tashlashi.</p>		<p>Quymalar konstruksiyanining qulligi Quyma konstruksiysi sbunday umladan devor qalinliklarini keskinbo'lmoq'i kerakki, qolipa metall tarqlanshiqibatida qolipga quvilgundeyarli bir tekisla sovisin, aks metallniturli tezlikda sovishi sababliholda sovish tezliklarini deyrlichchi zo'r qish kuchlanishlari englasbirish, metallning qolipa bosilishi, metallning qolipga bir me'yorda va normal birme'yorda quyilmasligi va temperaturada quyish, qolip va uning temperaturasining anchasterjenlarni beriluvchanlik yuqoriligi, qolip va sterjenlarning xossalarni ko'tarish va beriluvchanligini kichikligi va boshqalar.</p>	

Kolipningchalato'ishi.		Kuvvudagi metallining yetmasligi quyishistemasi yo'llining o'pirlib tushganmaterial bilan to'lib qolishi yoki o'lchamlarning kichikligi, quyyladiganmetall temperaturasining pastligi,yanm qoliplarning zinchig' ilmasligisababli tizqishlaridan metallning oqibketishi va boshqalar.	Qoliga zarur miqdordagi metallini uzluksiz, quyish sistemasi elementlari o'lchamlarini aniq hisoblash, quyyladigan metall temperaturasini zarur darajagacha ko'tarish, yanm qoliplarni yaxshi biriktirish belgilangan texnologiya bajarish va uni kuzatib turish va boshqalar
1	2	3	4
Quymaning bir qismuni ikkanchi qisnuga nisbatan silishi		Modellarning model pilasiga noto'g'ri o'matilishi yoki ularning ish davrida silishi, sterjen yashiklarning yomon yig'ilisi sterjenlarning talablarga muvoqiqmasligi, kolipning moto g'ri yig'ilishi, ko'pol ravishda tashilishi va boshqalar.	Modellarni ishlatalishdan avval niftini kuzatish va uni model tag pitaiga to'g'ri o'matilishi, qolip pallalarini yaxshulab yig'ish, ko'pol ishlarga yo'll ko'ymaslik va boshqalar.
Metallning qolip Urqishlaridan oqib ketishi.		Yurim qolip pallalarning e'tiborsizlikbilan yetarli danjada zinchig' ilmasligi, modellarning qolipdan ajratishda ortiqcha qumirlatish,sterjen belgisi bilan uning tuyanchiyuzasi orandalda bo'shilqosish bo'lishiha boshqalar.	Yurim qolip pallalarni e'tibor bilanzich qilib yig'ish, opokalarini puxtabiriktiir ustiga zarur bo'lsa yukbosirish, qoliplarni yaxshilab yig'ishva boshqalar.

### 11.2-jadval

Tartib №	Oqyma materiali	Eskizi	Nuqsonlar xili, o'lchamiva taqsimlanishi	Nuqsonlarning oldini olishadibirleri	Tiklanadiganlarini tiklash usullari

## O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Quymalarda ko'p uchraydigan nuqsonlar va ulardan birining hosil bo'lish sabablarini aytib bering.

2. Ochiq va berk nuqsonlarni aniqlashning qaysi usullarini bilasiz, ulardan birini aytib bering.

3. Tiklanadigan nuqsonlarni qanday talablarga ko'ra aniqlanadi va qay usullarda tiklanadi?

## 12 - LABORATORIYA ISHI

### PAYVAND BIRIKMALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR, ULARNING HOSIL BO'LISH SABABLARI VA OLDINI OLİSH TADBIRLARI

**Ishning maqsadi:** Payvand birikmalarning mustahkamligiga putur yetkazuvchi nuqsonlarni ko'z bilan (zarur bo'lsa lupa yordamida) qarab aniqlash va hosil bo'lish sabablarining oldini olish tadbirlarini belgilash.

**Ishning nazariy qismi:** Ma'lumki, payvand birikmalarda qator sabablarga ko'ra nuqsonlar, jumladan chok o'lchamlarining chizmada ko'rsatilganiga to'g'ri kelmasiagi, chokda yoki asosiy metallda o'yilgan, kertim joylar, darzlar, g'ovaklar, chala payvandlangan joylar va boshqalar uchrashi mumkin, ular payvand birikmalar sifatiga putur yetkazadi. Bu nuqsonlar zagotovkalar materialiga, qalinligiga, payvandlash usuliga ularning payvandlashga qanchalik talabga javob beradi. Shu tarzda tayyorlanganligiga, payvandlash rejimining to'g'ri belgilanganligiga, payvandchining malakasiga bog'liq. Payvand birikmalar sifatini kuzatishning qator usullari (magnitaviy, ultratovush, rentgen va boshqalar) bo'lib, ularning qaysi biridan foydalanish payvand birikmaning o'lchamlari, seriyasi va muhimligiga bog'lik, 34-jadvalda payvand birikmalarda uchrovchi asosiy nuqsonlar xili, hosil bo'lish sabablari va oldini olish tadbirlari ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan nuqsonlardan tashqari ayniqsa toblanishga moyil, yupqa metall zagotovkalarni payvandlashda hosil bo'ladigan ichki zo'rniqish kuchlanishlari payvand birikmaning deformasiyalanishiga, ba'zan darz ketishiga olib keladi. Shu boisdan bunday zagotovkalarni payvandlashda texnologik tadbirlar qurishga to'g'ri keladi. Jumladan suyultirib o'tkaziladigan metall xajmini, choklar sonini kamaytirish ila ularni simmetrik bostirish va zarur bo'lsa, maxsus mahkamlovchi moslamalardan foydalanish tadbirlari quriladi.

Foydalaniladigan uskuna, moslama va asboblar Turli nuqsonlari bor payvand birikmalar, chizg'ich, shtangensirkul va boshqalar.

Tarbih №	Nuqsonlar xili vaturtibi	Sxematik tesviri	Hozibou'lish sabablari	Oldindiolish tadbirleri
2	3	4		5
	Chok o'chamurlari chizma talabiga javob bermastigi		Zagotovkalarini qalinligiga ko'ra payvandlash joylarining GOST talablarin bo'yicha tuyyorlaslik, payvandlash usulini va rejimini to'g'ri belgilamaslik, payvandchi malakasining pastligi va boshqalar	Zagotovkalarini qalinligiga ko'ra GOST talabiga javob beradigan tarzda tuyyorlash, payvandlash usulini to'g'ri belgilash, chokni malakali payvandchi bostirmog'i va boshqalar
	Chokka yondashgan joyida o'vilgan kemiklari bo'lishi		Yoy yoki alanga quvvatining hadan tashqari kuchiligidagi noqlay chok bostirilishi, metallning kuyishi, payvandchi malakasining pastligi va boshqalar	Yoy va alanga quvvatini ostlab chok malakali payvandchi tomonidan bostinmog'i lozim.
	Chokda durzlar xosil bo'lishga		Toblanishga moil metallzagotovkalarini payvandlashda ancha katta ichki zo'r qisish kuchlanishlariniq hosil bo'lishi, payvandlanuvchi metall zagotovka shaklining murakkabligi, bir tekisda sovishini ta'minlamaslik, payvandchini malakasining pastligi va boshqalar	Payvandlashda zagotovka materiali shakli va o'chamlanga ko'ra payvandlash usulini to'g'ri belgilash, bir tekisda sovishini ta'minlash, chokni past malakali payvandchi tomonidan bostirilishi va boshqalar
	Chokdapayvan dianmay qulgunjoylarbu'lishi		Belgilangan texnologik jarayonga to'la rioya qilmaslik, payvandchi malakasining pastligi	Belgilangan texnologik jarayonga to'la rioya etgan holda chokni malakali payvandchi tomonidan bostirmoq

2	3	4	5
Qolip gillari o'tga chidamli kaolinit (GOST 3226-93) va bentonitga (GOST 28177-89) bo'linadi (4.7-jadval) O'tga chidamli qoliplash gillari. Bu gi o'tga chidamligi 1580°C darajadan past emas va GOST 3226-93 muvofiq ularni bazi bir ko'rsatichlariga qarab sinflarga bo'linish 4.6-jadvalda keltirilgan. Fizika-mekanik xususiyatlariga muvofiq gillar GOST 3226-93 muvofiq gillar markalarga bo'linadi (4.7-jadval) keltirilgan markalarda P-puxta; S-o'rtacha puxtalikka ega; M-past puxtalikka ega; 1-raqam yuqori bog'llovchi xususiyatlari; 2-o'rtacha bog'lash xususiyatlari; 3-past bog'lovchi xususiyatlari.

#### 4.6-jadval

##### Kaolinit gillarini sinflarga bo'linishi

Ko'rsatkichi	GOST 3226-93 muvofiq normal o'rtacha ko'rsatkichi		
	Baland	O'rtacha	Past
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> miqdori, mass, %	33,0 oshiq	28,0-33,0	23,0-28,0
Temirni Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> o'tkazgandagimiqdori, mass, %	3,0-4,5	1,5-3,0	1,5 ko'p emas
*p.p. t.mas, %	14,0-18,0	10,0-14,0	10,0 ko'p emas
Kolloidligi, mas, %	20,0 oshiq	14,0-20,0	8,0-14,0
Almashuvkationlariň koncentrasiyası, mg-ekv/100 g, guruqilniki	25,0 oshiq	15,0-25,0	7,0-15,0

#### 4.7-jadval

##### O'tga chidamligi gillarni fizika-mekanik xususiyatlari va markalari

Markasi	Siqilganda puxtalik chegarasi, n/mm <sup>2</sup> , GOST 3226-93	
	Gilni nanix olatida	Quruq xolatdagı gil
P1	0,050	0,32
P2	0,050	0,25
P3	0,050	0,15
S1	0,035	0,35
S2	0,035	0,25
S3	0,035	0,15
M1	0,02	0,35
M2	0,02	0,25
M3	0,02	0,15

*Bentonitgillari.* Bentonitgillariga qo'yladigan tajablar GOST 28177-89 muvofiqbelgilangan. Gillarni kimyoviy – mineralogik ko'rsatkichlari 4.8-jadvalda yoritilgan.

Fizika-mekanik ko'rsatkichlariga qarab bentonit gillari nam xolatdagı puxtaligi bo'yicha 3 sinfga bo'linadi (23-jadval): Puxta – P – siqilishdagi puxtaligi 0,09 n/mm<sup>2</sup> kam emas o'rtacha puxtalik ega; S – 0,07 n/mm<sup>2</sup> va M – kam puxtalik, puxtaligi 0,05 n/mm<sup>2</sup>. 21-jadvalda kimyoviy-mineralogik ko'rsatkichlariga muvofiq bentonitlarini sinflarga bo'linishi.

4.8-jadval

Bentonit gillarini kimyoviy-mineralogikko'rsatkichlari

Ko'rsatkichi	GOST 28177-89 daginiormasi
Gilnimiqdori, mas,%:	30,0
montmorillonit, kamemas	10,0
CaSO <sub>4</sub> hisoblangankarbonatlar,	0,3
ko'pemas,sulfidliotingugurt	12,0
temirni Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> gahisoblaganda	
Almashuvkationlarini, mg-ekv/100 gr quruqgilda, kamemas	30,0
Kolloidlik, mas %, kamemas	10,0
Namtortishligi, yed (ko'rsatuvchiraqami) ko'pemas	1,0

Bentonit gillarini kondensatsiya zonasida gipuxtaligiga muvofiq

4 guruhg'a bo'linadi:

- 1 Guruh yuqori bog'lovchi xususiyatlari gillarni o'z ichiga oladi (0,0028 n/mm<sup>2</sup>kam emas);
- 2 – bog'lovchiligi (0,002 n/mm<sup>2</sup>kamemas);
- 3 – o'rtachabog'lovchi (0,015 n/mm<sup>2</sup>kamemas);
- 4 – pastbog'lovchi (puxtalikko'rsatkichiko'rsatilmaydi).

Kimyoviy – mineralogik ko'rsatkichlariga muvofiq qoliplash  
Bentonitgillarini sinflanish belgilari

4.9-jadval

Ko'rsatkichi	GOST 28177-85 muvofiq o'rtacha
Gildagimiqdoni, mas %	
Montmorilloniti:	
yuqori	70 oshiqroq
o'rtacha	50-70
past	30-50
CaCO <sub>3</sub> hisoblangankarbonat:	
past	2 gacha
o'rtacha	2-5
yuqori	5-10
Sulfidliotingugurtini	
yuqori	0,2-0,3
past	0,2 gacha
Temirni Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> hisoblaganda	
past	0,4 gacha
shrtacha	4-8
vugori	8-12
Almashuvkationlarnikonsentratsiyasi, mg-ekv/100 g	
Quruqgini	
yuqori	80 oshiq
o'rtacha	50-80
past	30-50

Kolloidalligi, mas %	
yuqori	80 oshiq
o'tacha	40-80
past	10-40
Namtortishlik, raqam	
yuqori	6,5 ortiqroq
o'tacha	5,1-6,5
past	1-5

Termokimyoviy chidamligiga muvosiq gillar turlixilga bo'linadi:

- T<sub>1</sub> – yuqori chidamli, ko'rsatkichi 0,6;
- T<sub>2</sub> – o'tachachidamli, ko'rsatkichi 0,3;
- T<sub>3</sub> – pastchidamli, ko'rsatkichiyozilmaydi.

### *Gillarni markalanishi.*

Masalan SIT<sub>2</sub> – nam xolatida o'tacha puxtalikka ega va termokimyoviy chidamligi bo'yicha o'tacha chidamliligi, puxtalik ko'rsatkichi 0,3 kam emas.

*Qolip aralashmalariga gilni qo'shish usullari.* Gilni aralashmaga kukun sifatida va suvli suspenziyasi fatida qo'shiladi, ko'proq birinchi va rianti ishlatalinadi.

Qum-gilli aralashmalarga qo'shiladigan maxsus qo'shimchalar.

Bularichigakiradi:

*Qolip aralashmani quyishigaqarshi;*

- Namligini qum-bentonit aralashmalarida stabilizatsiya qilish uchun qo'shimchalar;

- Ujiminanomlinuxsonlarni kamaytirish uchun;
- Aralashmalarni oquvchaliginioshirishga;
- Quruq aralashmalarini ishlovga mosligini oshirish uchun.

*Qolip aralashmalarini turlari 4.10-jadvalda keltirilgan.*

Quymakorlikda ko'proq ishlatalinadigan bog'lovchi moddalarini sinflarga bo'linishi 4.10-jadvalda keltirilgan.

## Bog'lovchi moddalarni sinflargabo'linishi

4.10-jadval

Materia lniguru hi	Solishti rnazich -ligi $10^3 \text{Pa}$ %	A - sinifi		B - sinifi		V - sinifi	
		Qotish asnisi	Bog'lovchim odda	Qotishasnisi	Bog'lovchim odda	Qotishma sinfi	Bog'lovch imodda
I	> 5	Asl holigak elolmay digan	A-1 o'simlikyog'i, olif, tabbiyolif, P. PT, PTA:sintetik haqichilar, fenolofuranlik arbamidofur ani, RSF-30 10 OF 1)PK 104, SF-011, FF, 1FFF-1FM, FF-1 SM, FF 65S	Asl holigakelolma ydigan	B-1 Sintetikkarba midofuranlika rbamido- furanlichaqic hlarM-19, 62UKS-LM,3 KFJ, VK-1, VR-1. BS 40 furitol 107.125, KF- 65	Asl holigakel olmaydig an	V-1 Suyuqshi sha
II	3 - 5	Oraliqd a	A-2 ChGU, KO, USK	Oraliqda	B-2 SP, SBKVSdektri n		V-2
III	< 3	Holigaq aytadig an	A-3 DP, BTK	Holigaqaytadi gan	B-3 Lignosulfatq (LST) patoka, gidroimelyassa a	Holigaqa ytadigan	V-3 Sementiq oligpilli

### Hisobot mazmuni

1. Qolip qumlarini turlari.
2. Qolip gillarini turlari.
3. Qolip qumlarini gillarini markalanishi.

### Nazorat savollari

1. Qolip qumlarini klassifikasiyasini aniqlang.
2. Kvarts donachalarini guruqlarini aytib bering.
3. Qumlarni markalanishini yozib bering.

## 5 - AMALIY MASHG'ULOT

### QOLIP ARALASHMALARI VA TURLARI.

**Ishning maqsadi:** Birmarta ishlatalinadigan qum-gilli qoliplari qoliparalashmalari va qolip materiallarini aniqlash.

**Ishning nazarly qismi:** Birmarta ishlatalinadigan qum-gilli qoliplari qolip aralashmalari, materiallarini qolip materiallari debataladi. Asosiy qolip materiallara qum (asosiy o'tga chidamli tarkibi), bog'lovchi moddalar va maxsus xususiyatli qo'shimchalar kiradi. Ushbu dastlabki yangi materiallar va ishlataligan qolip aralashmalarini qorishtirgichlarda texnologiyasi bo'yicha qolip va o'zakaralashmalaritayorlanadi.

*Qolip va o'zak aralashmalariga qo'yiladigan talablar*

Qoliplovchi materiallar, qoliplar va o'zaklar suyuq metalni mexanik, issiqlik, kimiyoviy ta'siriga duch kelishadi va ularga ko'p kriteriyalar bo'yicha talablar qo'yiladi. Bu talablar quydagi xususiyatlarga to'plangan: gidravlik, mexanik, issiqlik fizikasiy (teplofizik) va texnologik (5.1-jadval).

Qolip va o'zak aralashmalarini xususiyatlari

5.1-jadval

Guruhsı	Xususiyatlari
Gidravlik	Namlik G'uvoklik Gazo'tkazuvchanlik Gazhosilqlish
Mexanik	Qattiqlik Puxtahlik: - nam holatida - mustahkamlanganholda - qizitilganholda - o'taqizdirish
Teplofizik	Issiqliko'tkazish Darojao'tkazuvchanlik (temperaturprovodnost) Harorut sig'imi
Texnologik	Oquvchanlik Yopishqoqlik O'tga chidamlik Zichlanish Namtoqtishlik Ishlovgamoslik Yashovchanlik Chochilibketish Kuyibyopishubqolish Uribchugurilish

5.2-jadvalda keltirilgan xususiyatlarni axamiyatga ega, asosiyalar quydagi:

O'tgachidamlik – qolip aralashmalarini yuqori darajaga chidamlik berib quymakorlik qolipini yaxshi ishchi holda saqlash.

Qolip aralashmalarini tanlashda quyiladigan qotishmalarni darajasini hisobga olish kerak.

Ayniqsa bu ormil devori qalın bo'lgan quymalarni quyishda axamiyatga egadir, chunki bu xolatda suyuq qotishmani ta'sir qiladigan vaqtı ko'proq bo'ladi. Qoliplarmini yuzasini darajasi qotishmalarni quyish darajasiga yaqinlashadi, bu sharoitda qolip aralashmasi yumshab va birikib qolishi mumkin.

Ba'zi bir qotishmalarni suyuqlanish darajasi va qolip aralashmalarini o'tga chidamligi 5.2-jadvalda keltirilgan.

**Qolip aralashmalarini qotishmalarni quyish darajasi hisobga olingan holdagi o'tga chidamligi**

### 5.2-jadval

Qotishmanimurkasi	Qotishmanisuyuqlanishdorjusi, °C	O'tgachidamligi, °C
35Lpo'lati	1500	1700
SCh 20 cho'vani	1170	1500
Bionza	1080	1200
Al - qotishmasi	600	800-900

**Puxtalik** – qolipni, yoki o'zakni tashqaridan ta'sirga bizilmasdan va geometrik ishlovlarini o'zgartirmasdan chidamligi.

Qolip aralashmalarini puxtaligiga quyiladigan talah quymani taylorlab olishda o'zgaradi.

Qolipni konveyerde bir-biriga urilishda, surilishda, ko'chirishda, cho'zilishida qolipni buzilmasligi va chidamligi saqlanib qolishi va suyuq qotishmani quyishda statik, dinamik bosimga va suyuq metallik issiqligini ta'siriga chidab berishidur.

Nam xolatdagi qolip aralashmalarini puxtaligi

$\sigma_u = 0,05 - 0,2 \text{ n/mm}^2$ , qo'lda qoliplashuchun  $0,05 \text{ n/mm}^2$ , mashinada qoliplashga  $0,05$  danto  $0,1 \text{ n/mm}^2$ .

O'zaklar uchun issiqlik va kimyoiy puxtalanishdanso'ng  $\sigma_p = 1...3 \text{ n/mm}^2$ .

**Ikkinci qism.**

Quymani qolipda qotishida va sovishi jarayonida qolip aralashma yaxshi ishlovga mosligiga ega bo'lishi kerak, chunki quymalarda issiqliq va sovuq darzliliklar hosil bo'lishi mumkin.

Qoliplardan quymani ajratish jaryonida qolip aralashmalarini quyymadan onson va qulay ajralishi lozim.

**Urib chiqarishlik**, yoki qo'lda puxtalik bu qolip aralashmasini quyymadan ajralish xususiyatidir, qolip aralashmalarini qo'lda puxtaligi  $= 0,2 \text{ n/mm}^2$  osbmasligi kerak.

**Teplofizik xususiyatlari**. Quymakorlik aralashmalarini teplofizik xususiyatlari quyma va qolip o'rtaida issiqlik almashishini belgilaydi, chunki undan quymani qotishini tezligi va tuzilishi, mexanik xususiyatlari va qolipdan quymani ajratish vaqtiga bog'liqidir.

Undan tashqari qolip va quymani o'rtasidagi issiqlik almashivudan qolipni qizishini chuqurligiga bog'liqidir.


Bunga bog'liq aralashmadagi komponentalarini aktivligini yo'qotishi va kerakli miqdorida uni yengilash (texnologik xususiyatlarini tiklash) tushintiriladi. Plastiklik— qolip aralashmasini deformatsiya ho'lishi va yuklanishi, kuchiniketganidankeyindeformatsiyani saqlash.

Gaz hosil qilishlik — qolip aralashmasini suyuq metal quyganida gazlar chiqarish.

Gaz o'tkazuvchanlik— qolip aralashmasini gazo'tkazish xususiyati.

Namrtortishlik— qolip aralashmalarini atrof-muxitdan namiliki adsorbsiya qilish, unda ko'pincha zichlashtirilgan aralashmalarini mexanik xususiyatlari pasayadi (ayniqsa o'zak aralashmalarida).

Yashovchanlik— qolip va o'zak aralashmalarini o'zak vaqt yaroqlik xususiyatini saqlash.



S. 1-rasmi. Mashinada qoliplash uchun opokalar. 1-sapfa;  
2-yo'naltiruvchi vtulka; 2- yo'naltiruvchi vtulka;  
3- L<sub>1</sub>, L<sub>2</sub>, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, a, b, b<sub>1</sub>, h – opokali ishlolvulari.

### **Hisobot mazmuni**

1. Qolip aralashmalarini turlari
2. Sovuq holatida qotadigan aralashmalar
3. Suyuq shishali aralashmalar.

### **Nazorat savollari.**

1. Qolip aralashmalariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
2. Aralashmalarni o'tga chidamlilik xususiyatlarini aytib bering.
3. Araalashmalarni texnologik xususiatlariga nimalar kiradi?

## 6 - AMALIY MASHG'ULOT

### QUYISH TIZIMI TURLARI, USTAMALAR, XOVURAKLAR

**Ishning maqsadi:** Quymani sifatli tayyorlab olishda quyish tizimini ahamiyatini o'rganish va hisoblab chiqish.

**Ishning nazarly qismi:** Ishning birinchi qismida qolip materiallarini tayyorlashda aval ombor quymani sifatli taylorlab olish va quyish tizimini hisoblab chiqishning abamiyati katta.

Qolipga metal kiritish tizimining qurilmasi qotishmani qolipga bir me'yorda va uzlusiz yuborishni, uning sekin to'lg'azilishini, shlakning va boshqa metalmas qo'shimchalarining ushlab qolinishini ta'minlashi kerak.

Qolipga metall kiritish tizimiga metall sarfi eng minimal bo'lmg'I kerak. Normal qolipga metall kiritishtizimivoronka, ustun (stoyak), shlakushlagichvata 'minlagichlardaniboratbo'ldi.

Qolipga metal quyish cho'michidan keladi.

Voronkaga (kovshga) quyish paytida uni tez to'lg'azish darkor, qotishmani baland darajada ushlab turish kerak, bunda sblak ushlanishi ta'minlanadi.


Ustun (stoyak) kesilgan konus ko'rinishida bajariladi va vertikal kanal sifatida bo'lib, undan metall yuqorigi yarimqolipa joylashgan shlak ushlagichga keladi. Shlak ushlagich shlakni va metallmas qo'shimchalarini to'xtatishga xamda metallni ta'minlagichlarga-qisqa kanallarga keltirishga xizmat qiladi, ulardan metal qolip bo'shilig'iga keladi.

Metallni qolipga keltirish balandligi darajasiga qarab quyidagi metallni qolipga keltirish tizimining qurilmalarini arjartishadi (6.1-rasm.a.):

Qotishma bevosita quvur ustun (stoyak) orqali qo'yiladi (6.1-rasm.b).

Quyishning davomiyligi quymalar sifatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Tez quyuv yupqa devorli va murakkab qiyofali (isitish radiatorlarining seksiyalari va qozonlar, cho'milish vannalarini va boshqalar) quymalarni olishda amalga oshiriladi, hamda quymalarni katta yassi tashqi sirtlari bo'lsa xam.

Sekin quyish esa-qalin devorli cho'yani quymalarni ustama (prihillar) yordamisiz zinch quymalar olish maqsadida quyishda ishlataladi. Mashina detallari quymalari normal tezlikda quyiladi. Kulrang cho'yan va po'latdan quymalar quyish davomiyligi haqidagi ma'lumotlar 6.1-jadvalda berilgan.



6.1-rasm. Quyuv sistemalarini o'chash.

- a) quyuv sistemalari gorizontall-qotishma ajratiladigan joyi;
- b) qotishma bevosita quvur ustun (stoyak).-gorizontall-qotishma ajratiladigan joyidan keltiriladi (6.1-rasm.a);-yuqorigi (soddalashtrilagan metalni qolipga keltirishitizimi)

Quymaning massasi, solishtirma quyish tezligini bilib va 6.1-jadvaldan uning davomiyligini tanlab, qolipga metal kiritish tizimining eng asosiy elementi ta'minlagichning kesimini hisoblab chiqish mumkin:

$$f_{mop} = \frac{M}{(p \tau \mu \sqrt{2gH_p})}$$

Bu yerda:  $M$  – qolipdag'i quyymalarning massasi, yontarafdag'i ustama (pribil)larham shu hisobda;

$R$  – suyuq metallning zichligi;

$\tau$  - qolipnito'ldirishmuddati (6.1-jadval);

$\mu$  - metallning sarflanish koeffitsiyenti;  $\alpha/\mu$ ;

$g$  – erkin tushishnin gtezlanishi;

$N_r$  – hisoblab aniqlanadigan statikbosim.

To'ldirish muddati quydag'i erkin shaklda keltirish mumkin bo'lgan formulalar bilan hisoblanadi:

$$\tau = A \cdot \delta^m \cdot M^n$$

Bunda:  $\delta$  - quyymadevorining (ko'puchraydigan) qalinligi, mm;

$M$  – quymaning massasi, kg;

$A$ ,  $m$ ,  $n$  – nisbatli 1-jadvaldakeltirilgankoeffisientlar.

Quyidagi holatdagi nisbatan dozachakeng qo'llanadi:

$$\tau = A^3 \sqrt{\delta M}$$

Bu yerda:  $m=n=0,334$

Gidravlik yuqotishlarning ja'mini xarakterlovchi sarflanish koeffitsiyenti M tadqiq qilish orqali aniqlanadi. Ko'p hollarda = 0,4...0,7 (6.1-jadval).

Murakkab va qolip devorli quymalar uchun koeffisiyent Mning pasatish safiga 5-7% tuzatish kiritish mumkin.

Quyuv chashasi orqali quyuv paytida metall oqimi quvvatini to'la so'nishisodirbo'ladi, bu holda hisoblab aniqlangan statik bosim (14-rasm,a):

$$H_0 \cdot \frac{P^2}{(2c)}$$

Bu yerda:  $N_0$  – boshlang'ich bosim, yoki gorizontall LSP ta'minlovchilardan chashadagi metallning yuqorigi sathigacha bo'lgan masofa;

R – ta'minlovchilarning gorizontal o'qidan quymaning tepasiga bo'lgan masofa;

S – quymaning balandligi.

$$r = 0 \text{ va } N_r = N_0$$

$$V \text{ va } S \text{ quyuv sistemalari uchun: } r = sv/N_r = N_0 - s/2;$$

Agar quyish quyuv vornkasi orqali amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda hisoblab aniqladigan statikbosim:

$$H_0 - \frac{P^2}{(2c) + H_1}$$

Bunda:  $N_0$  – ta'minlovchilar o'qidan yuqoridagi opokaning ustki qirasigacha bo'lgan masofa;

$N_1$  – yuqoridagi opokaning ustki qirrasidan buriladigan cho'mich (kovsh)dagi metallning sothigacha bo'lgan masofa. Tor joyning kesimi maydonini:

$$f_{mop} = \frac{M}{(\rho \tau \mu \sqrt{2g H_0})}$$

Formulasi bilan aniqlangandan so'ng sistemasining boshqa qismlarining ko'ndalang kesimlarining maydoni hisoblab chiqiladi.

Amaliyotda ko'pincha stoyak, qotishma quyish va ta'minlovchilarning ko'ndalang kesimlari maydoning qutidagi nisbatlari ko'p qo'llanadi; cho'yanlar uchun: (6.1-jadval).

#### Alyuminiyli va magniyli qotshishmalar uchun:

Kesimlarning maydoni hisoblab chiqilgandan so'ng quyuv sistemalarining barcha qismlarining o'lchamlari aniqlanadi.

### 6.1-jadval

Suyuq metallini qolipga quyish davomiyligi

Mussa, kg	Qulrangcho'yandan, sekund	Po'latidan, sekund
5	3-5	5-8
5	3-5	5-8
10	4-6	7-10
25	7-10	8-12
50	8-12	10-15
100	10-15	12-20
200	15-25	25-35
400	25-40	40-50
1000	35-60	50-80
4000	70-100	100-160
10000	120-50	150-200
15000	140-180	-
25000	150-200	-

Tik, yumoloq mo'ri (stoyak) uchsununing diametrli aniqlanadi.

Eng ko'p ishlataladigan trapesiya simon qotishma tutgichlar quyidagi o'lcham nisbatlariga ega.

### 6.2-jadval

Shlak ushlagich va quvur-ustunta'minlagichlarni  
Maydonlarining zaronisbatlari

Tavsiya etiladigan nisbatlar	Qu'llanishshubusi
Kulrang cho'vandan mayda va o'rta quvmalar uchun	
Kulrang cho'yanidan yirik quvmalar uchun	
Mayda po'lat quvmala ruchun	
O'rta va yirik po'lat quvmalar uchun	
Alyumin qotishmalariidan bo'lgan quvmalar uchun	
Magniv qotishmalariidan bo'lgan quvmalar uchun	

Quyuv voronkalarining o'lchamlari ma'lumot beradigan xujjalalar asosida tanlab olib belgilanadi (jadval 26,27,28,29).

### 6.3-jadval

A, t.p. koeffisiyentlarining turliqotishmalar uchun nisbati

Qotishma	A	M	N
Cho'van	1,63-2,2	0	0,5
Cho'yan	2	0,331	0,334
Po'lat	1,5	0,334	0,334
Alyuminiyli	1,7-3	0,334	0,334
Magnivli	2,3-4,5	0,334	0,334

### 6.4-jadval

Turliqolip va qotishmalar uchun sarflanish koeffisiyenti

Qolip	Cho'yan	Po'lat
Mayda	0,6 0,5	0,5 0,42
O'rtacha	0,48 0,42	0,38 0,32
Yirik	0,4 0,35	0,3 0,25

Eslatma: suratda quruq qolip uchun. Mahrajda esanam-qolip uchun ma'lumotlarkeltirilgan.

### **Ikkinci qism.**

Quyish tizimini hisoblashda quyidagi talablarni e'tiborga olish lozim:

1) quyish tizimi qolip bo'shlig'ini ma'lum tezlikda optimal vaqt ichida to'ldirishi kerak;

2) gazlarni tashqi muhitdan tortib olinishining oldini olish maqsadida quyish tizimining barcha qismlaridagi metall bosimi atmosfera bosimidan yuqori bolishi zarur;

3) ta'minlagichdan oqib chiqayotgan suyuq metall tezligi kichik bo'lib, qolip bo'shlig'ining to'lishi belgilangan vaqt ichida amalga oshishi kerak;

4) quyish tizimi suyuq metall tarkibidagi nometall qo'shimchalarini tutib qolishi kerak;

5) quyish tizimi uchun sarflanadigan metall niiqdori iloji boricha kam bo'lishi kerak.

Bu talablarning bajarilmasligi quymaning nobopligi (brak)ga sabab bo'ladi. Qolip bo'shlig'ining suyuq metall bilan to'lishi oqimning kichik tezligi va katta hajmий tezlikhilan amalga oshishi kerak.

Quyish tizimini hisoblashda gidravlika qonunlariga asoslangan tenglama va nomogrammalardan foydalaniladi.

Hisob ishlari quyish tizimining ko'ndalang kesim yuzasi eng kichik bo'lgan qismiga nisbatan olib borilib, qolgan qismlari shu aniqlangan qismiga qarab aniqlanadi.

Eng kichik bo'lgan ko'ndalang kesim yuzasi quyidagicha hisoblanadi:

$$F_{\text{kich.yuz}} = \frac{Q \cdot 100}{\tau \cdot \mu \cdot \gamma \sqrt{2gH_p}}$$

Bunda:  $Q$  -eng kichik yuzadan o'tadigan metall massasi, kg;

$\tau$  -quyish vaqt, sek. (soniya);

$\gamma$  - suyuq metall zinchligi, g/sm<sup>3</sup>;

$\mu$  -ishqalanishni va burilishlarni e'tiborga oluvchi quyish tizimining sarf koeffitsiyenti;

$H_p$ -hisob bosimi, sm.

Quyish vaqtini aniqlash uchun quyilayotgan metall og'irligi quyma devorlarining qalinligi va hoshqa kattaliklarni e'tiborga oluvchi nisbatlardan foydalaniladi. Eng ko'p qo'llaniladigan tenglik quyidagi ko'rinishga ega:

$$\tau = S^{3/\delta Q}$$

Bunda:  $\delta$  -quymaning eng ko'p miqdordagi devorlarining qalinligi, mm;

$S$  -quymaning sbakli va devor qalinliklarini e'tiborga oluvchi koeffitsiyent:

(Cho'yanga 5-1,7-2,0; po'latga 0,91-1,7; mis qotishmalarga 2,0-2,1; alyuminiy qotishmalariga 1,7-3,0; magniy qotishmalariga 2,3-4,5).

Bosim  $H$  quyish usuli, quyish tizimining turi, quymaning tjoipiwdagi joylashuvi va boshqa ko'rsatkichlarga bogliq.

Quvmakorlikda  $H_p$ ni aniqlash tenglamasi asosan quyidagi ko'rinishga ega:

$$H_p = H_0 - \frac{p^2}{2C}$$

Bunda:  $H_0$  -boshiang'ich holatdagi eng katta bosim, sm;

P - quymaning eng baland nuqtasidan metall uzatish nuqtasi- gacha bo'lgan masofa, sm;

C - quymaning qolipdagi balandligi, sm.

Quyish cho'michlarining ba'zi turlaridan foydalanimganda masalan, egiluvchi quyish cho'michi), qolip doimiy bosim  $H_0$  ostida to'ladi.

Uzatish nuqtasidan teparoqda joylashgan qismi esa H dan ( $H_0$ -P) gacha oraliqda o'zgaruvchi bosim ostida to'ladi. Shuning uchun tenglamaga o'rtaча bosim  $H_0$  kattaligi kiritiladi.

Quyish tizimining sarf koeffitsiyenti  $\mu$  jadval yordamida tanlab olinadi. Asosan  $\mu$  quyidagi oraliqlarda olinadi:

Co'yan uchun nam qolipga quyishda 0,35-0,50 va quruq qolipga quyishda 0,41-0,60.

Po'lat uchun nam qolipga quyishda 0,25-0,42 va quruq qolipga quyishda 0,30-0,50.

Quyish tizimi qismlarining ko'ndaiang kesim yuzalari nisbati quyidagicha olinadi:

$$F_{\text{tam}} : F_{\text{loshq}} : F_{\text{ust}} = 1,0 : 1,2 : 1A$$

Rangii metall qotishmalari (mis, alyumimy, magniy) uchun quyish tizimini tanlashda qolip bo'shlig'i bir maromda sokinlik bilan tolishiga ahamiyat beriladi.

Shuning uchun ularga quyish tizimining kengayib boruvchi turi tanlab olinadi va metall ostki qismdan qolipga uzatiladi.

Ko'pincha vertikal tirkishli quyish tizimidan foydalanimladi. Bu tizim qolip bo'shlig'ini bir maromda tolishini ta'minlash bilan bir qatorda quymaning kristallanishini yo'naltirish unkonini beradi.

Quyish tizim qismlarining ko'ndalang kesim yuzalan quyidagi nisbatda olinadi: alyuminiy va magniy qotishmalari uchun

$$F_{\text{tam}} : F_{\text{loshq}} : F_{\text{ust}} = 1 : 2 : 4 = 1 : 3 : 6 \text{ mis qotishmalari uchun:}$$

\*

$$F_{\text{tam}} : F_{\text{loshq}} : F_{\text{ust}} = 1:2:2(1:2:4 \text{ yoki } 1:4:4).$$

Po'lat quymalar olishda murakkab shlak tutqichiarga hojat yo'q. Faqat ta'minlagichni qolip bo'shlig'iga to'g'ri loyihalashtiriisa kifoya. Ko'proq ostki quyish tizimi va qavutli quyish tizimidan foydalanimladi.

Katta hajm va og'irlikka ega bo'lgan quymalar olishda quyish tizimi keramik o'zaklarlardan yasaladi Bunday quyish tizimi mustahkam bo'lib, issiqlik va yuqori bosim ta'sirida yuvilib ketmaydi.

Po'latdan quymalar olishda ustama ta'minot va gaz chiqargichlar katta ahamivatga ega.

**Hisobot mazmuni.**

1. Quyish tizimi turlari.
2. Quyish tizimini hisoblash.
3. Turli metallar uchun quyish tizimini hisoblash.

**Nazorat savollari.**

1. Quyish tizimi elementlari.
2. Quyish tizimini hisoblash.
3. Quyish tizimini hisoblashda talablar.

## 7 - AMALIY MASHG'ULOT


### XOVURAKLAR (VIPORI), USTAMA (PRIBILLAR), MUZLATGICHALAR

**Ishning maqsadi:** Ustamalar, xovuraklar va muzlatgichlarni vazifasi va ishlatalilishi.

**Ishning nazariy qismi:** Ishning birinchi qismida mayda va o'rtacha quymalarni tamirlash uchun xovuraklar qo'llaniladi, silindr, baraban, vtulka kabi yoriqlarini taminlash uchun esa – yaxlit xalqasimon ustamalar qo'llaniladi.

Xovuraklar yana qoliplardan gazlarni chiqarish va quyuv jarayonining borishini kuzatish uchun xizmat qiladi.

O'zaklar soni ko'p bo'lgan katta o'lchamli cho'yan quymalarni quyishda xovuraklar orqali qotishma o'tkaziladi. Yassi quymalarni ishlab chiqarishda, ta'minlagichlarga nisbatan teskari, quymaning oxirida joylashgan, olib ketuvchi (otvodniy) xovurakdan foydalaniлади.



7.1-rasm. Ustamaning turli qurilmalari.

a) eng katta o'lchamlarga ega; b) gaz hosil qiladigan; c) suyuq qotishma bilan ta'milanadigan diafragma; d) suyuq shisha arala什masidan yasalgan issiqlik chiqaruvchan (ekzotermik) stakan.

Quymalarning qotishidagi hajmiy kirishuvni qoplash uchun katta kirishuvli qotishmalardan (po'latlar, qalaysiz, bronzalar va shunga o'xshash) quymalar chiqarishda aksariyat xollarda ustamalardan foydalaniлади. Ustamalarga ko'pmiqdorda qotishmalar sarflanadi: kattaquymada – uning 30-50% vaznigacha. Quymalarni ta'minlash samaradorligini saqlah qolgan holda, ustamalar o'lchamlarini kamaytirishga imkon beradigan usullar ishlah chiqildi (7.1-rasm).

7.1-rasm, a-da ko'rsatilgan ustama eng katta o'lchamlarga ega va kam iqtisodli bo'lgani uchun axyon-axyonda qo'llaniladi. Atrofdagi muxitiga issiqlik berilishini qaytirish uchun patron ichida joylashgan (7.1-rasm,b) gaz hosil qiladigan moddaning (mel) parchalanishi hisobiga ichida yuqori bosim hosil bo'ladigan sferik yopiq pribillardan foydalaniлади.

Ustamani ajratishni osonlashtirish uchun olovga chidamli ashyodan yasalgan, dumaloq teshigi orqali quyma ustamadan suyuq qotishma bilan ta'minlanadigan diafragma 1 (7.1-rasm,c) xizmat qiladi. Temir aralashmasini hosil qiladigan, tarkibiga mayda alyumin qirindisi xamda temir qasmog'i (okalina) qiradigan suyuq shisha aralashmasidan qilingan issiqlik chiqaruvchan (ekzotermik) stakanni 2 (7.1-rasm,d) ishlatalish ancha samaradorlikka ega. Pribilning suyuq qotishmasi bilan bunday aralashma qizdirilganda alyuminiyning tez oksidlanishi yuzberadi, buning oqibatida katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi va pribildagi suyuq qotishma xarorati ko'tariladi.

Quymalarning bir me'erdagi yoki yo'naltirilgan qotishini ta'minlash uchunsovutkichlardan foydalananiladi.

Ular quyma aloxida bo'laklarining sovishi tezligini oshirishda, qotishma strukturasini yaxshilashadi, ustamalar o'lchamlarini kamaytiradi. Tashqi va yangi sovutgichlarni farqlashadi. Oxirgilar kimyoviy tarkibi bo'yicha quyma qotishmasiga muvofiqbo'lishlarikerak.

#### Ikkinci qism.

*Usatamalar qurilmasining hisobini ishlab chiqishda quyidagi nizomlar bilan boshqariladilar:*

- 1.Ustama quymadan so'ng qotishi uchun ma'lumke simga ega bo'lmog'I kerak.
2. Taminlanayotgan qolipdagi metall kirishishini qoplash uchun ustama yetarli hajmga ega bo'lishi kerak.
3. Kirishish chig'anog'I to'laligicha ustamada joylashuvi uchun ustamaning balandligi shunga yarasha bo'lmog'I kerak.
4. Ustamani tashqi shakli uning eng kam hajmini ta'minlashi kerak.

Ustama hajmini icbiga chizilgan aylanalar usuli bilan aniqlash maqsadga muvofiq. Quymaning qolip kesimiga aylana shunday qilib chiziladiki (7.1-rasm,b), u quyma konturlariga tegib turishi kerak. Ushbu holda aylana quymaning ichki konturi bo'yicha chiziladi (bu tashqisirtgaishlovberilmaydi). Tashqi kontur bo'yicha quyum (pripusk) hosil bo'ladi, u g'ildirak to'g'iniga ishlovberilganda olibtashlanadi. Shundan keyin ustama quriladi. R nuqtadan vertikal 3 gradus burchak ostida RR to'g'richizig'I o'tkazadilar. Ustama asosi maydoni MR ga teng bo'lmog'I kerak.

Bu sirdan h quyimini qoldirishadi, u ustamani avtogen bilan kesib tashlash uchun zarurdir. S va T nuqtalaridan 45 gradusli burchak ostida chiziq o'tkazadilar va vertikal 5 gradusli burchak ostida ustamaning vertikal devorlarini chizib chiqadilar. Kirishuv chig'anog'ining joylashadigan joyini izoterma-izosoliduslar (7.1-rasm,a) o'tkazish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Kirishish chig'anog'ini qoplash uchun zarur bo'lgan metall hajmi ushbu qotishmaning hajmiy kirishish kattaligi va ta'minlanadigan tugun hajmiga bog'liq. Ustamashakliga qarab qoplovchi metall hajmiga diametri d (7.1-rasm) bo'lgan silindr yoki shar shakli beriladi va uning kattaligini nomogramma bo'yicha ta'minlanuvchi tugunning N-balandligi va D-diametriga qarab olinadi. S.V. Russiyan ma'lumotlari bo'yicha qoplovchi metallni suyuq holda saqlash uchun, d

diametrlı olingan shar metal qatlami bilan aylantirib chiqiladi, u ustama asosining yarmiga teng qilib olinadi.

Quyida keltirilgan ifodalar bo'yicha ustamaning balandligi tekshiriladi:

$$Yopiqlarini H = d_0 - C, 85D$$

$$Ochiqlarini = d_0 + 1,35D$$

Chetlatuvchi yopiq ustamalarning ta'minlanuvchi tugunichiga chizilgan D aylananing diametriga bog'langan holda qurishadi. Bunda quyidagi nisbatlarga rioya qilish zarur: ichki chizilgan D aylananing diametri ustamani quyma bilan ulab turuvchi bo'yinchaga kesimining eng kichik o'lchami t dan kam bo'lmg'ı kerak, t o'lchami chetlatuvchi yopiq ustama diametri kichik bo'lmg'ı kerak. Bu uch kattalik quyidagi nisbatlar orqali bog'lanishlari kerak:


$$t = (1,3 - 1,7)D; \quad d_0 = (1,8 : 2,5)D \quad va \quad t = \frac{d_0 D}{2}$$

Bo'yinchaning ko'ndalang kesimini ovalning eng kichik o'lchami t bilan oval shaklida qilmoqlik kerak. Ovalning ikkinchi o'lchami (1,2-1,5) t qilib, ta'minlanayotgan tugun cho'ziluvchanligi L ga bog'langan holda qabul qilinadi. t ning eng kam qiymatiga ushbu ustama bilan ta'minlanayotgan tugunning kichik cho'ziqligi  $L < 2D$  muvofiq keladi; eng katta qiymatiga  $L = 8 - 12D$  katta cho'ziqlik muvofiq keladi.

Hovurak asosida kesimni quyma devorining kesimiga (1/2-3/4) teng qilib olinadi (18-rasm,a).


Hovurakning quymadan ajratilishini yanada osonlashtirish uchun hovurak asosida siqilgan joy hosil qilinadi. Agar quyma to'laligicha pastki yarim qolipda joylashsa, chetlatuvchi hovuraklar qo'yish kerak (18-rasm,b).

Ular quymada kirishish g'ovakliklarini hosil qilmaydirlar va undan oson ajraladilar.




7.2-rasm. Kirishish chig'anog'i va ustama asosining Joylashuvini aniqlashning aylanalar usuli.

a) kirishish chig'anog'i b) ustama asosining joylashuvi.



7.3-rasm. Silindirik quymanning ustama o'chamlarini aniqlash.




a)b)

7.4-rasm. Hovuraklar: a)to'g'ri; b) chetlatuvchi.

**Sovutgichlar.** Quymaning ustamalar o'rnatish uchun noqquylay bo'lagni va quyish paytida pastda yoki yonda joylashgan ba'zi tugunlari uchun sovutgichlar yordamida kirishish nuqsonlarini yo'qotishga metalning yo'naltirilgan qotishini yaratish yetarli bo'lishi mumkin.

Sovutgichlarni kulrang cho'yandan plita ko'rinishida yoki maxsus shakldor plitka, quymaning ma'lum tashki sirtini sovutish uchun mo'ljallangan qilib oladilar. Rangli va cho'yan quymalar uchun sovutgichlar misollari 7.4-rasmida ko'rsatilgan.



7.5-rasm. Sovutgichlar: 1-sirtqi; 2-ichki; 3-kirishish chig'anog'i

Sovutgich qumli qolipga nisbatan katta issiqlik o'tkazuchanlikka va issiqlik sig'imiga ega, shuning uchun qotayotgan quymadan ko'proq issiqlik miqdorini olib ketadi, sovutgich o'matilgan vaznli tugunning qotish tezligi ortadi, kirishish nuqsonlari hosil bo'lish ehtimoli kamayadi (18-rasm.a,b).

#### **Hisobot mazmuni**

1. Quyish tizimini turlari
2. Quyish tizimini hisoblash usullari
3. Ustamalar, sovutgichlar, xovurakar, ularni ishlatalinishi

#### **Nazorat savollari.**

1. Suyuq metalni qolipga quyish turlari.
2. Qyuyish tizimini hisoblash usullari.
3. Turli qotishmalar uchun quyish tizimlarini farqlanishi.
4. Ustamalr turlari, ustamalarni hisoblash.
5. Xovurakalr va muzlatkichlar vazifasi.

## 8 - AMALIY MASHG'ULOT

### SUYUQLANTIRISH JARAYONIGA BOG'LIQ BO'LGAN NUQSONLAR TAHLILI

**Ishning maqsadi.** Quymakorlik nazariyasiga bog'liq bo'lgan nuqsonlar. Quymakorlik qotishmalarini suyuqlantirishga va qolipga quyishga bog'liqnuqsonlarni tahlili.

**Ishning nazarly qismi:** Quymakorlikda nuqsonli deb sifati bo'yicha Standartlarga va Texnik shatrlarga javob bermaydigan va to'g'ri ishlab ho'lmaydigan, yoki nuqsoni tuzatilgandan so'ng tib ishlatishga yaroqli quymalar hisoblanadi.

Tuzatib bo'lmaydigan deb texnik sifatidan to'g'rilib bo'lmaydigan yoki iqtisodiyot tarafidan to'g'rilashga arzimaydigan quyma hisoblanadi, to'g'rilingandan keyin yaroqli deb hisoblash mumkin.

Nuqsonlar ichki va tashqiga bo'linadi: ichkisiga quymakorlik sexida aniqlangan, quymaga ishlov beradigan sexlarda aniqlangan, va reklamatsionli deb quymakorlik sexida hosil bo'lgan, quymani ishlatishda yoki mashina yeg'ishda aniqlangan hisoblanadi. Quymakorlik nuqsonlarni oldini olish mumkin, agarda ularni hosil bo'lish sabablari aniqlansa, shuning uchun OTK xodimlarini ish vazifasiga mahsulotni sifatini nazorat qilishdan tashqari uni sabablarini aniqlash va texnologlarga nuqsonga qarshi kurashish yo'llarini topish.

Oddiy ko'rish, o'lichash, «gidravlik tekshirishlar», yirik va maxsus quymalar rentgen va gamma defektoskopiyada tekshiriladi.

Ultratovush, magnit defektoskopiya gaz yordamida g'ovaklari, kirishish bo'shliqlari, shlak va flyus qo'shimchalari, oksidlangan yorilishlar, yupqa qoplamlar nuqsonlarini aniqlanadi. Quymalarni mexanik xususiyatlari aniqlash uchun detallar bilan birga tekshirish uchun namunalar quyib olinadi.

Tuga muvofiq bazi bir nozik detallar nazorat qilishda quyma kesiladi, uni mikro va makrotuzilishini, mexanik xususiyatlarini quymani maxsus joylaridan kesib olinadi. Suyuqlantirishni tartibini buzish, sifatsiz shixta materiallarini tayyorlash, quyish texnologiyasini buzish quymalarni turli nuqsonlarga olib keladi.

Ishni bajarishda talabalar quymalarni turli nuqsonlari bo'lgan kolleksiyasidan foydalaniшadi. Bu nuqsonlar qolip va o'zak tayyorlashda qo'yilgan xatolar va tayyorlangan suyuq metalni sifati, qo'yish texnologiyasi, qoliplarni sifatiga bog'liqdir. Talabalar quymalarda nuqsonlarini, uni keltirgan sabablarini, ayniqsa suyuqlantirish bilan bog'liq bo'lgan va jadvalda keltirilgan klassifikatsiyaga muvofiq o'rganishadi.

8.1-jadval

Guruh	Nuqson turi va uni belgilari	Suyuqlantirish va quyichga bo'lgan bo'lgan nuqsonlarni keltirgan sabablar
Quymani geometriyasini buzilgani	<b>To'la quyilmagan-</b> Quymani qolipdag'i shakli suyuq metall bilan to'imagan.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Optimal kimyoiv tarkibidan tashqarida bo'lgani uchun suyuq metalni euvchunligi pasayib ketgan.</li> <li>Suyuq quvuladigan metalni darajasi normadan pastroq</li> <li>Suyuq metalni quyish bosimi past.</li> </ol>
	Suyuq metall bir biriga qo'shilmasdan bazi joy'larda quyishda qatlam bo'lgan	<ol style="list-style-type: none"> <li>Suyuq metalni darajasi past</li> <li>Metalni quyish tezligi past</li> </ol>
Qotishmani yuzasi tozamas va yuzasida nuqsonlar bor	<p><b>Quyish-qum bilan ifloslangan va oksidlari bor yuzasi, sababi qolip aralashmasini suyuq metall bilan kimyoiv va fizikaviy bir biri bilan ta'sirlanishi natijasida</b></p> <p><b>Quyma yuzasidagi qatlam-quymani yuzasida bir biriga yopishmag'an suyuq metallni equmi</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Quyiladigan metalni darajasi past</li> <li>Quyish texnologik jarayoni buzilgan (quylishda oqim to'xtatilganligi sababli yoki juda sekun suyuq metalni quyish).</li> </ol>
Quymani tanasini butunligi va tekisligi yo'q.	<b>Issiq yorilishlar -</b> quymani tanasi yorilgan, qotishmani kirishishida yoki quymani kristallanishida	<ol style="list-style-type: none"> <li>Beglangan kumyoiv tarkibiga to'g'ri kelmafeligi</li> <li>Quyish darajasini balandligi</li> </ol>
	<b>Gaz g'ovaklari</b> quymani tanasida silliq yoki oksidlangan quyilmalar	<ol style="list-style-type: none"> <li>Suyuqlantirish jarayonunu buzilish.</li> <li>Suyuq metalda gazlarni ko'pligi</li> </ol>
	<b>Kirishish g'ovaklari</b> quymani tanasida qo'pol yuzalni notekisliklar, qotishmani har xil kirishishi sababli.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ko'rsatilgan kimyoiv tarkibidan chikib ketchish.</li> <li>Quyish darajasini balandligi.</li> <li>Quymani kristallanish vaktida suyuq metalni yetarli darajada kelmasligi.</li> </ol>
	<b>G'ovaklar gaz va kirishish g'ovaklari</b> yig'ilishi yoki qotishmani zichmasligi	<ol style="list-style-type: none"> <li>Suyuq metalda gazlarni ko'pligi.</li> <li>Quyish darajasini pastligi.</li> <li>Shixtanu iflosligi.</li> </ol>
Quymani parametrlari va hususiyatlari to'g'ri kelmasligi	<p>a. Tuzilishni o'zgarishi</p> <p>b. Kimyoiv tarkibini o'zgarishi</p> <p>v. Mexanik hususiyatlarini o'zgarishi.</p> <p>g. Fizikaviy hususiyatlarini o'zgarishi.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ko'rsatilgan kimyoiv tarkibi o'zgargan.</li> <li>Suyuqlantirish rejasи (jarayoni) buzilgan</li> <li>Shixta nolo'g'ri tuzilgan.</li> <li>Modifikatsiya qilish va roliniňlash jarayoni buzilgan.</li> </ol>

### *Hisobot mazmuni*

1. Quymakorlardagi asosiy nuqsonlarni yozma ravishda ko'rsatish, suyuqlantirish yoki quyish bog'liq bo'lgani uchun va har qaysisini sxematik chizib quyish.
2. Nuqsonlarni suyuqlantirish va quyish bo'lgani sabablarini haqida hulosa berish.

### *Nazorat savollari.*

- 1.Nuqsonlarni turlari
- 2.Nuqsonlar paydo bo'lish sabablari
- 3.Nuqsonlar bilan kurashish choralar

## 9 - AMALIY MASHG'ULOT

### INDUKSION PECHIDA SINTETIK CHO'YANNI SUYUQLANTIRISH

**Ishning maqsadi:** Induksion pechida sintetik cho'yanni suyuqlashtirish jarayonining texnologiyasi bilan tanishish.

**Ishning nazariy qismi:** Ishning birinchi qismidagi ishlar borasida.

*Ishni bajarish metodikasi va asosiy m'lumotlari.*

Quymakorlikda zamonaviy texnologik jarayonlardan biri induksion pechida sintetik cho'yanni suyuqlashtirish.

**Ishlatiladigan materiallar:** Tunika qirqimlari, cho'yan, po'lat qirqindilari va boshqa arzon sortli metall chiqindilari ishlatiladi. Shixta materiallarini va ferroqotishmalarining asosiy tavsifi jadvalda keltirilgan. (9.1-jadval)

**Shixta materiallari**

9.1-jadval

Materiallar	GOST	Elementlar miqdori, %				
		C	Si	Mn	P	S
		<i>Ko'pi bilan</i>				
Cho'yan qirindilari	2787-86	3,0-3,7	1,2-2,4	0,5-0,9	0,15	0-3
Uglerodli po'latni chiqindilari.	2787-86 gr. -A4	0,3-0,5	0,1-0,4	0,3-0,6	0,06	0,01
Elektrotexnika sanoatida ishlatiladigan po'latning chiqindilari	802-58 802-58	0,15-0,20 0,15-0,20	1,4-2,0 3,0-4,0	0,20-0,25 0,20-0,25	0,02 0,02	0,03 0,03
Quymakorlik chiqindilari		2,5-3,9	1,7-2,6	0,70 gacha	0,10	0,20

Hamma shixta materiallarni kemyoviy tarkibi, zararli qo'shimchalar miqdori va bo'laklarini kattaliklari tekshiriladi.

Shixta materiallari va chiqindilar zanglamagan, quymagan va kislota bilan ta'sirlanmagan bo'lishi kerak. Qo'shimcha moddalar bilan iflosianish miqdori 1% dan oshmasligi lozim.

Bo'laklarning kattaligi ko'rsatilgan o'lchamda bo'lishi kerak, shundagina ular pechning tigeliga oson joylashadi. Po'lat qirqindilari boshqa qirqindilar bilan aralashmasligi kerak. Qirqindilar yog'dan tozalanishi lozim. Boshqa moddalar miqdori 3% gacha bo'lishi mumkin.

Sintetik cho'yanni suyuqlantirish asosan yuqori yoki sanoatdag'i chastotali tigel pechlarida amalg'a oshiriladi. Tajriba o'tkaziladigan IST-006 pechning texnik xarakteristikasi quydagicha:

Induksion ishlab chiqarish qvvati min. (kg/soat)	55
Ishlashtemperaturasi ( $^{\circ}\text{C}$ )	1.600
Tigelni (hajmi) sig'imi (kg)	60
Kerakli qvvati (KVt)	75
Tarmoqdagi kuchlanish (V)	220
Boshqarish tarmoqdagi kuchlanish (V)	220
YuCh tarmog'idagi kuchlanish (V)	375
Tarmoqdagi va boshqarishdagi tok (Gs)	50
Yuch tarmoqdagi chistata (Gs)	2.500

Sintetik cho'yanni induksion pechlarda suyuqlantirish texnologiyasi quyidagicha:

Shixtani yuklash, suyuqlanirish, uglerod bilan boyitish, qizdirish va kimyoviy tarkibni miqdoriga yetkazish, modifikatsiyalash, pechdan chiqarish.

Shixta materiallari pechga qo'lda yuklanadi. Suyuqlanish jarayoni induksion tok hisobiga ro'y beradi. Qotishma suyuqlangandan keyin uglerod bilan boyitish, kimyoviy tarkibini miqdorigacha yetkazish operatsiyalari o'tkaziladi, shundan keyin metall 1.400-1.450  $^{\circ}\text{C}$  darajaga qizdiriladi. So'ngra metallni kimyoviy tarkibi, oq cho'yan (othel) bo'yicha va qattiqlik bo'yicha taxlil qilish uchun namunalar olinadi.

Taxlil qilish natijalariga qarab, kerakli moddalar qo'shib so'ngi metall 1.450-1480 $^{\circ}\text{C}$  darajaga qizdiriladi va pechdan chiqarib olinadi.

Suyuq metallni kimyoviy tarkibi to'g'ri bo'lish uchun, shixta materiallarini kimyoviy tarkibini bilish va quyishini ugarni hisobga olish kerak. Elementlarni kuyishni asosan suyuqlantirish jarayonlarida va metalga qo'shimcha moddalar kiritishda ro'y beradi. Elementlarni kuyishni shixtani hisoblashda quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$U_{ei} = A_{ei} + B_{ei} \cdot t ;$$

Bu yerda :

$U_{ei}$  – I chi elementning kuyishi ( $U_s$  – uglerod kuyishi)

$U_{si}$  – kremniyning kuyishi.

$$U_{ei} = \frac{E_{ish} - E_{iis}}{E_{ish}} .$$

Bu yerda :

$E_{ish}$  – shixtadagi elementning miqdori,

$E_{iis}$  – metalndagi elementning miqdori.

$A_{ei}$  – qirindining suyuqlanishi va 1350 $^{\circ}\text{C}$  darajaga qizdirishda elementning kuyishini tavsiflovchi koefitsient.

$V_{ei}$  – cuyuq metalni 1350-1550 $^{\circ}\text{C}$  daraja intervalida qizdirish va izotermik toplashda elementlarni kuyishini hisohga oluvchi koefitsient.

$t$  – 1350 $^{\circ}\text{C}$  darajadan yuqorida qizdirish vaqt, soat. A i V koefitsientlarining miqdori 9.1-jadvalda keltirilgan.

**Metallni qizdirish darajasi**

Qizdirish darjası 0°C	S		Si		Mn		Cr	
	A	V	A	V	A	V	A	V
1350	4,3	0,15	4,1	0,0	1,4	0,58	4,4	1,21
1400	4,3	0,73	4,3	0,0	1,4	0,61	4,4	1,07
1450	4,6	2,25	4,1	0,39	1,4	0,61	4,4	1,48
1500	4,9	5,00	4,6	1,53	1,4	1,33	4,4	2,57
1550	5,4	8,11	4,8	3,77	1,4	1,82	4,4	2,82

Elementning kuyishini va uning shixtagi miqdorini bilgan holda suyuq metalldagi yetmagan elementlar miqdorini aniqlash va o'zlashtirish koefitsientini hisobga olgan holda pechga kiritish mumkin.

**Ikkinchchi qism.**

*Misol:* Kimyoiy tarkibi 3,5% C; 2,4% Si 1,0% Mn va 0,4% Cr bo'lgan sintetik cho'yan suyuqlantirib olish kerak. Suyuq metallni qizdirish darajası

T = 1500°C ushbu darajada qizdirish vaqtı t = 2 soat;

**Yechish:****1. Uglerodni kuyishini aniqlaymiz:**

$$Us = 4,9 + 5 \times 2 = 14,9 \quad Sm = 3,5\%$$

Bu yerda:

$$Us = \frac{C_{us} - C_{sh}}{C_{us}} \cdot 100\% \quad S_{sh} = 3,1\%$$

Berilgan tenglamani yechib Sm ni aniqlaymiz:

$$Sm = S_{sh} - S_{th} = \frac{\frac{y_c}{100} \cdot 5,1 - 3,1 \cdot \frac{14,9}{100}}{100} = 3,1 \cdot 0,45 = 2,65\%$$

Qo'shimcha kerak bo'ladigan S miqdorini:

$$S = Sm^{kerak} - Sm = 3,5 - 2,64 = 0,86\%$$

Karbyurizatorni miqdorini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$G_e = \frac{\Delta C \cdot G_u}{100} \cdot \frac{1}{K_y} \cdot \frac{1}{K_c}$$

Bu yerda:

Gc – kerakli uglerodsizlantirish miqdori, kg;

Gm – suyuqlantirib olinadigan metall miqdori, kg;

Ku – uglerodsizlantirishi o'zlashtirish koeffitsiyenti;

Ks – uglerodsizlantirishdagi uglerod miqdori.

90, 9 % uglerodli karbyuratorni o'zlashtirishni 90% tashkil qiladi, uni kerakli miqdori

